

... Sen vatan sogʻinchi nima bilmassan ham, Chaman! Vatan sogʻinchini vatandan hijrat etganlardan soʻra! U sogʻinchi oʻrtab kelganda hamma narsa bir tomon, vatan ham bir tomon boʻlib qoluvini, uning havolaridan bir bora nafas olmoq, suvidan bir qultumgina ichmoq jahondagi jamiki narsalardan azizroq boʻlib koʻrinuvini sen qaydan bilarding, doʻstim?!

B Mayli, elim meni quvgʻindi deb atasin, xalqim sigʻindi deb bilsin, men oʻzimni ular bilan etu tirnoqdek deb bilarkan! Sultonmurod ("Sarhad oshgan maktublaridan)

Muqaddima "Ibrohim Maqomidagi Vatanjudo...

Bismillahir Rohmanir Rohiyim

Siz darsxonamda hech boʻlmagansiz. Oʻzim ham u yerga hammadan qizgʻbonib, yomon koʻz, yomon nazarlardan berkitib bir narsalar bitadigan paytlarim kiraman xolos. Oʻzi tordan-tor, bitta karavotu ustol zoʻrgʻba sigʻhadi. Ammo dunyoda undan osuda, undan keng joyning oʻzi yoʻq menga.

Yolgʻbiz deraza tagiga oʻtirvolsam hech kim, hech narsa chalgʻbita olmaydi meni. Qolaversa, hammayoqqa parda tutib tashlaganman. Hatto qibla tarafdagi mehrobsimon deraza oʻrnidan tortib, bu yoqdagi tokchaga dovur oq-oppoq parda tortigʻbliq. Oʻsha "mehrob tarafdagisini har zamonda bir sogʻinib, koʻrgim kelib ochmasam, roʻparadagisiga koʻpdan qoʻl urganim yoʻq. U yerda kishibilmas tokchamiz boʻlib, unda nima saqlanishini hatto Saida bilmaydi. Kennoyimga shipshib qoʻymasini deb... aytmaganman. Qibla tarafdagi parda ortida esa, uzoq sharif diyordan keltirilgan boshqa narsa bor. Oʻziyam qiblagay yarashadigan. Toʻgʻbhirogbʻi, dunyodagi eng muborak shahar - Makkada olinib, Turkiyadami - qacarda quloch yetmas shildiroq qogʻbozga bosilgan bir suvrat... Tabarrukki, qoʻyaverasiz. Ranglari ham tiniqdan tiniq, nurlidan nurli, oʻzi shunday nozik-ado qilib olinganki, soatlab termulib toʻymaslik mumkin.

Ana oʻsha suvratdan bir qarashdayoq kishini rom etib qoʻyadigan, osmonlarga aloqador bir ilohiy nur, fayzi futuh yogʻbiladiki, bu adoqsiz nur qaydan kelyapti, darhol ajratish maholdan mahol.

Har qanday koʻhlik narsa ham bir koʻrishli. Nari borsa, ikki-uch koʻzni quvnatib, soʻng ohori toʻkiladi- qoladi. Ayniqsa, u suvrat boʻlsa. Ammo bu qancha vaqt kechmasin, necha qaytalab koʻrmang - hech-hech eskirmaydi. Qaytaga har gal yangarib-jilolanib, nimasi bilandir sizni rom etaveradi, etaveradi. Sir-asrori ham shunda. Balki oyim qiblay muazzama deganlaricha bordir?..

Bunday narsalarning Hijoz tomonlardan kela boshlashi, avvalo, Xudoning inoyati. Boʻlmasa, ularga yetishish qayda ediyo, uylarimiz toʻriga ilish qayda edi!.. Biz shu yoshga kirib, Kabaning tasviri tushirilgan joynamoz-gilamchalarni ham koʻrmagan edik. Sharif diyorning tarifi onalarimiz ogʻbizlaridan ogʻbizga oʻtib kelardi, xolos. Mana endi oʻsha qoʻl yetmas diyor tasvirlari...

Darvoqe, men oʻsha yodgor narsani qanday qoʻlga kiritganim haqda aytmoqchi edim, uzr.

Jumalardan birida "Qozirabot jomesiga borsam, kitob rastasi yonida bir toʻp odam pastak oʻt-devor ustiga yoyib qoʻyilgan rangin suvratlardan koʻz uzisha olmay turibdi.

Ular shunday tiniq ham nozik-ado ediki, bir qarashda suvratmi, moʻyqalamda ishlab, soʻng chop etilganmi - ajratib boʻlmasdi. Soʻrab bildik, sharif shaharning suvratlari ekan. U tomonlarda suvrat olishu chop etish shu qadar rivojlanib, farangilardan-da oʻzib ketishibdi.

Chindan-da, piyoz poʻstidek nozik shildiroq qogʻbozlardagi suvratlar gbʻbaroyib darajada tiniq edi. Nuri ham bir boʻlakcha, qaragan saring dil yumshab, bir sir bosib kelaverardi. Balki hamma gap oʻsha sir-dadir. Uning tagiga yetging keladiyo, yetolmaysan. Koʻngil uzib ham ketolmaysan. Shunaqa ohanrabosi bor...

Meni nima sir bosdi, desam, yonimdagi qariyalar ham allaqanday halim tortib, mutaassirlanib qolibdilar. Qaybirlari koʻzlarida yosh, yelkalariga tashlagan belbogʻbʻlarining uchini kishibilmas mijjalariga bosib-bosib, olmoqdalar. Qaybirlari esa, u muborak tasvirlarni silab-siypab, yuz-koʻzlariga surtmoqqa tushgan edilar. Shunchalik tabarruk...

Avvaliga ilgʻbamabman, shunaqa suvratlardan yana bittasi... roʻparadagi temir panjaraga ilib qoʻyilgan ekan.

Ana bunisi - hammasidan zoʻr edi! Qaragandayoq kishi chippa yopishadigan edi. Ayniqsa, oʻrtadagi "Qora uy, uning ortida osmonlarga dovur tutashgan qoʻsh minora, pastda - tavof maydoniga endi kira boshlagan oq ehromli kishilar - shunaqa jonli, tabiiy edilarki, bir qarashdayoq mixlanib qolmoq mumkin edi. Beixtiyor yaqinroq bordimu tagidan jilolmay qoldim. Ajoyib! Shu ekanmi, Allohning uyi - Kabatulloh deganlari?! Men oʻzimni uning tagida turgandek his etar, jindek harakat etsam - oʻsha oq ehromli umrachilarga qoʻshilib ketadigandek edim, tavba.

Ustiga ajoyib kabapoʻsh yopilgan "Qora uy shunaqa bir nuqtadan suvratga olingan ediki, (balki men oʻsha nuqtaga yaqin yerda turgandirman!) oʻzimni tavof maydoniga tushib qolgandek his etar edim. Goʻyo chaqirsam ovozim oq ehromli kishilarga yetadigandek edi. Qolaversa, Kabatulloh osmonidan ustimga bir rahmat nurimi, nima yogʻbilib, allaqanday sir bosib kelmoqda...

Men shuncha gazetada ishlab, jahonni necha aylangan mashhur suvratlarni koʻrib ham hech bu holga tushmagan edim. Jonu jahonimni bunchalik qamramagan edi hech biri!

Bu esa rom etgandi-qoʻygandi! Nainki rom etgandi, men oʻzimni uning bir boʻlagidek his etmoqdaydim. Hatto anavi Allohning mehmonlaridan biriga aylanib qolgim kelmoqdaydi...

Chindan ajoyib edi "Qora uy deganlari. Oʻzi oddiy qora toshdan-u, ammo shunday serviqor, osmonlarga aloqadorki... Hatto tepasidan aylanib suzib oʻtayotib, toʻxtab qolgandek anavi oq-oppoq pagʻba bulutlar ham bu uy, bu maydonga aloqasi bordek edilar. Har tarafdin rohatbaxsh bir nurlar yogʻbilayotgandek. Ayniqsa, farishtalardek oq-oppoq ehromli kishilarbʻ" Alloh mehmonlarining tavof maydoniga kirib kelishlarini koʻrgandayoq odam bir orziqib tushar, oʻshalarning safida boʻlib qolgisi kelaverardi. Nega shunday, siri-asrori nimada - hech tushunib boʻlmasdi.

Suvratchisi tushmagur shuncha narsani bir yoʻla qanday qamrab olibdi, bu mutanosiblikni qanday topibdi - aql bovar qilmasdi.

Balki qay nuqtadan olmasin, bundan kam chiqmas, fayzi-futuhi shunday boʻlaverar? Axir uni Kabatulloh deb qoʻyibdilar?! U yagona-ku bu jahon ayvonida!

Ana endi topgandek edim sir-asrorini: meni rom etgan narsa - oʻsha fayzi-futuh edi!

Hozir - shu turishimda ham qaerdaligimni unutib, tavof maydoniga tushib borgudek bir holatda, Kabatullohu uning osmonidan yogʻbilayotgan fayzi-futuhning asiri boʻlib turar edim.

Kalitini topsang, qolgani oʻz-oʻzidan malum boʻlib boraveradi ekan, hozir men suvratchining sirini ham bilib qolgandek edim. Ana u - qaerdan olibdi ekan! Tavof chizigʻbiga yaqin bir yerda oq ehromli qora qul (uni qora oyoqlaridan zanjiligini bilmoq mumkin edi!) sajdaga bosh urib yotar, Kabatulloh esa, xud-di oʻsha yerga yaqin joydan - sajdadan bosh koʻtara turib (!) olingandek edi! (Balki suvratchisi tushmagur uni shu koʻk chiziqqa tiz bukib turib olgandir?! Anavi sajdadagi qora qulning ortidan - uning koʻz nigohi ila olgandir?)

Nima boʻlganda ham unda moʻmin nigohi, Allohga topinadigan kishining nazari bor edi. Oʻsha nazar bilan Kabatullohga qaragan

kishi uni bor bo'y-basti ila ko'rmog'bi, osmonlarga aloqadorligini tuymog'bi va bir umrga ko'z qorachuqlariga jolab olmog'bi mumkin edi. Uning butun jozibasi ham, sir-asrori ham shunda edi!

Ana, nimaga tavofchilarga qo'shilib ketgim kelayotgan ekan!

Ana, nimaga "Qora uying sim-siyox yopinchig'biyu uning peshtoqqa o'xshatib tilla suvi berilgan arabiy yozuvlari - Kalomulloh oyatlaridan ko'z uzolmayotgan ekanman!

Qolaversa, Kabaning "Ibrohim maqomiga qaragan tilla eshigi uning ortidagi haramning oq minoralariga qo'shilib, osmon o'zi bir olamga aylangan edi. Hay-hay, qarang, o'sha moviy olamdan suzib kelib, ulkan alifdek osmon toqiga ko'tarilgan qo'sh minora o'rtasida to'xtagan pag'ba bulutlar minoralar bilan qo'shilib, ramziy yozuv shakliga kirgan edilar-da, bir santi ham jilmay turib qolgan edilar. Bu ham kamdek, o'sha oq jujun bulutlardan rohatbaxsh bir nur yog'bililar, o'sha narsa menga-da tasir etayotgandek edi.

Suvratchi tushmagurlar ana shunday narsani suvratga muhrlab, keyin Turkiyadami, qaerda piyoz po'stidan-da yupqa shildiroq qog'bozlariga bosib, bizning diyorlarga jo'natibdilarmi? Valloh-valloh, mo'jizadan qaeri kam?!.

Shu holda qancha turdim, bilmayman. Bir mahal ko'zimni o'sha jujun bulutlardan uzib, pastda - "Ibrohim maqomida to'xtab, namozga qo'l bog'blagan yolgbiz hojiga qaradimu... undan-da gb'haroyib holga tushdim. Hojining yuz bichimimi, qomatimi (ishqilib alla-qaeri!) juda tanish ko'rinish ketib, boshim gir aylanishga boshladi. Bilmayman, nazarimdami yo aslida ham aylanarmidi... yaxshi ham temir panjara bor ekan, ushlab qoldim. "Bu qanday sinoat yo tasodif? derdim o'zimga o'zim. Balki azbaroyi sog'binganimdan har bitta odam u bo'lib ko'rinoqdadir?

Bir qadam tisarilib, yana ham yaxshiroq tikil- sam - ayni o'zi, akam! Yo qodir Alloh! Shunaqasi ham bo'ladi ekanmi?!

"Ibrohim maqomiga kelganda Kabaga yuzlanib, qo'l bog'blaganicha tek qotgan (nega tek qotadi, namozmi, Quronmi o'qiyotgan!) oq ehromli kishi shunchalar ko'zga yaqin ham tanish ediki, beixtiyor:

- Voh, uning o'zi-ku! - deb yuboribman.

Chindan ham bu qandayin marhamat? Sarhad osholmay, qay diyorlarda sargardon kezgan bir vatanjudoni Alloh o'z uyiga mehmon etib chaqirib olsa? Yorlaqasa! Otalari yetolmagan bir yerga yetib tursa? Buni qanday tushunmoq kerak?.. Balki u ham emas, boshqa vatanjudodir?.. Alloh chaqirig'biga "labbayka va sadayka aytib borgan oddiy hojidir?..

Lekin u kim bo'lganda ham bir topib, so'ng yo'qotgan jigargo'shamizga ikki tomchi suvdek o'xshab ketmoqda, unga aloqador ko'p tarixlarni yodga tushirib, boshim o'zimga xush yoqadurgan tarzda aylanib-aylanib bormoqda edi.

Shundan keyin ham bu suvratni sotib olmayinmi?! Azizlab uyimizning to'ri - qiblasiga ilib qo'y- mayinmi?!

Yaqinroq keling, hijrat tarixining bir go'zal - ham alamli, ham farahli qissasini Sizga ilindim. Sizga Allohdan sabr va muhabbat, o'zimga rostgo'ylik tilab,

Maqsud Mirzo.

"Judolik diyorining avvalgi

kitoblaridan tanish qissago'y ukangiz.

Darvoqe, xonamda yolgbiz shu suvratgina emas, bu tarixga aloqador yana bir talay narsalar ham bor. Shulardan biri - akamning "diyordagilarga xatlaridir.

Uni Chaman akam Tangritog'bi tomonlardanmi, qaydan topib, bir osori-atiqashunos tanishi orqali berib yuboribdi. Necha vaqtdan beri elektr hisobgich ortidagi kishibilmas tokcha-tortmachamizda turibdi, ustidan parda tortig'bliq.

Hali egalari ko'rsatmaganman. Kennoyimga shipshib qo'yishlaridan qochib, shunday asrab kelyapman. U mushfiqaning esa, dardi o'ziga yetarli. Qolaversa, o'sha xatlarning orqasida yana bir narsa - egasi chiqmagan bir shoda marvarid ham bor. Bu narsalarning o'ziga yarasha tarixi borki, uni bir kun kelib ochmay ilojim yo'q. Hamonki, bu tarixni sizga ilingan ekanman, keling, yaxshisi, uni o'sha "diyordagilarga atalgan xatlardan boshlay qolay.

Usiz bu judolik tarixi Sizga ham, kelgusi avlodlarga ham qorong'bi bo'lib qolmasin. Uni miridan siriga qadar nozik ilg'bab bormog'bingizni va davomini ilhaqlik ila kutmog'bingizni tabiatning nozik joylaridan so'rab qolaman.

Alloh uni barchamizga chiroyli etsin. Omin.

Birinchi Bo'lim - Sarhad Oshgan Maktublar

Qiyomatli birodarim Chamanga

"Oh, Chaman, Chaman!

Biz qandayin ham shoshqaloq yaratilgan ekanmiz?! Hatto Yaratgan egam - Allohga tavakkul qilmoqni ham o'rniga qo'ya olmaymiz!

Hamma sabablarini joy-joyiga qo'ygandek edik go'yo... "Hoziq to'ram ham lashkar oldiga chiqib, Xayit-gohga yig'bilgan yetti yashardan yetmish yashargacha xaloyiqqa To'ramdan kam vaz aytmagan edilar! Odamlar necha bor qalqib, takbir aytishga tushgan, vaz oxirida esa, "O'lsak - shahid, yutsak - gb'hoziymiz! deya o'sha yerdanoq jangga otlangan edilar! Bunaqa yakdillik, bunaqa jonfidolikli dunyo dunyo bo'lib ko'rmagandir, Chaman.

Ammo biz pistapo'choqdan kema yasamoqchi bo'lgan ekanmiz!

Chindan ham qachon yolgb'on rostning o'rnini bosibdi?! Puch to'qning o'rniga o'tibdi?! Riyo Allohga xush yoqibdi?!

Biz To'ram qaytdilar deb, shuncha lashkar, shuncha xalqning ko'zini bog'blab, u kishining soyai chehradoshlarini o'rta qochirib qo'yib, gb'balabaga erishmoqchi bo'libmiz! Xalq ishonganda ham... Alloh ko'rib turib edi-ku! Nahot shuni nazardan qochirdik?!

Rost imdod bilan Allohdan nusrat tilash o'rniga biz kimni avramoqchi bo'ldik? Yog'biynimi? Ammo avvalo Allohni aldayotganimizni nega o'ylamadik? Hammadan burun shundan qo'rqmoq lozim emasmi?!

Ana shunaqa, Chaman! Dunyo rostlik ustiga qurilganini ko'p hollarda unutib qo'yamiz-da, armonu pushaymonlar yog'biga qovrulib yotaveramiz keyin. Qachon odam bo'lamiz, bosiq-vazmin tortamiz ekan, Alloh shariatini mahkam tutadigan qavmga aylanamiz ekan?! Shariatda esa, har narsa o'z nomi ila atab qo'yilgan: Yolgb'on - hech qachon rostning o'rnini bosmagan. Riyo bilan kishi ko'karmagan. Hamma narsa rostlik asosiga qurilgan va to'gb'brilik eng birinchi fazilat sanalgan kishilik jamiyatida yolgb'onning bog'bi hech qachon ko'karmagan! Uning mevasi hamisha mag'blubiyat bo'lgan, zahar-zaqqum bo'lgan. Bu mana shu dunyodagisi. Oxiratdagisini-ku qo'yaver.

Ana shunaqa, kishi shoshqaloq bo'lmasa, chin sarkarda qolib, soyasiga ergashadimi?! Biz ham To'ram qolib, u kishining soyai chehradoshlariga ergashib, dorilomon bir diyor qurmoqchi bo'libmiz. Yog'biylarimizni surib tashlab, yetim qolgan saltanatni tiklamoqchi bo'libmiz.

Niyat ulugʻ bo'lsa-da, bunday soxtakorlik ketidan nusrat kelmasligini anglab yetmabmiz. Urush hiyladir, degan gaplarga uchibmiz-u, yogʻibiy qolib, o'zimizni aldab qo'yibmiz! Balki To'ram rozi bo'lmasalar, bizning qaerimiz kam u kishidan, deb o'ylagandirmiz? O'zimizga bino qo'yib yuborgandirmiz?..

Allohgʻa suyangulik iymonimiz qanday - o'ylab ko'rmabmiz ham, Chaman. Ana endi magʻblubiyat alamini totib, mushkul bir ahvolda jang maydonidan to'zib-chekinib, qo'l yetmas togʻblarga bosh olib ketarkanmiz, yonimizda sen kamlik qilib turibsan, Chaman. Sening yo'qliging - xabar berib ham chaqirtirib ololmasligimiz - shunday bilinyaptiki...

Uzr, oshna, sendan bemaslahat shunday ishlar bo'lib ketdi. Bu ishni sendan sir tutishni maslahat berganlar endi betimga qaray olmayotirlar. Men ularni ham ayblay olmayman. Bu balki taqdir yozugʻbi - peshonamizda boridirki, magʻblubiyat alamini totib, boshni asramoq uchun ham bu dovon yo'lga tushgandirmiz. Qiyomatli oshnam, sendan gina yo'q. Jindek xabar topsang, yolini kuydirsang dunyoning narigi chekkasidan yetib kelguvchi Asror devdek, yetib kelarding-a, o'sha xabarsiz qolgansan. Xabar bermagan - biz o'zimiz aybdor. Bir xato - shunchalar qimmatga tushdi. Lashkar to'zigandan to'zib, kim yitdi, kim qoldi - bilmasmiz. Omon qolganlar bir-birimizni qora tortib, yolgbizoyoq so'qmoqlardan Muztoqqa panoh tortib bormoqdamiz. Taqdirning hazilimi, nima bu, bir vaqt omon qolganlarga nazar solsak, hov o'sha sarhad oshgan sakkiz birodar - kim sogʻb, kim - bir-birini ortmoqlab, janggohdan tirik chiqibmiz. Oh, Chaman, bundan - bu qaro ko'rgilikdan, jang maydonida so'nggi qatra qonimiz qolguncha savashib, loshimiz o'sha harb maydonida qolgani avlo edi! Jilla qursa, shahidlar qatorida ketardik! Endi-chi, kimmiz?

Toza niyatlarni boy bergan, lashkarni halokatga yetaklagan kaltabinlar biz emasmi?

Uzr, qo'lim muz qotib, xatlarim xunuk, so'zlarim qovushimsiz chiqayotgan bo'lsa. Orqadagilarning yetib olishlarini kuta turib, tizzamda bitayotirman uni. Bu yer shunchalar sovuq, izgbirinki, qogʻboz namlab, uni yozib ulgirish mahol. Siyohqalam yetguncha qogʻboz yuzidagi nam yaxlab ulguryapti, yuqorida nima qilarkanmiz bu sovuqda? Xudo to'zim bersin ishqilib... Men haligacha bir narsaga tushuna olmayotirman: felimizga qarab nusrat yuz o'g'irsa-o'g'irgandir, Chaman. Ammo Tangri nimamizga bizga shafqat-marhamat qildi, janggohdan bundayin tirik chiqardi? Zimmamizga yana qandayin yumush-imtihonlarini yuklaganki, bir-birimizni ortmoqlagan holda ko'rib turibmiz o'zimizni? Qaysi amalmiz evaziga yogʻbiy o'qidan panoh berdi? Balki bu bizga atalmish jazodir? Yoxud gunohimizni yuvmoqqa bir imkon - bir muhlamiki, bundan o'sha maydonda qolganimiz yaxshiroq edi. Nega kelib-kelib biz - o'sha To'ramni qaytarib olib kelmoqqa o'tlanib, sarhad oshgan sakkiz birodar bu qirgbinbarotdan omon chiqib turibmiz? Buning sir-asrori nimada? Alloh biz qusurli bandalariga qusrimizning kasrini bildirib qo'ymoq uchungina shunday qildimi, tirik qoldirdimi? To'gʻbri, kim yarador, kim qanchalar holdan toygan, dunyo ko'ziga qorongʻbi bir tarzda to'planib turibmiz. Kalta o'ylagan bir ishimizning achchiq mevasini tatib turibmiz. Lekin baribir omon qolganimiz gbhalati - u yo bir mo'jiza, yo Allohning karami. Balki Alloh ibrat uchun bizni diydor ko'rsatib qo'ygandir? Rostdan ham bir-birimizning yuzlarimizga qaray olmasdik. Go'yo mana, yolgbonning umri qaergacha yetdi, demoqchi bo'lardigu, aytolmasdik.

Bu dunyoda kimdan nimani sir tutmoqni ham bilmoq kerak ekan, Chaman. Azmu qarorimizni hammadan sir tutsak ham... sendan yashirmasligimiz kerak edi. Sen mening bu dunyoda eng ishonimli do'stim eding, orqadoshim eding. Senga bir uchini chiqarganimda ham... qaytargan bo'larding bu falokatdan. Soya - soya-da: bo'y-bast, yuz-chehra, ovoz o'xshagani bilan qalb-chi, shijoat, iymon-chi, degan bo'lar eding. Hamma To'ram bo'laveribdimi! Xaloyiqni oyoqqa turgʻbazib, yogʻbiyni yengaveribdimi?! Amallari Allohga xush kelaveribdimi, degan bo'lar eding. Sen haqsan. Qani edi hammamiz ham u kishidek Allohga tavakkul qila bilsak, Paygbambar yo'llarini ushlay bilsak.

Ushlay olmaymiz, ojizligimiz shunda. Sen bo'lsang, bizni bu soxta shijoatlardan qaytargan bo'larding. Yokim dovqur deb atalishga uchdikmi? Shunday nomlar ko'zimizni ko'r, qulogʻbimizni kar qilib qo'yanmidi yo? Shularni o'yilasam, yuragim orqaga tortib-tortib ketadi, simillablar ketadi, Chaman. Axir tong-la Mahsharda Allohning huzuriga qay yuz bilan borardik unda? Tagʻbinam Alloh oxirat sharmisorligidan asrabdi, Chaman. Niyatga qarabdi. Niyat esa, dorilomon bir diyor qurmoq edi...

Ilk qo'nalgbadayoq (qo'nalgbaki, ulkan qoya tagidagi supradek supachada - xatni ham shu yerda davom ettiryapman!) nafas rostlar ekanmiz, Elchin boturning ustozlari Qori akaning nasihatlari boshqalarga bilmadim-u, menga qanday yoqib tushganini bir eshitsang edi.

- Tagʻbinam Allohning karami keng. Qaysi bir amallarimizga u bizni qon va otash daryosidan omon chiqaribdi. Bu yogʻbiga sinovi oson kechmas. Endi mahkam bo'linglar, o'ziga tavakkul qilinglar, - dedilar u kishi.

Qori aka bizni xushyor bo'lishga chaqiryaptilar desam, orqasidan so'rab qoldilar:

- Bilasizmi, qiyomat kuni birinchi bo'lib, Allohning huzuriga kimlar chaqirilgay?

- Savol-javobgami? - dedik hayratga tushib.

- Shunday, hammaning Alloh huzuriga borishi bor. Lekin birinchi chaqirilib, birinchi so'raladiganlar...

- Bilmasak...

- Birinchi bo'lib shahid chaqiriladi ekan. U olib kelinib, Alloh bergan nematlar tanitilgach: "Bular ila nima qilding? deb so'raladi, ekan..."

- Yo'gʻb-e, deb yuboribman men..

- Ha, ha, "Sening yo'lingda jang qildim va shahid bo'ldim, - deydi ekan u.

- "Yolgbon aytding, sen shijoatli deb atalish uchun jang qilding. Shundoq deyildi ham, - deydi ekan ul Zot. So'ng farishtalarga amr etilib, u yuztuban sudratilgan cha jahannamga itqitilar ekan..."

Yurak orqaga tortib, "voh deb yuboribmiz. Axir biz ham shu holga tushuvimizga bir bahya qolgan ekan-ku, Chaman!

Xudo ko'rsatmasin, agar shu jangda shahid ketganimizda nima bo'lar ekan?! Alloh O'zi asrabdi!

- Ana, nimaga uchib, nimaga duchor bo'lay degan ekanmiz?!

Dumini gajak qilib olgan cha yugurgilab borayotgan chayonni ko'rganda kishi qay ahvolga tushadi?! Hozir etlarim orasiga ana o'shandek bir jimirlov yugurgan edi, Chaman. O'zim esa, yaxshiyam yogʻbiy o'qiga uchib-netmabmiz, der edim, Allohga shukrlar aytardim. Bu yogʻbi jon foydaga qolgan, endiyam oxiratni o'ylamaslik mumkin emasdi.

Chaman, birodarim, Alloh menga ikkita do'st ato etgan bo'lsa, o'shaning bittasi sensan. U agar bitta bo'lsa, o'sha ham o'zingsan!

Bu diyorlarda men bir rivoyat eshitdim: Alloh qiyomat kuni odam bolasidan mehrni ko'tarib, o'ziga qaytarib olib qo'yadi ekan.

Ana o'sha qiyomatda har kim o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi ekan. Ota bolaga, bola otaga qaramas, qiz onani, ona qizini "tanimas ekan. Shafqat yo'qoladi ekan. Rahm-marhamat degan narsalar o'rtadan ko'tariladi ekan. Ana shu damda bir qorindan talashib tushgan Hasan-Husanlar, Fotima-Zuhralar bir-birlaridan qochadilar ekan, savobimdan so'rab qolmasin deb. Bir paysa

savob anqoning urugʻiga aylanib, uni tilanib yurib ham topib bo'lmay qoladi ekan.

Ana shunday kunda bir paysagina savobi yetmay qolgan bir banda zir yugurib heshu aqrabolarini izlab yursa, hech kim qayrilib qaramasmish. Jigariga borsa, jigari yuz burib ketarmish. Bir umrli yor-birodarlariga borsa, ular o'zlari kimdan so'rashlarini bilmay turadilar ekan. Nihoyati bir paysa savob topilmasa-ya! Jannatdan qanday umid uzsini? U yana tanish izlab yugurgilab ketibdi.

Axiyri xomushdan-xomush turib qolgan bir birodarini uchratibdi.

- Ey aziz birodar, u dunyodagi yaqinligimiz haqqi, yordam qil. Bir paysagina savob yetmay do'zaxga tushadigan bo'lib turibman.

Hech kim rahm qilmayotir,- deya o'tina ketibdi.

Shunda haligi tanishi kutilmaganda:

- Sen bir paysani topolmayotgan bo'lsang, o'-ho', menga yo'l bo'lsin ekan, - debdi vallomatligi tutib: - Meni bor-yo'gʻib bir paysagina savobim bor ekan, ol, shu bilan ishing bitsa, - deb yuboribdi...

Ana shu tob buni ko'rib turgan Alloh subhanahu va taolo:

- Ey yolgbiz bir paysa savobini birodariga ilingan bandam, qayt, - deb chaqiradi ekan va: - birodaring qo'lidan tut-da, ikkingiz jannatga kiringiz, - deb marhamat qiladi ekan...

Sen mening ana shunday birodarimsan, Chaman. Orqadoshimsan. Hech kimda rahm-shafqat qolmagan kezda ham senga ishonmoq mumkin! Men qachonlardir qilgan bir yaxshiligim evaziga - xo'v o'sha Zokir-govni chiroqpoya qilib ketganimizda o'tqazib qo'yishgani, pochcha qutqarib olgani borganlarida aytgan so'zim, sensiz chiqmaganim uchun - shuncha yaxshiliklar qilding. Allaqachon qamalib ketadigan mendek odamni qay diyorlarga chiqarib-qutqarib yuribsan. Kafil turmagil - kafansiz ketasan, desalar-da, o'z bilganingdan qolmay kelasan. Jahon vallomatlari do'stga sadoqatni sendan o'rgansinlar.

Agar sen bo'lmasang, kafil turmasang, qadamim bu diyorlarga tegishi, bu jihodlarda yurishim dargumon edi. Yurgizib qo'yishmasdi: allaqachon quyosh betini ko'rmaydigan joylarga tiqib tashlashar edi, vallohi alam. Sen bo'lmasang bizni bu haloskorlar safiga qo'shib qo'yarmidilar! Tangritogʻiga yo'latarmi edilar! Niyatimizni bilishsayoq, peshonamizdan otardilar.

Sen chindan qiyomatli do'stsanki, bu yoqda bizni asrading, u yoqda ahli ayolimni qanoting ostiga olib o'tiribsan. Bu yaxshiliklaringni qiyomatga dovur qaytara olamanmi ekan? Qaytara olmasan rozi bo'lib qo'lasan, oshna. Yolgbiz Allohdan o'tinchim shuki, bu silai rahmlaring ajrini O'zi ming barobar qilib qaytarsin. Bu dunyoda yuz ko'rishirmasa... yo'q-yo'q, farishtalar omin demay turib, Allohdan bir o'tinchim bor: u bizni jilla qursa, bir bor ko'rishirsin, diydoringni shunchalar sogʻingman!

Qolaversa, dunyo kezib sendayin bir sadoqatli do'st topmadim...

Chaman, taqdir yozugʻida nimalar bor, bilmasmiz. Agar qayta ko'risholmasak deb ushbu maktublarni senga atab qo'noq bo'lgan manzillarimizda qoldirishni niyat qildim. Do'stim, uni o'zing bilgan uslub- da - hov o'sha ulugʻbiz jihodchi Zakiy Validiyning tan soqchisi Xoris rahmatli o'ylab topganidek qilib, shishaga solib, qo'noq bo'lgan joylarimizning qibla tarafiga ko'mish va xaritaga tushirish niyatidaman. Ularni biz namoz o'qigan joylarning mehrobi chetidan topgaysan. Xaritani senga yetkazgaylar.

Duolarida eslaguvchilarimizni Alloh O'z hifzu himoyasida asrasin. Yaratganning O'zi dastimizni uzun, niyatlarimizni pok qilsin.

Birodaring Sultonmurod.

Ulkan qoya tagidagi

ilk qo'nalgbiz.

O'sha shisha topildiqdan chiqqan boshqa naycha-xatchada shunday bitiklar bor edi: (Uni ham o'z holicha yuqoridagi xatga ilova qilamiz).

"...Subhanallohi! Ne kunlarga qola boshladik? Oldinda yana ne ko'rgiliklar bor ekan?"

Tik oyoqda tura oladiganlar Qori akaga iqtido qilib, shomning farzini o'qib olgunimizcha shunday voqea sodir bo'lsa-ya!..

O'sha marshal To'ramning soyai chehradoshlari (ha-ha, o'sha xos tabiblari), bo'y-bast, suvrat, shakl-shamoyilda bir tuki kam bo'lmagan, vaz aytganda u kishidek ilhomlanib-jo'shib ketguvchi va o'zini to'ram deb ko'rsata bilguvchi kishi - Qo'shshoq to'ram birpasda aynib qolsa-ya. U yotgan yerida har bittamizning otimizni atab chaqirar, boshlarini to'lgʻib alahlar edi.

- Botur, To'ramning roziliklarini olmabmi edik? U kishi nega indamaydilar?.. Nega jimdan-jim turibdilar? Qaytingiz huzurlariga. Rozi-rizolik tilangiz. Bizdan rozi bo'lsunlar, - deb to'lgʻib onadi. Peshonasini marjon-marjon ter qoplagan, o'zi har birimizga bir ilinj-la termuladi. Ammo biz qani turolsak, namozni buzolmaymiz, unga ham yordam berolmaymiz.

Alahlayapti desam, jon xalpida vasiyat qilayotgan ekan.

- Alloh o'zi kechirsin, - derdi Qo'shshoq to'ram yutaqa-yutaqa, - men sizlarni qay yo'lga boshlab qo'ydim? Nega birovning o'rniga o'tdim? Ayting, Qori aka, mening holim... tongla Mahsharda ne kechgay?

Qori aka ikki yonga salom bera, uning yoniga oshiqqan edilar. Qo'shshoq to'ramning boshlarini tizzalariga olib, yuzlarini silab, peshonalaridan o'pdilar:

- Nega kechirmasin, Qo'shshoq to'ram. Axir niyat qanday edi! Alloh rizoligini istab o'rta qo'ndi chiqqan edingiz-ku. Niyat - jihod edimi, axir?

- Darvoqe, niyat shu edi, pok edi-ku... O'zingga shukr, laa ilaha illallohu...

Uning mijjlaridan ikki tomchi yosh yumalab borib, Qori akaning to'ni barigami, qaerga singib yo'qoldi ham, u engah tashlab, boshi bir yonga burildi-qoldi ham. Qo'shshoq to'ram jon taslim qila olmay turgan ekan, ko'z o'ngimizda shom asnosida uzuldi-qo'ydi.

Ko'p qon yo'qotgan edi, boyaqish, u yogʻiga torta olmadi. Alloh rahmatiga olgan bo'lsin, u kishi Hoziq To'ramning soyai chehradoshlari bo'libgina qolmay, xos tabiblari ham edi, mayyitni mashala yorugʻida shahid qavmida engil-boshi ila tuproqqa berdik. Ro'zi Mahsharda shu qoni ila Alloh huzuriga tirilib borsin, ilohim.

Birodarlar, Muztoqqa ko'tarilaverishda uchraguvchi birinchi qoya tagidagi qabrni - mujohid qabri deb bilgaysizlar. Alloh qabrdagi savol-javoblarini oson qilgan bo'lsin, ilohim. Ertaga navbat kimniki, hech kim bilmas. Qay birimiz ko'kka dahanini tirab turgan u dovonga yeta olamiz, qay birimiz yeta olmasamiz - yolgbiz Alloh bilgay.

Dovon osholsak - gʻolib deb, osholmasak - shahid deb bilgaysizlar.

- Umid doram, deng. Shoyad Tangrim baroyad yo rab desa, - dedilar Qori aka.

U kishi endi bizning yo'l boshchi-imomimiz bo'lib qolgan edilar.

Xatning so'nggida: "Shunaqa gaplar, Chaman. Oyo'tra onamizga salom ayt. Duolarida eslaguvchilarimga ham duoi salomlarimni yetkaz. Xayrli kech degan jumlar bor edi.

Umidim navdasi, jon ukam, pakana pari

"Bugun so'nggi diyordoshim, o'zimizning o'sha Qangʻʻidan birga chiqib, shu kunga qadar yonimdan jilmagan qurdoshimdan judo bo'lib turibman, Maqsud. Toyir akangdan ayrilib qoldik. Navbat uniki ekan. Alloh uni-da huzuriga chorlab oldi!

Men unga bergan vadalarimning o'ndan birini ham ado etolmay qoldim, Maqsud!

U bu dunyodan manguga ketayotib (qara-ya, bir jarohat togʻʻdek yigitni qulatsa-ya!), men bilan rozi-rizolik tilashar ekan, Alloh o'zi kechirsin, bu osmon, bu togʻʻlar ustimga qo'shilishib qulasalar rozi edim. Dunyo ko'zimga tordan-tor, hunukdan-hunuk, olchiqdan-olchoq ko'rinish ketmoqda edi.

- Barzanimni bir ko'rsam edi, xuttalon otiga bir bor minsam edi, - deya o'tinar ekan, jon qushim bo'gʻʻzimga kelgan edi, Maqsud. Sengina bilasan, u ot jinnisi edi. Barzanga ishq tushib, ne ko'chalarga kirmab edi. Men senga bundan yuz karra zo'r otlar topib bergayman. Biz uchar otlar diyoriga ketyapmiz. Xohlasang, toshloqda ohudan ham o'zadigan, charchoq nimaligini bilmaydigan, boshqa otlar qirq chaqirim yo'l bosganda, yuz chaqirimni ko'rdim demaydigan xuttal otlaridan olib beraman, deb bu diyorga boshlagan edim. To'ylaringda o'zim kuyov-navkaring bo'lay, deb vadalar qilgandim. Hech biriga ulgurmadim. U esa, rozi-rizolik tilardi, Maqsud. Endi men bu jahonga qanday sigʻʻay, Maqsud?!

Ilgari beklar bunaqa kezda: "tik turib erdimʻʻ" qaddim bukildi! O'ltirib erdim - boshim xam bo'ldi. Yerga uzala tushib erdim - bo'vurim ezildi! Allohim, O'zing sabr ber - chiroyli sabr ber, deb bo'zlar ekanlar. Men nima ham deya olardim?!

Men uni ot bahonasida Alloh rozi bo'ladigan yo'llarga boshlab edim-ku. O'n gulidan bir guli ochilmay, go'shangalarga kuyov bo'lmay turib, qayga chaqirib olmoqda Allohim uni?! Birodarim Toyir akang uchqur otlarga ishq tushgan bir bo'zbola edi, ammo suyansa suyangulik chin birodar edi. Bundaylar bilan togʻʻʻni urib, talqon etmoq mumkin edi. Ular bilan dorilomon bir diyor qurmoq mumkin edi, Maqsud. Menga muhabbati, men ishongan narsalarga etiqodi bo'lakcha edi! Men uchun desa, o'tga kirardi, tegirmonga tushib-da butun chiqardi, Maqsud! Top-chi, endi bundayin birodarni! Rahmatlini eslasam, Qori aka aytgan bir rivoyat yodimga tushib ketaveradi.

Paygʻʻʻambarimiz sollallohu alayhi vasallam zamonlarida Bani Hanifa qabilasidan Musaylama otligʻʻʻ bir kishi chiqib, paygʻʻʻambarlik davosini qila boshlaganida U zot uni zalolatdan qaytarish uchun maktub bilan chopar jo'natibdilar ekan. Chopar Toyir akangga o'xshab, ishonimli yigitlardan ekan. Bolaligidayoq U zotga bayat berib bogʻʻʻlanganicha ajralmay keladi ekan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uchun desa jonini nisor qilib yuboradigan sahobalar xilidan ekan o'zi ham. Habib ibn Zayd degan o'sha yigit qir, adir oshib, Najd tepaliklariga yetib boribdi-da, Rasuli Akramning maktublarini Musaylamaga topshiribdi.

Paygʻʻʻambarlik davosi bilan chiqqan kimsa xatni o'qib, sap-sariq yuzlari zahil tortib, gezarib ketibdi. Alamdan o'zini qaerga qo'yarini bilmay, zaharini odamlariga sochib:

- Bu tirranchani kishanlab tashlang! - deb buyurib, o'zi ko'shkiga kirib ketibdi.

Ertasiga jamoatini jam qilib, choparni chorlabdi.

- Xo'sh, - debdi so'roqni boshlab, - Muhammad Allohning elchisi ekaniga guvohlik bera olasanmi?

- Albatta, - deb biyron javob qilibdi chopar,- Ashhadu alla ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va Rosuluhu, - deb shahodat keltiribdi u.

- Men Allohning elchisi ekanimga-chi? - debdi Musaylama.

- Kim? - debdi chopar kutilmaganda kaftini qulogʻʻʻiga tutib, - Bilasanmi, mening qulogʻʻʻim sal ogʻʻʻʻirroq. Nima deganingni... Masxaraomuz bu gapdan Musaylamaning tepa sochi tikka bo'lib:

- Jallod, kes! - deya uning badanidan bir bo'lak kesib olishga amr etibdi.

Jallod shay ekan, choparning o'ng etidan qilich ila bir bo'lak kesib olib, yerga otibdi.

Musaylama savolini takrorlabdi:

- Muhammad Allohning elchisi ekaniga guvohlik berasan, shundaymi?

- Albatta, u kishi Rasulullohdirlar, - debdi chopar.

- Men-chi, men kimman - Allohning elchisi bo'lmay? - debdi u yana.

- Aytдим-ku, - debdi chopar qulogʻʻʻiga ishora etib, - nima deganingni tushunib bo'lmayapti.

Musaylama battar jazavaga tushib, qichqiribdi:

- Jallod, chop!

Qilichi keskir jallod choparning yana bir parcha etini uzib olib, yerga itqitibdi. Qon sharillab oqa boshlabdi. Lekin elchi hamon qilt etmay turadi ekan. Odamlar uning sabotidan dahshatga tushibdilar.

Musaylama savolini takrorlashni qo'ymas, chopar o'z so'zidan qaytmas, jallod esa, har gal uni qilich ila qiymalar ekan, chopar:

- Ashhadu anna Muhammadan abduhu va Rosuluhu! - deb iymon keltiradi ekan.

Hech qancha o'tmay chopar ikkiga bo'linib qolibdi. Uning yarmi bo'laklarga bo'linib yerda yotar, yarmi esa qip-qizil qoniga belanib bo'lsa-da, tik turar, o'zi o'sha so'zini - yolgʻʻʻʻiz Rasulullohga (U zotga Allohning salomi bo'lsin!) sodiqligini takrorlar ekan.

Kichkina bolaligida Rasulullohga (U zotga Allohdan salovat va salomlar bo'lsin) bayat bergan o'sha sahoba - yigit yoshida shunday etiqod ko'rsatib, vafo namunasini namoyon qilgan ekan, Maqsud. Ana senga mo'minlik! Toyir akang ham shular toifasidan edi, Maqsud. Uning boshiga ham o'sha ish tushsa, bu ham o'z so'zidan qaytmas edi! Allohim uni jannatda Buroq otlari bilan siylab, O'zi xursand etsin, ilohim. Yetmadi Toyir u dorilomon kunlarga. Yetgaymikanmiz biz? Bizdan chiqmadi haloskor. Qachon chin haloskorini yuborgay ekan, Allohim. To'ramdek bo'la bilmadik biz!

Toyir yosh ketdi, ammo bu dunyodan oxiratini topib ketdi! Unikidagilarga bu xabarni yetkazib qo'y, Maqsud. Shu yumush ham sening zimmangda qoldi, ukaginam. Bo'zlashmasin, Toyir akang shahid qavmida to'gʻʻʻʻri jannatga ketdi.

"Inna lillahi va inna ilayhi rojiun - hammamiz Unikimiz va Unga qaytguvchimiz. O'zi yorlaqasin.

Qachon va qanday qaytarini bilmagan akang

Sultonmuroddan deb bilgaysan.

Aziz xolalarimu togʻʻʻʻʻalarimga, kennoying va hamma bizni taniganlarga duo degaysan. Meni yoddan chiqarmaydiganlarni Alloh o'zi panohida asrasin. Va salomun allal mursalin, valhamdulillahi robbil alamiyn.

Ikkinchi manzildagi muz qabr boshi.

Biz kimmiz, Chaman, na shahid o'lmagan, na g'boziy bo'lmagan? (Yoxud qo'tos suyaklari qolgan joyning qibla tarafidan topilgan xat)

"Havo aynib, qor aralash yomg'ir shivalashga, yuqoridan muz nafasi ura boshlashga tushgan bir pallada... qaraki, Alloh bizni yorlaqadi. Yeguliklar tugab, silla quriy boshlagan kezda Xudo tog' b'dek rizq yetkazdi. To'pidan ajragan bir oqsoq qo'tos uchradi, "hay-haylashib quvib-chalg'itib, oyoqlarini arqonga matab, yiqitib oldik. Keyin terisini shilib, bir olam go'sht g'hamlabmiz. Hayhotdek suyaklarigina qoldi yirtqichlarga rizq bo'lib...

Shunisiga ham shukur, Alloh hadeb olavermaydi ekan, beradi ham ekan! Oldinda osmon ila bo'yashgan muzli tog' b'lar, qorli dovon turar edi, holimizni ko'rib, o'zi marhamat etdi. Ko'rgan sari, qaragan sari et junjikib, vahm bosadi: qanday oshib o'tgaymiz ekan deb bu muz tog' b'dan? Yutaman derdi bu muz, sovuq...

Mador bo'lsin deb o'tda jindek go'sht qovurishyapti. Hididan bosh aylanib, ichaklar achishyapti, shunday ochqabmiz ekan! Men esa, shu holimga senga yo'lakay xat bityapman, Chaman. Ayt, endi biz kimmiz? Na shahid ketdik, na g'boziy bo'ldik? Endi qay diyorga ham bosh olib borgaymiz?! Nusrat nega bizdan yuz o'giryapti? Necha yuz yillarki, mo'minlarning ishi shunday orqaga ketib, qo'li past tushib bormoqda? Hikmati nima - hech o'ylab ko'rganmisan, Chaman? Nimani unutganmiz? Hatto To'ramdek zot ham chin nusratni qo'lda tutib qola olmadilar? Nega? Xatolik qaerda?.. Amalimizdami, niyatimizdami? Yo'ymonimiz sustmi, nimada? Nega zabunmiz, mazlummiz, ishi orqaga ketgan millatlardan bo'lib qolmoqdamiz? Bu qoloqlik nimadan, mutaassibligimizdanmi va yo' boshqa sababdan? Har narsaga aqling yetguch, ammo ichingga yutib, chivinga ham sir oldirmovchi sen bilmasang, kim bilgay? Sulaymon qori akadan so'raganimcha yo'q, mavridi ham kelmadi. Ammo dardi-dunyomni zimiston etib yotgan bu savollardan qani forig' b' bo'lolsam?! Qani bir dardkash topolsam!..

Hatto Zakiy Validiydek bir zot, Anvar poshoyu Madaminbeklar boshini qovushtirolmagan, nusrat yo'liga olib chiqa olmagan bu xalqni endi hech kim uyg' b'ota olmagaymi?

Taraqiyotdan ortda qoluvimizga... kemalar chiqib, dengiz yo'llari ochilib, musulmon olami katta karvon yo'llaridan chetda mung' b'ayib qolganigina sababmi? Taraqqiyotga ishtiyoq, ilmga tashnalik-chi, jurat-chi, bir din - bir millat tuyg' b'usi-chi, ittifoqlik-chi? Alloh buyurganidek, jilla qursa, rozi bo'ladiganidek darajadami?

Chaman, o'zing ayt. Xato, kemtiklik qaerda? Nega sidq ila qilgan niyatu jihodlarimiz ham kutilgan mevani bermayapti? Nusratga yetisholmayapmiz? Sen boshqirdlar elida tuzilgan "Jonnisorlar tarixiyu taqdirini yaxshi bilasan. Sharqiy Turkistonda zafar ustiga zafar quchib yurib, axiyri tanazzulga yuz tutib, boshi berk ko'chaga kirib qolgan "Fiyabilillohchilar haqida eshitgansan. Hatto imom Shomildek zotlar yolg' b'izlanib qolganini ham yaxshi bilasan. Bu mag' b'lubiyatlarning hikmati nimada? Bu jihod, jonnisorliklar dilimizning tub-tubidan emasligidan emasmi? Biz har yerda, har narsada Alloh roziligini istovchilar, izlovchilar emas, dovqur, botur deb atalish uchun o'zimizni o'tga-cho'qqa uruvchilarga aylanib qolmaganimizmi? Axir jihod "fiyabililloh yozuvli alohida kurash kiyimlari kiyishdami, o'zimizni ko'z-ko'z qilish, mutaassiblaracha o'zni o'limga otishdami? Bilmadim, Chaman, balki men yanglishayotgandirman, voqealarning hikmatiga yetolmayotgandirman. Balki Alloh bu millat qayg' b'usini yelkasiga dast oladigan bir zotni hali yubormagandir. Ungacha o'zimizni o'nglashimiz kerakdir. O'shanda nusrat kelib, natija yuz ko'rsatari balki. Hozir-chi, qani o'sha natija, dorilomon bir hayot? Mag' b'lubiyatlar alami yurak-bag' b'rimizni o'rtab, adoy-tamom etdi-ku. Bu holatdan, bu mag' b'lubiyatlardan qachon xulosa chiqaramiz ekan?! Sendan boshqa kimdan ham so'ray bu dardlarimni? Yo' qodir Alloh, o'zing to'zim ber bu dovonlardan oshib o'tmog' b'imizda.

Sultonmuroddan deb bilgaysan.

Mahfuzamga, biznikilarga duoi salomlarimni yetkazgaysan. Qiyomatli birodaring.

Uchinchi manzilgoh.

Sayrab uchgan Ularqush qay balolardan xabar berar, Chaman?

"Chaman do'stim. Bizga Allohdan madad tila. Sabr-bardosh tila. Qay bir tilsimli diyorga, muzlar o'lkasiga kirib qolgan ekanmizki, bu diyorning nimasiga beruxsat teginib qo'ygan ekanmizki, bizni bu balo tutdi, Chaman?!

Holimizga yig' b'laguvchi qani, bo'zlaguvchi qani? 1

Tik turib edim, oyoqlarimdan mador ketib, o'ttirib qoldim! Sapchib tushgan otim zorli kishnab, qay bir yerga dovur surib-surgab ketdi! Jilovi qo'limda ekan, ajrab ketolmadi. Ketolmadiyu to'xtagan yerida kamiga oyoqlarini kerib, shov-shov bo'shanib yubordi, jonivor...

Sheriklarim ham shu ahvolda edilar. Qori aka zo'r berib kalima keltirar edilar, qo'llari ot sag' b'risidan tushmas edi. Elchin qani, qaerda qoldi desam, mosovsirab, turgan yerida serrayib qopti? Orqadagilardan ko'z uzmaydi. Subhanalloh! Ko'z o'ngimda Boturning sochi oppoq oqarib tushdi! Qasira-qusir ila qaldirib tepadan o'pirilib tushayotgan oq balo esa, to'g' b'ri sheriklarimizning ustiga tushib kelardi!

Chaman, bunday balo - ko'chkini senu biz - odam bolasi ko'rmaganmiz! Ko'z ochib-yumguncha fursat ichida orqada hech vaqo qolmagan edi, birodarlarimiz yo'q edilar... Bir yo'la uch kishi, uch mujohidni, ko'chki yutgan edi, e, voh!..

"Inna lillahi va inna ilayhi rojiun2.

Insonning kuni bitsa - shu ekan. Safarda, diyorida uzoqda, deb o'tirmaskan. Alloh ularni bu dunyo mashaqqatlaridan forig' b' etib, bir lahzadayoq dargohiga chorlab ola qolgan, ko'z yumib ochguncha fursat ichida orqamizda oq moztortepa paydo bo'la qo'ygan edi.

Sakkiz nafar edik, dovonning yarmiga yetmay besh birodarimizdan ajrab, yetim bo'tadek qolib o'tiribmiz...

Holimizga kim yig' b'laydiyu kim bo'zlaydi, Chaman?

Ertaga o'zimizning holimiz ne kechgay? Albatta, bilguvchi yolg' b'iz Alloh, ammo buni aytguvchi qaniyu, dalda berguvchi qani?!

Osmon boyagi-boyagidek, o'sha xatarqush uchib o'tgan vaqtdagidek musaffodan musaffo edi. Kun esa charaqlagandan charaqlar, atrofda muz ko'llaru, boshida tosh-tugun ko'targan muz qoyalaru, har ikki yondagi muz tog' b'largacha oftob nurida parpiragandan parpirar edilar. Muzlar erimasalar-da, jimgina "yonardilar...

Ammo qo'lim qalam ushlagga kela qolmaydi. Sovuq urgandek to'ng qotgan...

O'sha Ularqush muz qoziqdek osmon ustunlari - muz tog' b'lar yoqalab sayrab uchib o'tgan chog' b' da hech bir xatardan darak yo'q edi. Ko'kada bir tola ham bulut ko'rinmasdi, tavba. Ot tuyoqlarining tiyg' b'onib, taqalarining taraqlashi, o'zlarining pishqirab, seskanib bosh silkishlarini demasa, jimjitlikni buzguchi hech narsa yo'q edi. Hatto g' b'uvlagan shamol esib qo'ymasdi...

Oradan bir soatlar o'tib, orqa yonboshimizdagi baland tog' b'larining teppasida banogoh osmon qarsillab yorilgandek bir mudhish ovoz eshitildi... tog' b'lar parchalanib tushayotgandek bir qiyomat ko'pdi! Qarasam, cho'qqidan ko'chgan katta muz yo'lida

uchragan jami muz-toshlaru qorlarni surib, pastga tushib kelmoqda, vahimasi olamni buzgudek!.. Otlar jon halpida kishnab yuborgan, Qori aka kalima keltirar, Elchin boturning sochi bir daqiqada oqarib ketgan edi! Orqadagilar qochishga-da ulgurmay ko'chki tagida qolgan edilar, Chaman.

Holimiz shunchalik ekan-ku, dunyo nizomini tuzamiz deb yuribmiz, Chaman?! Bu dunyoda adolat topamiz, adolat o'rnatamiz, deb yuribmiz! O'zimizni kim sanab ketibmiz?! Undan ko'ra, bu ishlarimiz Allohga xush keladimi-yo'qmi, shuni o'ylasak-chi! Alloh yorlaqamasa, nihoyati xatkor bir banda ekanimizni o'ylasak-chi! Qori aka haqlar: Alloh roziligini istab qilinmagan har bitta ishning oxiri kesikdir, voydir! Niyatini o'nlab olmagan banda xatkoridir! Oxiratini o'ylamagan kishi bu dunyosini ham, u dunyosini ham boy bergan kimsadir! O'zni o'nglash eng katta jihoddir! Shu lahza, shu pallada men eng to'g'ri yo'lni ko'rib turgandekman, Chaman! Siroti mustaqim deganlari shu bo'lsa kerak.

Allohdan bizga madad tila, Chaman.

Qiyomatli oshnang Sultonmurod.

Ko'chki tepani ko'rganingda uning tagida manguga qolgan safdoshlarimiz haqqiga bir kalima Qur'on tilovat etib qo'ygaysan, oshna.

Nusrat so'rab duo et, Mahfuzam

"Mahfuzam, yolg'ibiz o'zing mening chin najot farishtamdiansan.

Bir bo'lsa, sening duoi iltijolaring Haqqa yetib, Uning rahmat-marhamati bilan bu dovonga yetib turibmiz; bir bo'lsa, taqdiri azalda Allohning Lav-hul Mahfuzga yozmishi shunday - boshqasi bekor.

Bulutlar bilan o'pishgan bu muz-dovonga yetmak, aytishga oson. Unga yo vafodor otning yoliga yopishibgina chiqib olmoq mumkin, yo muzlik pasaygan kezlari yetmoq mumkin. Ha, jonim, bu muz dovon o'sib-ulg'ibayib, erib-pasayib turadi. Shunda ham muz zinalardan ulovsiz chiqishga yo'l bo'lsin!

Dovonchining tosh uyiga yetib bir piyola qaynoq choy ichish har kimga ham nasib etsin-chi! Biz besh birodarimizni muz qabru ko'chkiga berib, chiqib keldik bu yerga, Mahfuzam. Endi o'shalar uchun ham yashashimiz kerak, o'shalar orzu qilgan, kurashgan dorilomon kunlar uchun bu foydaga qolgan jonni ayamasligimiz kerak. Alloh ham rozi bo'ladigan yo'l shu, rafiqam. Yana nimani marhamat qiladi, O'zi biladir.

Dunyoning bir uchidagi, qachondir Boburshoh safdoshlariyu Yoqubbek lashkarlarining oyog'ibiz yetgan bu joy - bu dovon shunaqa Xudo qarog'ibagan joy ekanmi, deb o'ylasak, g'halati xabarchilari bor go'sha ekan u, jamilam. Biz qoziqtog'iblardan qulagan ko'chkidan esxonamiz chiqib, tiyg'ibona-tiyg'ibona yo'lda davom etarkanmiz, dovondan yuk-ulovlari bilan atak-chechak tushib kelayotgan kichik bir karvonga uchrab edik. Bu diyorlarning daxlsiz tijoratchilari bo'lsalar kerak, omonlashib-xo'shlab o'tib ketib edilar. Besh soat o'tmay o'sha karvondagilar holdan toygan bir ahvolda qaytib kelib qoldilar.

Xudo ularni bir asrabdimish: Uforli soylikda qiyomat bir bo'ron turib, ko'z ochirmayotganmish.

Shunda biz tepamizdan sayrab o'tgan o'sha Ular-qushni esladik. Dovonchi aytdi. Bu qush xabarchi qush emish. Muztog'ibning buyuk qoziqtog'iblari ustida uyg'ibonayotgan xatar - bo'rondan xabar berib, sayrab, jar solib o'tadi ekan! Shundan uch-to'rt soat o'tib, Uforli soyda rosmana qorbo'ron avjga minar emish. Biz bu qush ne xatardan xabar berdi, ko'chkidanmi, deb o'ltiribmiz. Biz-ku oson qutulibmiz, Mahfuza. Alloh asrabdi. Lekin orqamizdan tushgan yog'ibini... ha, ha, Mahfuza, kechagina nusrat topgan yog'ibiy lashkari o'sha g'halabaga qoniqmay mo'minlarga dovonning bu yog'ibida ham qiyomat azobini tottirmoqchi bo'lib kelayotgan ekan, Allohning g'habazabiga uchrabdi-qo'yibdi.

Eshityapsanmi, Mahfuz, Alloh odil! U hamisha mazlumlar tarafida! Tojirlar o'z ko'zlari bilan ko'ribdilar: butun boshli lashkar jon olguchi sovg'ibu bo'ronga uchrab, qor ostida qolganmish. U yer-bu yerda otlarning boshi ko'rinadimish, ular ham muz qotgan. - Subhanalloh! Quvonishingni ham bilmaysan, achinishingni ham, - deb sapchib ketdi Elchin botur. (Ha, ha, o'sha ko'chki vaqtida bir damda sochi oppoq oqarib tushgan Elchin birodarimiz!) - Kecha nusrat berib, bugun g'habazabiga duchor etsa... hikmati ne buning, Qori aka? - derdi u.

Hammamizning ichimizda eng kamgap, eng xokisor (shu chivindek joni bilan bu kurash-so'qishlarda qanday yuribdi ekan?) shu odam bir og'ibiz so'z bilan uning hikmatini aytib qo'yaqoldilar:

- Hamma gap shundaki, chin nusrat oldinda. U mo'minlarga atalgandir. Qolgani sinov.

Eshityapsanmi, Mahfuz, ana, Allohning adolati qanday! Chin nusrat biz tarafda ekan, baribir. Qolgan barcha mashaqqatlar, mag'iblubiyatu yo'qotishlar sinab-toblantirish, iymonni charxlash, kishini o'zining suygan bandalari safiga qo'shish uchun ekan! Nega ham so'nikaylik endi?! Nega ham niyatlardan tonaylik, qaytaylik endi?! Nega ham endi har nafas, har qadamda Allohga topinmaylik, sig'ibinmaylik?! Qo'limizni baland etadigan ham, past etadigan ham O'zi ekan-ku!

Hali boyagina qay bir mamlakat, qay bir diyorga bosh olib ketdik, bu mag'iblub boshimiz qaerga ham sig'ibdi ekan, deb kelmoqda edik. Bu xabarni eshitib xam bo'lgan boshlarimiz tik bo'ldi! Bilaklarimiz oyoqlarimizga mador kirdi! Hammasidan dilimiz ravshan tortgan edi. Qaraki, Alloh biz bilan ekan!

Endi haligi hikmatni - nusrat alal-oqibat biz tarafda ekaniyu qolgan barchasi Allohning sinovi ekanini har bitta mo'min birodarimiz diliga jo qilmak bizdan lozim emasmi?! Ana shu Alloh bizdan rozi bo'ladigan ishdir, Mahfuzam. Hali shunday silai rahm jamiyatlarimizni tuzaylikki, har qanday mo'min - u xohi qora, xohi sariq, bizga suyana olsin, shu jamiyatimizdan himoya topa olsin. Adolat shundadir. Uning pok sabolari, hali qarab turasan, o'sha bizning ona diyorlarimizgacha yetib borgay, inshaalloh. Faqat saharlari duolaringda bizga nusrat tilasang, bas, jamilam. O'sha men borgandagi vadalarini unutmagaysan.

Sultonmuroding.

Dovonchining Yoqubbek davlatmand davridan qolgan "tosh qasrida hiyla turib, janub viloyatlarga tushmoq niyatidamiz. Duoda bo'l, toki Tangri taolo boyagi oliy ham pokiza niyatlarimizni o'zimizga yo'ldosh etsin. Omin.

Achchiq bir qamchi yoxud u qamchida ne hikmat ko'rmoqdasan, Chaman?

"Chaman, sening ham ko'zingga bu dunyo tordan- tor ko'rinib ketganmi hech? O'shanda nima qilgansan? Bilaman, sen ensangni qashlaganacha, sekin jilmaya boshlar eding. Buni ko'rib raqiblaring talvasaga tushib qolardilar. Kim - bu tarz muloyim tortib ketuvingdan, kim - mana hozir qoplondek tashlanib qoluvingdan hayqib, tisarilib ketardilar.

Men-chi, men qay alpozga tushardim, kuzatganmisan hech? O'zim eslab, eslay olmadim. (Balki alam achchig'ibiz qo'ymayotgandir).

O'sha Bo'zsuv bo'ylaridagi qarorgohimizga askar tashlab, o'rab olmoqchi bo'lganlarida ham, ona diyorimiz Kattabog'ibni tashlab chiqishga majbur bo'lgan chog'iblarimda ham dunyo ko'zlarimga bunchalar tor ko'rinmagan. Balki endi u diyorga

sigʻ bdirmasliklarini anglab yetganimgan shunday bo'lgandir. Balki u paytlar erta birisi kun qaytib borarimga ishonganimdan - jimgina chiqib ketgandirman.

Sakkiz botur - sakkiz dovqur sarhad oshib, ajdaho komiga kirib borib, To'ramni olib ketmoqqa ko'ndira olmagan kezimizda ham shunga yaqin bir holga tushib, vujudimni bir narsa otashdek o'rtab yondirgan edi. Lekin alami bu qadar o'tmagan edi, Chaman. To'ramning soyai chehradoshlari - soxta to'ram boshchiligida jangga kirib, yogʻ bdiydan zarba yeb, to'zigan chogʻ bimizda ham, hatto Muztoqqa o'rlab bora turib, orqadagi safdoshlarimizni ko'chki yutib ketib, muztogʻ blar aro uch kishi yolgb bizardan-yolgb Biz qolgan kezlarimizda ham dunyo bundan tor, bevafoadan bevafo ko'rinmagan edi, Chaman.

Chaman, odamga alam qilarkan. Sen bu dunyo hayotini go'zal qilaman deb, adolatli etaman deb, joningni Jabborga berganing sari u seni toptaydi, hali u, hali bu yoningdan achchiq qamchilarini yogʻ bdiradi, savalaydi. Nima bu? Dunyo shunday qurilgan ko'hna dormi yo? Na adolat bor, na odil qozi! Yo biz ketma-ket magʻ bhub bo'laverib, to'zigandan-to'zib, bu diyorlarga ham sigʻ ba olmayotganimizdanmi, yo musofirlik bizga pand berayotirmi? Unday desam, Qori akaning pandlari qayon ketdi? "Biz Allohga shukr aytib, bu diyorga jon fido etsak arziydi. Ansorlardek quchogʻ bini ochib, kutib olgan bunaqa qavm, bunaqa yurtni yana qaerdan ham topgaymiz?! U chindan ham Madinai soniydir, deb edilar u kishi. Biz dovon oshib yetib kelgan viloyat kishilari chindan shunday: bitta mayizni qirqqa bo'lishadigan, muhojir desa, jonini berib yuboradigan. Quda-qudagʻ b hayini ham shunchalik ezozlamas.

Lekin o'zing bilgan siyosat, o'sha siyosatning iskovichlari bu yerga ham yetib kelib, harom tumshuqlarini tiqmagan joy qolmabdi, Chaman. Chaquv, gb biybat urugʻ bini sepib, u ko'zingni bu ko'zingga yov etmagan kunlari qolmadi, Chaman. Shunday sharoitda qozi bo'lib o'rtaga tushib ko'r-chi, mazlumning tarafini olib ko'r-chi! Nusrat alal-oqibat biz tarafda ekanini kishilar ongi, qalbiga singdira ol-chi! Isbotlay ol-chi! Har bitta mo'min suyana oladigan, himoya topadigan silai rahm jamiyatingni tuzib ko'r-chi! Qalbingni to'r-to'rida asragan-ardoqlagan orzularing-ni amalga oshirib ko'r-chi, o'zingni qaerda ko'rar ekansan!

Ammo ular shohida yursalar biz bargida yurolmaymizmi deb togʻ blar oraligʻ bida bu viloyatda shu yerlik mard boturlar bilan muhojirlarning birodarlik jamiyatini tuzgan edik. Ular qo'lni qo'lga berib, qiyomatli do'st tutingan, qay birlarining boshiga mushkul tushsa, boshqalari yordamga kelishi haqida, lozim bo'lsa, jon fido etib, qutqaruvi to'gb bhisida qasamyod etgan edilar. Xuddi Paygb bambarimiz sollalohu alayhi vasallam davrlaridagidek bir birodarlik vujudga kelayotib edi. Bu ishlarning boshida Qori akam, Elchin botur - uchovimiz turib edik. Buni bir yilga dovur ham bilisholmay hukumat iskovichlari axiyri oramizga sotqin tiqishdi. Azolarimiz birin-sirin qamalib, rejalarimiz barbod bo'la boshladi. Sotqinni topmoq, qamalganlarni qutqarmoq lozim edi. Shoshilinch, ammo qaltis reja tuzib, zobitlaru turma nazoratchilari kiyimida markazdan kelgan tekshiruvchilar qiyofasida birodarlarimiz yotgan qamoqxonalarga kirib bordik va soxta buyruq qogʻ bhozlari bilan ish ko'ra ketdik. Sirimiz ochilib qolsa, yo qarshilik bo'lsa, o't ochib yorib chiqishga ham tayyor edik. Ammo dovqurni Alloh ham qo'llaydi ekan, Chaman, omadimiz chopib, o'nta birodarimizni shunaqqib qutqarib oldik.

Ammo bu yogʻ biga ham qadamimiz nazoratda - har ko'cha boshiyu etagiga iskovuchlar ekib tashlangan - "to'rt ko'zlab kuzatar edilar. Sotqinni esa, aniqlay olmayotgan edik. Shu tashvishlar ustiga, Chaman, men uchun kimligi o'zingga ayon, Mafhuzam bo'y yetmish xonadondan (ha, ha, o'sha ularning qishga meva saqlanadigan yerto'lalarida qirq kun jon saqlab, bilmam kimning baxtiga Xudo bir qaytib bergan qo'rgʻ bbonlaridan) hech kutmaganda odam kelib qoldi. Uni bir ko'rishdayoq tanidim, Chaman. U rahmatli qaynotamiz Mirzaxo'ja hojimning ko'p sadoqatli qarollari - eshik ogʻ bhasi Alimat qozoq edi. Qay pushtidadir qozoq urugʻ bblari bilan tutashib ketib, ikki gapining birida "hov-hovlab, "oy-boylab qoladigan bu kepchik yuzli odamni tanimaslik mumkin emas edi, Chaman. Sadoqatni qaraki, izlab-izlab, surishtira-surishtira topib kepti. Shu kelishida Muztogʻ bni ham oshib o'tibdi. Men bu dovondan qanday o'taman, deb qaytib ham ketmabdi.

- Qudayga shukr, o'zizni ko'rdim, Eshanayimning amanatlarini ala keldum, - deydi.

- Qanday omonat? Yoxud salommi? O'zlarining tan-jonlari sogʻ b-omonmi?

- Quday rahmatigʻ ba olgb ban bo'lsun. Bandaliqni baja etdilar-gb bo'y.

- Yo Alloh, u kishini hammi?.. "Inna lillahi va inna ilayhi rojiun, - deya oldim yuzimga fotiha tortib. Eshik ogʻ bhasi hayrat-la boqdi:

- Ne degʻ b haysiz, kuyav to'ram?

Men qaytardim:

- Biz hammamiz Allohnikimiz va Uning dargohiga qaytib borgaymiz. Xudo rahmat qilsin.

- Ha, ha, rahmat etsun. Ko'p marhamatli edular Eshanayum. Shu kishining vasiyatlarini ila kelibjaturman, bilsangʻ biz.

- Vasiyat? - deb yuboribman. Hoynahoy, kuyovimga yetkazsangiz, u qizim boyaqish Mahfuzamga yetkazadi, qora kiyib aza ochadi, bir kalima Quron tilovat qilsayam harna savob, deb o'ylaganmilar onaizor. Men shu xayolda edim, ammo...

- Amanat-gb bo'y... Aybgʻ ba buyurmagʻ b haysiz.

- Aybi nimasi, - deya oldim men. Eshik ogʻ bhasi esa qo'ynidan oq shoxi ro'molga o'ralgan bir narsani olib, kaftida tutib turar, men uni olarni ham, olmasimni ham bilmasdim. Olay desam, sarhad yo'li men uchun berk. Olmay desam, qaynonamning omonati, jondan aziz Mahfuzamga atalgan. Oldim. Shohi ro'mol ichida mayindan-mayin shildirashidan, siqimga sigʻ bhib-sigʻ bmasidan marvaridmi, nimadir edi.

- Achib ko'ring, kuyav to'ram, - dedi elchi, - qiyomatda bu qo'l, bu ko'zlar-da guvahliqqa o'tgb hay.

- Darvoqe, - deb ochdimu nimani ko'rdim, Chaman. Kaftimda har shodasi nozik-ado tilla iplarga taqilib, keyin barchasi qo'sh bogʻ bichga jamlangan oppoq marvarid turar edi. Men uni tilla ipiyu halqali tilla bogʻ bichlaridan, to'gb bhirogb bi, hilolmonand taqinchogʻ bidan tanib turar edim. Ular birinchi ko'rganimgadigidek yangi tuqqan qizgb bish oydek yarqirar edilar.

Eshonoyimiz nimadir bo'lib, unutilib qoldirilgan o'sha yodgor taqinchoqni jigarpolariga yetkazmoqni vasiyat etardilar.

Elchini bir kecha mehmon etib, sovgʻ ba-salomlar bilan jo'natdim-u, lekin o'zimga kelolmasdim. Bu nima, Allohning yana bir sinovimi yo diyorga yuz burmoq kerakmi - bila olmasdim. Unday desam, men u diyorga endi qanday sigʻ b hayman, vatanda bir bevatanga aylanmasmanmi, niyatlarim-chi, ne bo'lgʻ b hay - hech bir to'xtamga kelolmasdim.

Bu yoqda esa, jamiyat tashvishlariyu bizni deb qo'lga olinmish, turmalarga tiqilmish jonnisor oshnalarimizni qutqarmoq bilan bogʻ b hliq yumushlar yotar, buni desam, omonat, omonatni desam, ular qolib ketmoqda edilar.

Ana shunday ichga qil sigʻ b maydigan kunlarning birida Oqsu guzaridagi do'konimda qiblagga qarab, faromush o'ltirar edim. Nega faromush? Tilimda "Alhamdulillahillaziyu ko'z oldimda qarshimdagi soyluk emas, Bo'zsuv tepaliklari bir-biriga yastanib yotar edilar. Negadir o'sha qarorgohimizga lolaqiz-gb baldoqdek bo'lib, osmondan hov birdagidek yogʻ b hay yogʻ b hilib tushib kelar edi.

O'ngimmi, hovfim, deb tursam... yelkam aralash bo'ynimga ilondek yopishib, achchiq qamchi tushsa degin!.. O'girilib qararasam,

shahar qozisi! Ayonlari bilan qarshimda savlat to'kib turibdi. Hammalari otliq - ot ustida. Biz singari piyoda do'kondorlari xaridorlar esa, barchalari ikki bukilib tazimga egilishgancha qolishgan. Ko'zim qozining bilagidagi qamchiga tushib, felim aynib-aynib kela boshladi. Chaman, hech kimga aytmasam ham senga aytaman. Nega biz bunday millatimiz? Ustimizga to'n yopib, tagimizga ot bersalar, aynib qolamiz? O'z millatimizga past nazar bilan boqib, o'sha ot berganlar bilan ogb'iz-burun o'pishib ketamiz? Shu ham o'z millatdoshim, dindoshim, tepishib katta bo'lganim, bir imom ortida turib namoz o'qiydigan safdoshim demaymiz? Hamma bilan o'z tugb'ishganimizdek sogb'inishib ko'risholmaymiz? Bizga qanday dard tekkan, nuqs urganki, ichimiz kirlanib ketgan, Chaman? Qachon odam bo'lamiz biz ham? Qachon biriga tikon kirsam, boshqamizning ham jonimiz barobar achiydi? Mo'minlar bir-birlariga birodardirlar, degan gap qayda qoldi?! Yo saodat asri endi qaytmagaymi, unday zamon kelmagaymi?

Esiz, hatto biz ila birodar tutingan kishilar ham miq etolmasdilar. Evohki, oshna, biz pista po'choqdan kema yasamoqchi ekanmizmi?.. Men ana shunday o'ksik bir holatda edimmi, yo qamchi tushgan yerb'ib bo'ynim hali ham lovullab yonardimi, qoziga ters qaradim.

- Ha, botur yigit, Sizga alohida takalluf lozimmu?

Menga bu qochiriq qamchidan-da o'tib tushgan edi. Ustiga-ustak atrofda pichirlab shivirlashardi:

- Egil-egil. Bukilib-da tazim et, qutulgaysan.

Ammo men to'nimni teskari kiyib ulgurgan edim, Chaman. O'zing bilasan, endi meni epaqaga solib bo'lmasdi. Ters o'girildim:

- Ajab?! Tazimni so'rab oladurlarmi bu diyorlarda?

- O'ho, o'ziga yetguncha-ku bu?! - dedi qozi atrofidagilarga manoli boqib. Ko'rib turibman, ayonlari imosiga shaylar. Ko'z uchirsayu oyogb'himni yerga tekkizmay olib ketsalar. Ularga shu kerak shekilli. Bu yoqda esa, qo'shni tojirlar pichirlashib o'tinishadur: "Uzr so'rab qo'yaqoling, o'gb'lim...

Ammo men (nohaq qamchini unutganimcha yo'q) shaytonga hay berolmay turibman.

- Uzrni men emas, u kishim so'rashlari lozimdur!

Bilaman, tilim achchiq. Lekin bu til haqdan so'zlar edi.

Qozi janoblari shuncha xaloyiq ichida o'zini o'ngb'aysiz sezib, o'sha tazimdagi xaloyiq tomon alangladi. Aftidan u mo'minlardan najot kutmoqda edi.

- Astagb'firullohillazi, tazim qachondan beri... uyatlu sanalmish?

Meniki tutgan edi:

- Qachondan berli qamchi tazimu tazir quroli bo'lib qolmish? Qamchinni shuning uchun to'qirlarmi bu yurtda?

Bilaman, so'zlarim ularni chayondek chaqib-chaqib olmoqda edi. Qoziyu shahar ayonlari o'zlarini oqlashga so'z topolmasdilar.

O'rtaga oqsoqollardan kimdir tushmasa bo'lmaydirgan bir vaziyat vujudga kelmoqda edi. Men esam, tilimni tiygim kelmay borar, shu bilan hamma alamlarimni bir yo'la olgimmi, nima qilgim kelar edi:

- Muhojirlarga hamisha quchogb'ini ochib kelgan bu diyor, bu yurt da nahot endi qamchi ko'tarib, tazir bermoqni rasm etsalar?

- Nauzanbilloh! Siz haqsiz, bo'tam. Boshqa so'zga tilim aylanmas, - kutilmaganda qozikalon otdan tushib, azza-bazza qo'lini ko'ksiga bosib kela boshladi. Bilagidagi o'sha qamchi esa, kaftiga yopishgan qo'ngb'ir ilondek to'lgb'bonar edi, Chaman. U kela tizzalarimni quchmoqqa hozirligini ko'rib, keskin tisarildim.

- Qo'ying. Endi bari kech!..

U to'xtab qoldi. Najot kutib atrofimdagilarga qaradi. O'rtaga qariyalar tushib, yarashtirmoq niyatida yelkayu kuraklarimni silamoqqa tushdilar. Ammo bari ko'zimga xunukdan-xunuk ko'rinib ketmoqda edi. Mening o'ksuk ko'nglim nimani istardi - o'zim bilmasdim. Nasihatlar qulogb'imga kirmas, kirsam ham malham bo'lolmas edi.

- Yo'q, taqsirlar. Behuda ovora bo'lgaysiz, - dedim bosh tebrab. - To'n yelkaga tishlanib bo'ldi! Qamchining haqqi esa, qiyomatga qoldi, qozi buva. Xayr.

Ana shunday bo'lib qoldi, Chaman. Bir qamchiga shuncha achchiq, shuncha jahlni, demaysan, oshna. O'rtada gb'hururmi, nimadir yotardi. Balki Xudoning xohlashi shunday bo'lgandir. Qori aka ham qarorimni maqul topdilar. O'rnimizga (jamiyat tarqaganicha yo'q, Chaman. U hali ko'p yashaydi!) ishonchluv yigitlarni qoldirib, o'sha Muztogb'dan oshgandagi safardoshlarim ila yana bo'lak diyorga bosh olib ketadigan bo'ldik. Buni hijrat deb ataysanmi, safar deb sanaysanmi, o'zing bilasan, Chaman.

Sening izningsiz shunday ishlar qilib qo'ydik, osh-na. Qiyin-qiyin - senga qiyin bo'ldi. Jabr-jabrb'ib" senga jabr bo'ldi. Sen endi bizni qidirib topmogb'ing, biz uchun javob bermogb'ing kerak. Sen bizga shuncha yaxshiliklar qilganda, ajdaho komidan qutqarib, qilcha yomonlik sogb'hinmaganingda biz bundayin ishlar qilib qo'ydik. Uzr, oshna, ketmasak bo'lmasdi u diyordan. Keyin o'zingga qiyin bo'lardi, sen ham qutqara olmasding u qora ajdar domidan. Senga umr-bod tashvish orttirib yuraman shekilli, Chaman. Chekingga shunday o'rtoq tushgan ekan, injimaysan, ogb'hayni. Yolgb'iz qolganingda Tangri azza va jallaga o'tinib duo qilgilki, ko'rishmoqni qiyomatga qoldirmasin.

Omon bo'l. Sen ishongan togb'blardan ham bir kun kiyiklar sollanib-sollanib chiqqaylar, inshaalloh. Xayr. Sultonmuroding.

(U diyordan topilgan oxirgi xat edi bu, qolganlari boshqa diyorlardan yigb'ib kelingan edi 1.)

Kim kimga ilhaq bu jahon ayvonida?

Menga shunday biqinimizdagi dalaning eng baland joyidan bir parchagina yer tekkan. Dam olish kunlari o'sha yerda kuymanib yotaman. Kuymanishki, dunyo tashvishlaridan jindek bo'lsa-da, chalgb'ib, bosh ogb'friqlarni unutib, odamga o'xshab qaytaman.

Ayniqsa, rosa jaziramalarda oftobdan qochib, pastak chaylacham tagiga chiqib olsam bormi, uning soyasiyu gb'bir-gb'bir shabadasini hech narsaga alishmaydigan bir holga tushaman. Chindanam insonga ortiq nima kerak, bu jahon ayvonida?

Poyingdagi butun atrof-javonib oftob seliga ko'milib, jivirlagandan jivirlab yotsa-da, sen o'zingga loyiq soya topib, quruq yerga sekin cho'zilsang-da, kaftga bosh qo'yib, oyoq chalishtirgancha, olamni unutsang. O'zing ayt, bolalikda qolib ketgan bir farogb'hatni topgandek shu chalqancha yotishingni yana biron narsaga alishib bo'ladimikan?!

Kamiga chayla ustiga chirmashgan janduqlaru pechak gullar anvoyi gullab, urugb'ib bogb'lashga kirishgan, chayla ustini ko'k yopinchigb'ibi ila o'rayotgan bo'lsalar. Saraton jiviriga to'lgan osmon uning ortidan ko'rinib-ko'rinmasa.

Kamiga tepangdagi yolgb'iz terak barglari shabadada kumush kapalaklardek shovullab, tagidan bir ariq suv shaloplab oqib yotsa.

Yana kamiga dala boshidanmi, qaerdan gurkiragan rayhon hidlarini "ogb'bir-lab bir mayin shaboda chayla tagidan gb'bir-gb'bir o'taversa, tinmasa... O'sha yellar olib qochgan rayhon hidlarining sochilib-to'kilgani ham senga yetaversa... Uning gashtiga nima yetsin, bu jahon ayvonida?

Ana shunda hamma narsani unutasan-da, faqat o'zing ilhaq narsalargina qoladi...

Chaylaning quruq shoxiga chiqib olgan boshmaldoqdek ko'k beshiktervatdan (u ham chayla soyasida orom olyapti!) ko'z uzmay yotarkanman, pastdanmi - qaerdan mashinaning "bibiplab chaqirgan ovozi, nima eshitilgandek bo'laverardi. Yana bir bolakay: "Amaqu-u, Maqsud amaqlab chaqirar, ovozi elas-elas kelar edi. Erinibgina bosh ko'tarsam, dalaning hov pastida maysarang bir "Jiguli turibdi. Kim bo'lsa ekan? Egasi hali tushmagan, ammo chaqirayotgan bolakay esa, egat o'rtasidagi yo'ldan chopib kelar, qo'lga olvolgan do'pisini silkilab charchamas edi.

- Amaqu-u, Siznu chaqirishoptu... Amaqu-u, qaerdasiz?

"Kim? Yodgortoymi?! Nima bo'пти?! deb dik etib turib opman!

Haligina: "Qani edi, shu tobda aziz kishilaringdan birortasi qidirib kelsayu, manavi soyada bir to'yib otamlashsak... deb ko'nglim ketmab edimi, tavba. Nima bu? Niyatga yarasha deganlari shumikan?

Egat o'rtasidagi yo'lga qarab yurmasimdan o'sha maysarang mashinadan juda ham tanish odam tushib, yuragim xapriqib ketdi! Ie, jahongashta akajonimning o'zlarimi?! Bunday oq kepkanidan undan bo'lak kim ham kiyarkan?! O'sha jahongashta kiysin-da! Bir ketgancha badar ketadigan o'sha izquvar kiysin-da! Akajonimning daydi oshnasi-ku! Qanday xabarlar bilan qaytibdi ekan u Sherlok Xolms? Jahondagi gadoytopmas barcha ob-havo istansalarining tentiroq kezuvchisi, tinib-tinchimas Chaman akamiz-ku! - E-e, Xizrni yo'qlasam bo'lmas ekanmi?! Tushimmi, o'ngimmi?! - deya qanot chiqarib pastga yugurgan joyimda u ham bir to'lg'bonib qad rostladiyu quchoq ochgancha o'shayoqdanoq emranib kela boshladi. Ammo koshki eshitsam, qanday erkalab, nima nomlar bilan atayotganini! Ogb'zidan qanday so'z, mujdalar uchayotganini! Faqat u ham mendan battar sog'bonib yugurib kelar, uzoq ko'rishmagan kishilargina shunday talpinmoqlari, bir-birlarini sog'bonmoqlari mumkin edi.

Qolaversa, u jondan aziz akajonimni izlab ketgan edi, uni izlay-izlay bir yerlarga yetgan edi! Qanday daraklar bilan keldi ekan endi?..

Dalaning o'rtasida bir-birimizga yetib bordik. Yetib bordigu chirmashgancha qoldik. Oftob seliga to'lgan dalaning qoq o'rtasida turib qolganimizga ham, tashlama ariq bo'yida tizza bo'yi o'sib urug'bon bog'bonlashga tushgan o'tlarni bosib-yanchayotganimizni ham unutib, gir aylanardik. Quchoq'bonimizdan qo'yib yubormasdik. Qo'yib yubormasdigu quchib ham, yalab-yulqashib ham to'ymasdik.

- Bor ekansiz-ku, shunchalar ham bedarak ketadimi odam?.. - derdim men.

- Keldim-keldim. Uzoqib ketgan bo'lsam, uzr, sog'bonintirib qo'ygan bo'lsam, kechirasam, pakana pari. Shunaqa bo'lib qoldi, cho'zilib ketdi safarlarimiz. Faqat aybga buyurmaysan, so'kmaysan, pakana pari, - deb o'tinardi u.

- Nega, Chaman akajon, sog'boninganimizdan, kutaverib ko'zlarimiz teshilganidan aytaman-da, - derdim men.

- Eshitdim barini, eshitdim. Mingdan-ming rahmat senga, pakana pari. Yo'qligimni bilintirmabsan. Hammasiga o'zing girgitton, o'zing balogardon bo'libsam! Tog'bondek himoyachilari bo'lib o'tiribsan! Tabiblarga borib em-dorilarini topdiribsan!

Kasalxonalardan olib chiqibsan! Yol'boniz qoldirmabsan. Chin ukalik qilibsan, Maqsud! - deya, alqab bir yerlarga yetardi.

Kuraklarimni silab, bag'bonidan bo'shatmasdi. Men ham bu so'zlardan erigandan-erib borardim. Hamma qiynalganlarim - barcha yugur-yugurlarning, o'lib-tirilganlarimning qiynog'boni, alami tarqab borardi. Go'yo birov emas, Chaman akamning o'zi uni ko'ksimdan sidirib olib tashlamoqda edi, qushday yengil tortib bormoqdaydim.

Keyin o'zi quchoq'bonida dast ko'tarib, yerga qo'yarkan, yelkamga qoqib:

- Obbo, pakana pari-ey, shunaqa hech kim topmas joylarga chiqib olib, g'bonir-g'bonir shabadalar bilan tillashib yotibman degin?

Dalamiz bor, bu dunyo g'bonurbatlaridan yozilib ketadigan joyimiz bor, degin? Yur, yur, o'sha chaylangga chiqayluk. Birpasgina bo'lsa ham dunyo tashvishlaridan uzilib, ariq bo'ylarida o'tirayluk. G'uborlardan tozalanayluk, - deb qistay ketdi. - Bunday joylar ham g'bonanimat.

Yodgor esa, bu gapni eshitgandanoq o'tlanib qolgan, o'rta yo'lga tushib olib, hali u oyog'bonida, hali bunisida o'ynoqlab borar, yo'lakay g'bonumaylarningu boshqoq tortgan bedana o'tlarning boshini yulib-otar edi. Hali ariqqa yetsin, baliq bo'lib suvdan chiqmay qoladi shekilli! U o'zi bilan o'zi andarmon ekan, biz esa so'rashib-istashib, chayla tagiga chiqib bordik. Chaylaki, bir necha tol xodalarini egib-bog'bonlab, tol istaklariyu cho'plari bilan ishkomek yopib, kamiga ikki yonidan jandig'bonu chirmoviq gullarni chiqarib yuborgan edim. Ariqdagi suvning ayqirib oqishiyu uning bo'yidagi yol'boniz yosh terakning biydek dalaning qoq o'rtasida kumush ukpardek "shildirashini demasangiz, aytarlik joyi yo'qdek. Ammo Chaman akam hali ariqdagi suvda yuzlarini pishib-pishib chayib, hali egat boshidagi qarqirab o'sgan jambilu rayhonlar oralab, hidlarini gurkiratib tinchiy qolmasdi:

- Oh-oh, jannatning bir bo'lagi-ku! Har tarafdan orom yog'bonilib yotibdi-ku, - derdi.

Chaylaning tagiga kirib esa:

- Ana shabadayu mana shabada! Bunaqa joyini yana qaerdan topasan?! - deb turib qoldi. - Voy, sen'bon" pakana pari, shunaqa g'bonir-g'bonir shabadalarning yo'lini topib chayla qurganmisan? Faqat avrama, zo'r dehqonlar ham bunday joyini topolmaydilar-ku, - derdi u.

- Nega avrayin, menga o'zi shunday baland - ko'kcha yer tushib qopti, - dedim iymajib. O'zim esam uni o'tkazgani joy topolmay, quruq sholcha ustiga nima yozarimni bilmas edim: Chaman akamdek bir odam ozib-yozib bir kelib qolganida... tagiga solishga bitta ko'rpacham bo'lmasa-ya!..

- Buyam bo'lsa, sening baxting. O'zi omadi chopgan yigitsan-da, pakana pari. Hamma ham sendek bo'la olsin-chi, sidqidil bo'la olsin-chi...

- Qani, qaerga ham o'tqazdim? Yoki manavi bir quchoq pechakni tushab bera qolay, - deb urinardim men.

U ko'nmadi.

- Qo'y, tegma, qo'zichoqlarning rizqiga. Odam o'tirsa yemay qo'yaqoladilar. Undan ko'ra, mana bu yerga cho'kib, oyoqlarni uzatib yuboramiz-da, dalaning erka shamollariga yuz tutamiz. Qara, yerdan ham oyoqlarga xush yoqib, muz chiqyapti! Ko'pdan odamga o'xshab, bunaqa joylarda yonboshlamaganmiz. Yerning taptini tuymaganmiz. Qo'y, pakana pari, odamni bu baxtdan benasib etma, - deb turib, kutilmaganda u qo'lini duoga och-di, - Qani, omin, seni ham kishti-koringga Alloh baraka bersin. Yana ko'p yillar shu yerlar, shu yellarning fayzidan bebahra etmasin.

Dalaga kelib, yalangoyoq tuproq kechib, ariqlarda cho'milib, daraxtlarga osilib yurgan Yodgortoyning bo'yi ancha tik tortib qolgan, hozir ham o'yinqaroqligiga borib, ariqning u betidan bu betiga sakrar, ninachimi - nimadir tutishga andarmon edi. (Hali ariqqa to'lg'bon bo'lib, o'zidan oshib o'tgan suvlar sharsharasiga besh ketishga tushsin, oftobga chiqib yotib, yana o'zini suvga otishga tushsin, to'xtatib bo'psiz! Bu yerdan ketgisi ham kelmay qolishi aniq).

Biz esa, bundan foydalanib, bir-birimizdan hol-ahvol so'rab, ko'ngil ovlashga tushib ketganmiz. Mulozamatlarimiz cho'zilgani sari

dil hapriqadi. Niyatga ko'cha olmay halakman. Bir chekkasi o'zi sog'ib-omon qaytganidan boshim osmonda, ko'nglim xotirjam tortib borayotgan bo'lsa-da, muddaoga ko'chishga bir intiq-bir intiqmanki, qani mavridi kela qolsa. O'zi ham odamni qiynamay murodga ko'cha qolsa bo'lardi.

Bunga sari ichimga "nima, shuncha yurib, izini topolmabdimi, nega jim, gapni aylantiradi degan shubhayu gumonlar oralaydi. O'zimni esa tilim aylanmayapti, irim qilib, og'ib ocholmayapman. Nihoyat, u qay bir yurtlarning jazirama oftobida kuyib qoraygan yuzlarini ishqab, boshidan (o'sha ayvonchasi silliq yelimu o'zi lattadan tikilgan) oq kepkasini olib, chayla bag'ibaziga ilarkan:

- Aytmoqchi, anuv osori-atiqashunos uhradimi? Men yo'ldan senga bir narsalar berib yuborib edim?- dedi negadir betimga qaramay.

Yuragim taka-puka bo'lib kelib, shuv etdi! Sezdimki, undan ortiq bir narsa topmabdi. Topsa, aytardi-ku! Aytib, suyunchi olardi!.. Nahot akam?..

Yo'q, tishni tishga bosmoq kerak! Halitdan yomon fol olishga nima hojat? Akam bo'ladiyu beiz-bedarak ketadimi?! U yolg'ibiz o'z boshini o'ylaganlardan bo'lsa ekanki, qo'rqsam?!

- Berdi-berdi, keltirib berdi, u omonat xatlarni asrab qo'yibman, hech kimga ko'rsatmay.

- Barakalla, yaxshi qipsan, hali mavridimas, - deb u menga minnatdor qarab qo'ydi.

- Hali yaralar bitmagan, ko'tara olmaydi, deysiz-da? - dedim ichim achishib.

- Har narsaning davosi vaqt, tura tursin, - dedi u uzatib yuborgan oyoqlarini negadir tinimsiz silab-siypagancha.

Bu gapdan ichim uzulib, o'zimni behol sezdim: boyaqish, kennoyim, yana qancha kutadi ekan? Sabri yetadimikan? Shu xayollarim o'zimga o'tirishmay ich-ichimdan bir norozilik uyg'ibonib kelmoqda, o'zimni o'zim yomon ko'rib ketmoqda edim: Aytsa ayta qolmaydimi, nima bo'lganini? Odamni buncha xat qilmay!

U suyub tikildi:

- Senga ming rahmat. O'z jigaringdan ham alo ko'rib, xizmatlar qilibsən. Jujug'ibiniyu o'zini ko'z qorachug'ibingdek asrab o'tiribsən. U dunyo-bu dunyo unutmaydigan bir ish qilibsən.

- Kimga? - dedim bir xijolatlariga botib.

- Ularga-da, kimga bo'lardi. Akang uchun, men uchun.

- Qilsam kimga qipman, begonami? - dedim o'pkam to'lib kela boshlab.

- Alloh rozi bo'ladigan ishni aytib qo'yg'an yaxshi-da, - dedi u.

- Bir mening qo'limdan nimayam kelardi?! Siz shu rahmatlaringizni boshqa bir kishiga aysangiz yarashardi, - dedim chiniga ko'chib.

Chaman akam ilkis qaradi. Bu nigoh ichimning tub-tublariga qadar singib borgudek edi.

- Chin gap ham shu. Agar To'ram taqdir yordam bermasalar, panohlariga olmasalar, bir mening qo'limdan nima ham kelardi...

- Chindan o'sha kishi-ya? Tangritog'ibida davlat qurib, keyin biz... biznikilar o'g'ibirlab kelgan, uy qamog'ibida o'tirgan zot-a? - dedi hayratlanib.

Yashiradigan hech narsa qolmagan edi:

- Ha, o'sha - akamni biladigan, uning nomini tildan qo'ymaydigan kishi.

- Bilaman, - dedi u yana tizzalarini silay boshlab. - Akang ham u kishiga ko'p etiqod qo'yg'an, ishongan edi. Buyursayoq, osmondagi yulduzni uzub oladiganlardan edi. Yo'llari ayri tushdiyu niyatlariga yetolmadilar.

- Nima, akam?... - deb yubordim yuragim xunuk bir qalqib.

- Ha, u diyordan chiqib ketgan, hech yerda qo'nim topolmayotir. Tarix o'z niyatidan qaytmagan bunaqa darbadarni ko'rmagandir...

Chayla tagida shabada bir damgina to'xtab, olam tandirga aylangandek, qiziblar ketdim. Bu xabardan yo nafasim ichimga tushib ketgan, yo bir bo'lsa, yuragim urmay qolgan edi! Betoqatlanib, chuqur bir tin olib edim, shuni kutib turgandek Alloh ham ushlab turgan yellarini qo'yib yubordiyu ko'ksimga avvalgidek bir yengillik kirib, odam holiga qaytdim. O'ziga shukr. Bu g'ibir-g'ibir shabadalarini birpasgina qo'yib yubormay tursa, nima qilardim, holim nima kechardi?! Yaxshiyam qo'yib yubordi, marhamatini darig'ib tutmadi. Akamga ham shunday marhamatini darig'ib tutmasa, nima qiladi ekan? Sarhadlarni ochib yuborsa, nima qiladi ekan? Yo biron boshqa atagani bormi unga?

- Shuning uchun ham hiyla kechikdim. U ko'chib o'tgan diyordan topganlarim esa, yolg'ibiz shu bitiklar bo'ldi. U yog'ibi qaerga ketib, qaerda qo'nim topgani malum emas, - deyar edi Chaman akam. Men esam, buni anglab turgandekman-u, qo'lidagi o'rog'ibliq narsa yana xatlarminima ekanini fahmlab yetolmayotirman...

U yoqda esa ikkala qo'lchasi ila to'g'ibon qozig'ibigami, nimagadir yopishib olgan Yodgortoy zo'r berib suvni shaloplata, olamga sig'ibmay yayrar edi. Bu yoqda esa, biz o'z g'ibamimiz o'zimizga yetib, bir-birimizga tikilishib o'tiribmiz. G'ir-g'ibir esgan shabadalar ham o'sha g'ibamlarimizni ko'tarib ketolmayotgandek. Shu holda yana qancha o'tiramiz - o'zimiz bilmasdik.

Chirog'iboniga zor go'sha yoxud bulbullar chah-chahlagan bir chorbog'ib

Bekobodning Shirin shahriga ikki kunlik safar bilan ketgan edik. Safar ham shoshilinchroq edi. Ertasiga tushlarga yaqin qaytib kelsam, meni kimdir so'roqlabdi. Kamiga kelishi ila qo'ng'ibiroq qilsin, deb telefon numerini qoldiribdi.

Raqamidan tanimadim-u, lekin ichim hapriqishi qolmasdi. Xuddi biron qarindoshimiz to'satdan olamdan o'tganu men janozasiga yeta olmay qoladigandek edim. Axiyri sabrim chidamadi. Berilgan numerni tersam... Olim akam!

- E, mening mirzo xolavachcham, qaerlarda yuribsən? Buncha safaring ko'p ekan, yurishlaring ko'p ekan sening?! Nasiba qo'shgan ekan, tezda yetib kel. Hamma xolalarimizuz tog'ibalar yig'ibilishib o'tirishibdi. Bitta sen yo'qsan.

- Tinchlikmi, o'zi? Qaerga yetib boraman, qanday yig'ibin? - dedim, bu go'sha qaerda ekanini hech aqlimga sig'ibdirolmay.

- Qaerga bo'lardi, pakana pari. Bizning yangi hovliga-da... - Keyin "darvoqe sen bilmaysan-a, deb tushuntira ketdi. - Bir taksiga o'tir, ketsa mirzodan ketibdi. Ammo bu yig'ibindan qolma. Keyin afsus qilasan. Qarindoshlarni bitta qoldirmay yig'ibib kelganman. Kutaman-a?!

Shuni aytadilar-da, nasib qilsa kelar Shomu Iroqdan deb. O'zim ham Kattabog'ib Yakkabog'iblar buzilib, har yerga to'zib ketgan qarindoshlarimni sog'ibingan edim. Qolaversa, ishli odam - boshqa paytda borib ko'rgani vaqt topolmaysan, vaqting bo'lsa, boshqa tashvishlardan ortib yetolmaysan. Shunaqa yig'ibinlarda diydorlariga to'yamasang, qachon to'yasan! Xolalaruz tog'ibalar ham qarib qolishdi, hammalari g'ibanimat. Duolarini olib qolganga, xizmatlarini qilganga nima yetsin! Undan tashqari bu akam

tushmagur miq etmay yurib, isini ham chiqarmay qaerdan hovli-joy qilibdi ekan? Nega qavatimizga boravermay, soylik-tepalik demay Bo'zsuv bo'yidan joy qilibdi ekan? Niyati nima? So'qqabosh odam b' issig b'i bor, sovug b'i bor, hovli-joy qilmoqchi ekan, bir og b'iz aytmaydimi, qavatimizga yaqin joydan topmaymizmi?

- O'zing bilasan, Bog b'obodning tagi bilan o'tgan yo'l bor-ku, hozir avtobus qatnayotgan? Omon qolgan lagerlarning pastida polkovniklarning bog b'larini ko'rganmisan? O'shatta tushasan. Naq Bo'zsuv bo'yida. Qaynamaga yetmasdan, - deb tushuntirdi akam.

U yerda qanday bo'sh joy bor ekan, imorat solsa bo'ladigan, hech aqlim bovar qilmas edi. Shuncha o'tib, ko'rmagan ekanman-da?! Men Bo'zsuv yoqasidan joy qilgan polkovniklarning mevali-mevasiz daraxtlar o'rab, chakalak bo'lib ketgan bog b'larini bilar edim-u, lekin kechalari lagerlarga kino ko'rgani shuncha devor oshib borganimiz bilan, u bog b'larga yurak yutib kirgan emasdik. U gilozor, nokzorli chakalaklarda kecha-kunduz bulbullar chah-chahlab yotsa-da, bironamiz ikki qavat shoh-devorlarni oshib o'tmaganmiz. Simga bog b'liq zanjirlarini sudrab, akillab beradigan itlariga yurak yutib yaqinlashib bo'ladi ekanmi?! Shohdan kirgan bola tugul quyonu mushuklarni gb' hajib tashlaydigan u itlar hali ham bor bo'lsa kerak. Olim akam kelib-kelib, o'shalarning qavatidan joy qilibdimi? Hukumatga xizmatlari evaziga berishibdimikan yo sotib oldimi- kan?

Men shu xayollar bilan asrga yaqin aytilgan joyga yetib borar ekanman, uning qavatimizdan chiqib, boshqa yerda joy qilganiga hech tushuna olmasdim. Keyingi paytlarda uning kamnomo-kamgap, xuddi ichimdagini top qabilidagi odamlar sirasidan bo'lib qolgani shundan ekanmi yo?..

Bog b'obodning pasti bilan tushgan o'sha aylanma yo'lni demasa, u atrofda yangi hovli-joyu qurilish otining o'zi ko'rinmas, Olim akam qaysi joyni tushuntiribdi ekan, tasmollay-tasmollay, yo'l yoqalab borar ekanman, o'sha mashhur polkovniklarning bog b' hovllilariga yetib qolgan joyimda yangi qo'sh darvoza bilan yakka tavaqa eshik ko'rindi. U yog b'i ham, bu yog b'i ham gb' hishtin devor edi. Shunaqa rasamadi bilan terilib o'ralganki, qanaqa idora ekan, deysiz.

Men kimdan, nima deb so'rarimni bilmay taraddudda ekanman, shu mahal haligi eshikdan xayr-xo'shlashib tish kavlagan qariyalar chiqa boshladilar. Ular qay birlari alqab, qay birlari kekirib, duo qilib chiqishmoqda edi. Shu yer ekanmi, kamina ehsondan kechikibtilarmi, deya yaqin borarimni ham, bormasimni ham bilmay, ikkilanib turarkanman, kuzatib chiqqanlar orasida pochchaniyu Qo'ldosh tog b'amlarni ko'rib qadamimni tezlatdim. Qariyalar salomimga alik olib, gurun bergancha yo'lni kesib o'tib ketdilar. Aftidan ular masjidgami - qayoqqa shoshar, oldinda borayotgan oq salla, sidirgb'ba xalatlari zanj bashara imomdan ortda qolmaslikka tirishar edilar.

Tanidim, bu o'sha qiroati shirali, ammo bidirlab gapirganidan nima deyayotganini ilg b'ab olish qiyin bo'lgan tarashadek ozgb'bin domla edi. Biznikilar Cho'pon ota masjidining bu domlasini - nimasiga ixlos qo'yishgan - hech yig b'inga kanda qilmay aytishadi, tushuna olmasdim. Balki qiroati uchundir b' Quronni hurmatidan. Yana kim biladi. Shu tob pochchani ko'zlari menga tushib qoldi.

- Ie-ie, Maqsudxo'ja, o'zingmisan? Kepqopsan-ku. Kir-kir, bolam. Xolalaring so'rayverib bir yerga yetishayotuvdi. Yetib kelganing ko'p yaxshi bo'пти, ko'p yaxshi bo'пти. Hoy, Olim, qanisan, jigargo'shangga qara, orqamizda qoladigan jiyanlaringga qara, - deb alqay ketdilar. Men hijolatlarga botib, borib ko'risha boshladim.

- Uzr, xizmatchilik, topib kelgunchayam vaqt o'tib ketipti.

- Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q. Masjid qavmi chiqqani bilan hamma qarindoshlar sho'tta - ichkarida. Hech kim tarqagani yo'q, kira qol, - dedilar Qo'ldosh tog b'am o'zlariga yarashadigan bir tarzda, o'sha-o'sha lab chetida suyib, iljayib turgancha. Hammadan Olim akamning boshi osmonda edi:

- Ana, ana, qanday yarashib turibdi kelganing. Avvalroq aytmaysanmi, safarim bor deb, bular ko'zimni ochirishmayotib edi. Kelib yuzimni bir yorug b' etting, oqlab yubording barcha ginalarniyam. O'zing zo'rsan, mirzolarning mirzosi, mening chin xolavachcham. Akaginamning suygan pakana parisi, bag b'rimni to'latding, - deya bag b'riga bosib, ichkariga yetaklay ketdi. Men hech kutmagandim. Uning bunchalar yayrab ketishini, boshi osmonga yetib alqashini. Kim tufaylidir meni bunchalar yeru ko'kka ishonmasligini. Yoki bular hammasi yo'lga - mulozamat uchunmi? Unday desam, kipriklari namlanib, azza-bazza ko'ziga yosh kelgan, ovozi ham bir tarz o'zgarib, so'zlari bo'gb'ziga tiqilib borayotir... U ham odam ekan-ku o'zimiz qatori. Jigarchilikni bilarkan-ku. Qadri endi o'tibdimi akamning? U akamni eslab ko'ngli buzilib ketganini men endi ko'rib turishim edi...

Ikkita bir xilda qilib, yonma-yon qurilgan, loki qotmagan qo'sh darvozaning berigisidan hovliga kirib bordik. Qarangki, darvoza ikkita bo'lgani bilan hali o'rtadan devor olinmagan, hovli juda keng, pastdagi bog b'ishkomlar uzun ketgan, yo'lkalar bir rasamadli, meva tuplari undan-da rejali, akam bog b' hovli olibdimi, yangi hovli-joy qilibdimi, bir qarashda bilish qiyin edi. Shu keng hovli-bog b'ning bir tarafida kunga qaratib solingan qo'sh qavatli, ayvonlari keng-keng, yog b'och zinalari bir chiroyli, peshtoqi ajab o'ymakorli naqshlar bilan naqshlangan, ayvon panjaralari yarqiragan, o'zi ixcham-u, lekin ko'krakdor oq bino ko'rinar, xuddi uning qarshisidab b' azim daraxtlarga ko'milgan bog b' ichida unga qaratib solingan xuddi o'shandek boshqa bir oq bino ko'zga tashlanar edi. Go'yo biri boshqasining ulkan oynasuvdagi aksi-suvratidek odamni lol qoldirar edi.

- Jur, jur, mana bu yoqqa jur. Avval aziz xolajonlarimiz, tog b'alarimiz bilan omonlashib ol. Seni ko'rib ko'ngillari joyiga tushsin. So'rayverib ham holi-jonimga qo'yishmadi. Ko'rsatib o'zimni oqlab olay, jur.

U meni o'ng qo'l tomondagi o'sha aziz xolajonlarimning tanish shovur-shuvur ovozlari kelayotgan oq uy tomon boshladi. Hovlida patnisu idish-ovoq ko'targan ayollar xizmatchilar ko'rinar, men qay go'shaga kelib qolganimni bilmay gangib qolganimdan qay birlari kim ekanliklarini salomlariga alik olibgina tanimoqda edim. Qolaversa, salqin bolalaydigan bu hovlida allaqanday ovloq bog b'lar, chakalaklarning havosini tuyayotgan, ariqlardagi shildirabu o'ynoqlab oqayotgan suv qaerdan kirib, qayoqqa chiqib ketayotganini hali anglab yetmagan bo'lsam-da, uning sarishtaligimi - nimasi, yoqqandan-yoqib tushmoqda edi. Qachon ekilgani nomalum, ammo yerni xohlab qolib, toza bo'y talashib o'sgan kadi noklar tagiga tushgan imorat shuncha ko'krakdorligi bilan hech qisib qolmagan, qaytaga uzukka ko'z qo'ygandek yarashib turar edi. Ishkomlar ortidanmi, qay tarafdandir katta suv salqiniga qo'shilib, yovvoy yalpizu suv o'tlarining omuxta hidi kelar edi. Men uni tanigandek edim, bu salqinligu bolalikdan tanish bo'ylar ko'ksimga moydek oqib kirmoqda edilar. O'zimni Bo'zsuv bo'ylarida turgandek his qila boshlagan edim. Olim akam chindan polkovniklar qavatidan joy olibdimi? Unda bu bog b', anavi ishkomlar suv bo'yiga qadar tushib boradi, desang-chi. Hali pastda allaqancha tepalaru soylar, chakalakzorlar bor, desang-chi. Balki savat tashlaydigan, baliq tutadigan joylari ham bordir? Bu orada biz panjarali ayvon o'rtasidagi kovshandozdan o'tib, ikki yon tarafdagi boloxonaga olib chiqadigan yog b'och zinalarni ortda qoldirib, ichkari kirib borgan, oltmish chog b'li odam sig b'sa mumkin bo'lgan zol ostonasiga yetgan edik. Parket polli bu yo'lak-kovshandozning ikki tarafida yana bezog b'liq mehmonxonalar ko'rinar, u yerda kim bor, haligi chiqib borayotgan chollar qaerda kutildi ekan, dafatan ajratish mushkul edi.

- Kel, kel, shu zolga o'taver, Usmon tog' b'angu Norxo'ja pochchalar shu yerda o'tirishibdi. Ie, ana xolalarimiz ham chiqishibdi. Hammalari bilan shu yerda ko'risha qoladigan bo'libsan. Xola, qarang, men kimni boshlab kelyapman. Qochqoq o'g' b'lingizni obkeltirmaguncha qo'ymadim, qarang, - deb Olim akam bir yayrab, bir kerilib kirib borarkan, xursandligini yashirmas, ochilib-sochilib ketgan edi.

Keng-keng, qo'shqavat derazalari orqa bog' b'ga qaratib ochib yuborilgan zol oynalari ko'pligidanmi, yo devorlari ganchkor, kamiga xuddi teatr zollaridagidek o'rtalariga toshoynalar o'rnatib zeb berilganidanmi, uy ichi yana ham kengayib ketgandek edi. Narigi tarafda ham xuddi shunday zol bordek, u yerda ham odamlar o'tirishgandek taassurot tug' b'diraverar edi. Olim akam bekorga dunyo kezmagan ekan, uyini xon qasriyu saroylaridan qolishmaydigan qilib bezattirgan edi. Bular uchun yolgb' b'iz didning o'zi kamlilik qilar, havas-ishtiyonning o'zi ham yetmas, juda katta mablag' b' ham kerak edi. Nima balo, anuv yilt yangi "Volvani loylab, hammasini shu yerga uribdimikan?"

Men ko'rishishni kattalardan boshlagan edim. Eng to'rda qachondir uloqda lat yegan, yozsalar yig' b'a olmay, turishga qiynaladigan oyoqlarini xontaxta tagiga cho'zib yuborgancha, qo'sha-qo'sha ko'k duxoba yostiqlarga botib, Usmon tog' b'ham o'tirar, yonlarida tiz bukib, cho'k'kalagancha darozdan-daroz Norxo'ja pochcha choy quyib, gurgung berar edilar. Ular o'lgudek chistonchi-hazilvon bo'lganlaridan hozir ham allaqaysi tog' b'hamiz birovg'a yaxshilik qilaman deb, qovun tushirib qo'yganlarini kula-kula hikoya etar edilar. Meni ko'rib, pochcha uzun qo'llarini cho'zdilar:

- Ie, ana, gap o'g' b'risi ham kepqopti-ku. Salomxon, buniz biz o'tib ketgandan keyin ham mana shu voqealarni eslab, kitob yozib yurmasa edi, deng. Odamni kimlarga sharmanda etib. Bizdiki, beg' b'haraz, jiyan, yozib yurmaysiz-a?

- Nima, yomonmi, pochcha, - deb kuldilar Usmon tog' b'ham yumshoqdan-yumshoq, xuddi kuylagandek eshitaladigan bir tovushda. - Shunaqa dali-g' b'uli odamlar ham o'tgan ekan-da, deb eslab yurishadi.

Pochcha qo'limni qo'yib yubormay bosh chayqadilar:

- Eslagani yaxshi-yu, shaytoni zo'r ekan deb tushunmasalar bo'lgani.

Pishillab-xarsillab kirib kelayotgan Nusrat pochcha bilan Qo'ldosh tog' b'ham bu gapdan yayrab kulishdi.

- Shoytoniz ham bordir - o'zizdek? - dedilar Nusrat pochcha tegishib, - Unga o'ziz bas kelmasangiz, unaqa-bunaqa odamni tentiratib qo'yar-e. Qaerdan ilashtirgansiz uni?

Tog' b'halarimu xolalarim qaysi bir voqeani eslab, barchalari kulishdi.

- Chakalakning shaytoni-da. Qaerniki bo'lardi,- deb qo'yidilar katta xolam, - odam joy tanlamay yotib qolavursa, shu-da.

Yana kulishdi. Shu asno pochcha mening qo'limni qo'yib yuborib edilar, boshqalar bilan ham ko'rishib chiqqa boshladim.

Tog' b'halarim duo qilib, xolalarim esa, yelkalarimga qoqib, kuraklarimni silab ko'rishishdi. Keyin o'tirib mening haqqimga, Sultonmurod akam, Olim akamlarning, barcha orqada qoladiganlarning haqqiga duo qilishdi. Hammalari bir og' b'izdan "Iloy, shularga to'zim bergin, ittifoqlik ato etgin, orqamizdan chirog' b'imizni yoqib o'tirishsin, tup qo'yib palak yozishsin deb, duolar qilishdi. Keyin "Mana bu sening nasibang, ol, ol, muntazir qilma deb sho'rvayu manti olib kelishdi.

- Mantini Mahfuz kennoying qildi. Har galgidek bir o'xshabdi, bir o'xshabdi. Ol, bolam, xamiri piyozni po'stidan yupqa tortib ketipti, ol, - deb oyim qistadilar.

- Baraka topsin, ko'p pazanda ekan, bu tog' b'lik kelinimiz, - deb alqadilar Mubor xolam.

- Qo'ying, opa, hamma maqtasayam siz maqtamang, ko'ziz tegadi, - dedilar Xidoy xolam, u kishi xafa bo'ladilar demay ham.

- Ha, men shunchaki, Xidoy. Suyganimdan, - dedilar xolam shirin jilmayib. U kishining bir ko'zlariga jindek oq tushgan, boshqasida esa, xol bor - ana o'sha yomon, astoydil qarasarlar otni yiqitadilar, deyishardi. Mubor xolam kirib kela boshlasalar oyimgilar kelinlarga hay-haylab, shirin talpinadigan bo'lib qolgan chaqaloqlarini darrov yashirishga tushishar, sog' b'ib turgan, yangi bo'shangan sigirlarini ko'rsatmay qo'ya qolishar edi. Negaki, o'sha sigirga xolamning ko'zlari tushdi deguncha u emchagiga qo'l urdirmay, tepib tashlaydigan bo'lib qolar, har yuvvosh sigirlarni ham jin urardi-qolardi.

- Sizni suyganiz bor bo'lsin, - deb to'ng' b'illab qo'yidilar Xabira xolam. - O'zini kuygani yetmaydimi, eri kelolmay qaerlarda yuribdi-ku.

- Alloh hafiz. Eshon pochchamni qancha algb' b'ov-dalgb' b'ovlardan asragan, o'g' b'lini ham asrar, - deb qo'yidilar Mubor xolam.

U kishining bu gaplarni zarracha og' b'ir olmay, choy xo'plagancha jilmayib o'tirishlari bir g' b'halati edi. Inson shunchalar ham kengfel-kengyurak bo'la olar ekanmi - hech tushuna olmasdim. Shu tob toshoynalarda aks etib turgan "qo'shni zolda qo'lidagi likopchada bir nima ko'tarib kelayotgan, o'sha husndan emas, boshqa narsadan Xudo qisgan Mahfuz kennoyimni ko'rib, ichimda bir narsa chirt uzilgandek tek qoldim. O'zimga kelganimda chindan ham u hech narsadan bexabar qo'lidagi likopchada ikki six qiyma kabob ko'targancha men tomon kelar, tog' b'halaru xolalarim jim qolishgan, Mubor xolam esa, Xudoga ming qatla shukr - nazarlarini olib qochib, xijolatli jilmaygancha, kaftlari ila dasturxon popugini silab-to'g' b'irilar edilar. Shungayam shukr, ayaganlariga shukr. Kimsan Eshon pochchani zurrivotiga tegishli ekan, baxtida qarasin, deb o'tirganlariga shukr.

- Olung, Maqsudxo'ja. Sizga ilinub, yangi qo'yub berishdu.

- Rahmat.

U bo'sh choynaklarni olib chiqdi ham, xolalarim boyagi sukutni buzisha olmasdi.

- Yaxshi olib kelibsiz, Salomxon. Shunaqa qo'shilib tursin, yolgb' b'izligini, g' b'hamlarini unutadi, - dedilar Xabira xolam.

- Qavatingizga olib kelib, undan ham yaxshi qilibsiz, opa. Himoyachisi yo'q deya olmaydi birov, - dedilar kenja tog' b'ham.

- Savob ham kerak-ku, - dedilar Usmon tog' b'ham.- Endi manavi jiyanimizning boshini ikkita qilib qo'ysak - Alloh ham bizdan rozi bo'lardi. Shunday hovli-joylarni bekorga qurmaganidir. Oldingisi unaqa chiqqan bo'lsa, endigisi oq yuvib-oq tarab o'tirar. Nima deysiz, Nusratxo'ja?

Olim akam qay bir yumush bilan tashqari chiqqan, shundan foydalanib bular shu haqda gap ochgan, hovli to'yi - ehson bahona uni oilali qilib qo'yish g' b'hamiga tushgan ko'rinar edilar.

- Umid bilan hovli-joy qipti, bosh qo'shsak, yo'q demas, - dedilar pochcha, - Qolaversa, uy bitipti, bu yog' b'iga oyoq-qo'lli bir ahli ayol topish bizdan lozim.

- Lozim-lozim. Shariatda nikoh nimaga buyurilgan? Vaqt-bemahal maza-bemaza yo'llardan tiyilishga buyurilgan, - dedilar Norxo'ja pochcha o'sha-o'sha cho'k'kalab - qo'ndoqdek o'tirgancha.

Nusrat pochcha bu gapga negadir miyig' b'larida kuldilar-u, har qalay kuyov nomlari bor, xolalarim oldida tillariga kelganidan tiyildilar.

- Bordir, axir, urug' b'imizda bironta o'ziga mosi?- dedilar Usmon tog' b'ham ayaga ko'z qirlarini tashlab qo'yib va ham yumshoq jilmaygancha.

Shu jilmayishlarida "Sizlar topasizlar undayi-ni degan mazmun bor edi. Xolalarim "razm solib ko'raylik-chi, oka, degandek bir-birlariga manoli qarashdi-yu, ochiq bir narsa deyishmadi. Shu tob (o'sha maqtashgan mantidan bir tishlagan edim, u gʻb ʻirchcha moyga pishgan, ziralari tobida, yesang ham yeydigan, yemasang ham yeydigan edi) Qo'ldosh togʻ ʻam tomoq qirdilar:

- Izlashga nima hojat? Enidan chiqqanini etagiga solib qo'yaqolayluk. Yuradimi bu bu yoqda so'qqabosh, u u yoqda bevadek?

- Kim? - dedilar oyim ilkis bosh ko'tarib. U kishi birinchi bo'lib togʻ ʻamning niyatlarini payqab qolgan va ham norozi qarab turar edilar.

Yuragim shigʻ ʻ etdi, ogʻ ʻzimdagi ogʻ ʻzimda, bo'gʻ ʻzimdagi bo'gʻ ʻzimda qoldi. Nohat kennoyimni aytmogʻ dalar?

- Kim bo'lardi, hozirgi keliniz-da, opa.

Shunday katta zolga pashsha uchsa bilinadigan jimlik cho'kkan edi. Oyim, togʻ ʻamdan shuncha yaxshiliklar ko'rib, oldilarida ham, orqalaridan ham alqab yuradigan oyimning tuslari o'zgarib ketgan, qo'llari ko'rpacha chetini changallaganicha qolgan edi.

Nihoyat u kishiga jon bitdi, jon bitib kaftlari bilan yuzlarini siladilaru togʻ ʻamdan yuz burdilar. Sezib turibman. U kishi "Uyaling, Qo'ldoshxo'ja! Opamizning o'gʻ ʻli Sultonmurod o'lgani ketgan emas-ku! demoqchi bo'lar edilar-u, tillari aylana qolmasdi. U kishi - shuncha to'gʻ ʻriso'z, gap kelganda hech kimni ayamaydigan odam - hozir jim qolgan, irim qilibmi, dillaridagini tillariga chiqarmay turar edilar.

Oyimning o'rnilariga Oyposhsho xolam javob qildilar:

- Bilamiz, Qo'ldoshxo'ja, siz yaxshi niyatda, savob bo'larmikan deb, aytayapsiz bu gapni. Lekin bedarak ketgani - qaytmaydi deganimasdir?

- Men ham bir narsani bilarman, opa? Shu hukumat turadigan bo'lsa, Sultonmurodizni ikki dunyoda ham bu yoqlarga yo'latmas...

Men ado bo'lgan edim: ogʻ ʻzimdagiyo bo'gʻ ʻzimdagini qanday yutdim, dasturxonga qanday fotiha o'qib turdim - bilmasdim.

O'zimga kelganimda kosamni ko'tarib, sekin zoldan chiqib borardim. Ko'z oldimda esa, allaqanday tuman, chala yonib tutayotgan samovar tutunidek bir narsa turib qolgan, negadir ko'zim emas, ichim achishib borar edi. Chiqishim-la Yodgor ko'rib chopib keldiyu o'zini otib, belimdan quchib oldi:

- Voy, amaqujon! Kelubmu edingiz? Men ko'rmabman.

Qo'limdagi kosa tushib ketay deb... zo'rgʻ ʻa ushlab qoldim. Buni ko'rib, kennoyim yolgʻ ʻbiztoyini qaytargan bo'ldilar:

- Voy, o'gʻ ʻlum, ko'ziz qayoqda? Eslu bollar amaqusiga shunaqa yopishadularmu? - U kishi qo'limdan kosani oldilaru mening bir alpozdaligimni ko'rib, shoshib qoldilar: "Voy, Maqsudxo'ja, tinchlukmu, o'ziz chiqdizmulab shivirlar, atrofimda aylanib o'rgi- lar ekanlar, men "tinchlik-tinchlik derdim-u, ich-ichimdan bosib kelib, ko'ksimni achishtirib-achishtirib o'tayotgan otash-alamni ichimga qult-qult yutganicha turarkanman, "yo'q-yo'q, o'zim deya yolgʻ ʻbonlashga tushgan edim:

- Ichkarida bo'gʻ ʻlib ketdim, u yoqlarga ham bir o'tay-chi, - deb ishkom tomonlarga yura boshladim.

- Unday bo'lsa, maylun-a, bora qolung, bir chiroylu joylar ekan. Pastda kattakon suv oqub yotiptu. Olub bor, Yodgor. Qaytishda maymunjon terub kelasizlar, - dedilar gapimga chippa-chin ishonib.

Yaxshiyam ijkilab so'ramadilar, so'raganlarida o'lgan edim. Nima deya olar edim?! Sizni shu chiroyli joylarning egasi qilishmoqchi! Akamni qaytmaydiga, qaytolmaydiga chiqarib, sizni shu uylarning xojasiga bo'lishyapti! O'zlariga oxiratda tegadigan savobni o'ylab, ikki qovushmaydigan boshni... qovushtirishyapti! Birovni do'zaxga otish hisobiga... o'zlariga jannatdan joy hozirlashyapti. Ana, mening qanday togʻ ʻalarim bor, dermidim?! Nahot shu ishlar Xudoga ham xush kelsa? Shariatda sharm yo'q, deganlari shudir balki?.. Ichimni o'sha narsa tirnagandan tirnab, tirnaganda ham eng nozik joylarini o'rtab bormoqda edi.

Undan faqat hech kim bilmas bir ovloqlarga qochib ketgilarim kelmoqda, qochganda ham o'sha yerlarda o'krab-o'krab bo'shanmaguncha... bo'shanmogʻ ʻim, qutulmogʻ ʻim mushkuldand-mushkul edi. Hozir ham ishkomlar yoqalab tushgan so'qmoqdan o'shanday ovloq-soylikka tushib borayotgan bo'lsam-da, o'krab-o'krab bo'shani olmasdim. Barcha alamlarimni yutmoqqa majbur edim, miq etolmasdim. Oldimda goh u oyogʻ ʻida, goh bu oyogʻ ʻida sakrab-o'ynoqlab Yodgortoy borar, men uning ko'ngliga qarab salqin bolalaydigan chakalakzorlar osha chimzor soylikka, undan buloqlari katta suvga qo'shiladigan "qo'ltiqdagi gala-gala mitti baliqlarni ko'rgani tushib borar edik. Koshki shu chakalaklar, maymunjonlar tutib ketgan shoh-devorlar ko'nglimga sigʻ ʻsa! Birontasiga qayrilib qarayotgan bo'lsam, o'lsin agar! Ammo katta suvni - jonajon Bo'zsuvni ko'rishim ila, uning namxush yellari ko'ksimga urilishi ila zora chalgʻ ʻhisam, zora unutsam, deb kelyapman. Lekin unutib bo'larmikan bu alam, bu xo'rliklarni?

Yetti yot-begonalar uyining to'ridan joy berib, birovning ahli ayoli ekan deb, o'rab-chirmab saqlaganda o'zimiznikilarni nima jin urdi? Kennoyim boyaqishning ularga nima ogʻ ʻirligi tusha qoldiki, qutulmoqchi bo'lib qolishibdi? Yana o'zlarini mehribon-panohgo'y ko'rsatib, enidan chiqqanini etagiga solmoqchi bo'lishayotgani-chi! O'lsin agar, shu Alloh rozi bo'ladirgan ish bo'lsa! Olim akam-chi, nima deydi? Shu niyatda togʻ ʻalarimu xolalarimni hovli to'yiga chaqirib, bir yerga to'plabdimi? Ko'ring, qanday joylar qildim, endi boshimni ikkita qilib qo'ysangiz - savobga qolasiz, demoqchimi? Niyati o'zi nima? Unda anuv ro'paradagi hovli-joy-chi, o'zinikiga o'xshatib, hech narsadan qismay, kamitmay qurgan ikkinchi koshona-chi? Kimga atalgan? Zarurmidi, niyati shunday ekan?

Ishkomlar tugab, chimzor soylikka tusha boshladigu ellik metrcha pastda Bo'zsuv ko'rinib, uning namxush yeli dimoqqa urildi. Xayolim akamning qarorgohini izlab yurgan kezlarimizga ko'chgan edi va shu barobar ko'zim Bo'zsuvning narigi betidagi jarga tushib, xushim uchdi: nahot biz o'sha mashhur jar ro'parasida turibmiz? U bu yerga shunaqa yaqin ekanmi? Unga pochchaning bogʻ ʻlari tagidagi yo'ldan tushib borilmasmidi? Katta yassitepaning naq ustiga chiqvolib, tamosha qilmaganmidik - jaziramaga tashlab qo'yilgan Parpi o'gʻ ʻbrini?..

Gap shundaki, naq ro'paramizdagi katta bir tepa... qoq yarmidan o'pirilib tushganu... yarim yo'lda bir mo'jiza bo'lib, ilinib qolgan, uning ustidagi yolgʻ ʻbiz qora tol shu holicha ko'klab yotar edi. Tepaning surilmay qolgan qismidagi yolgʻ ʻbiz tup daraxt esa, hov o'sha biz ko'rgan tepadagidek paqqos qurib qolgan edi. Ko'z oldimga nima kelib ketibdi! Go'yo u o'sha qurigan daraxtning o'zi ediyu... qo'ltigʻ ʻbidan arqonga bogʻ ʻblab pastdagi supaga tashlab qo'yilgan Parpi tolga aylanib qolgandek edi. Men necha yildan keyin hov o'shandagiga o'xshash bir manzarani ko'rib turar edim.

Faqat buning hikmati nima - o'ylab o'yimning tagiga yetolmasdim. Shunday bir yerda badar yo'qolgan Olim akam mana necha yillardan keyin omon-eson qaytib kelib, o'sha joylarga yaqin yerdan hovli-joy qilib, vatan tutayotgani juda-juda gʻ ʻbalati edi. Xuddi o'sha joyda adolat uchun kurashib, o'z diyoridan judo bo'lgan boshqa bir akam esa, o'sha chiqib ketganicha badar ketib borardi... Ana sizga adolat! Ajab adolat! Kim qilgan qaysi xizmatlari evaziga ajri-mukofotini shu dunyodayoq olib tursa-yu, kim topganidan ham ayrilib, quvgʻ ʻbindi bo'lib yursa...

Bu vaqt chimzorning pastigacha tushib borgan Yodgor suv qo'ltiq bo'lib kirgan joy tepasida turvolib, zo'r berib imlab chaqirar,

ovozini chiqarsayoq, mitti baliqchalar suv tagiga urib ketadigandek, qo'l silkilagandan-silkilar edi.

- Ha, toy bola, nima ko'rding? Savatmi? - dedim joyimdan jilgim kelmay.

- Yo'q-yo'q, baliqlar galasu. Qarang, qochub, yana qaytub chiqoptular, - dedi u hovliqib.

- Toza suvni kim xohlamaydi?! Ular ham o'ynab chiqishgan-da, - dedim sekin. Keyin o'zim ham u mitti baliqlarning goh xurkib qochishlariyu yana sekin qaytib chiqishlarini tasavvur etib, jim qoldim.

Shu mitti baliqlar ham o'zlari tugb'zilgan toza diyorlarni tark etgilari, hech narsaga alishgilari kelmaydi, qaytib-qaytib kelaveradilar. Odamlar-chi, nega qaytolmaskanlar? Hatto Sulton akamdek boturlar ham o'z diyorlariga o'tolmasalar? Bu qanday adolat bo'ldi? Yo bu dunyo boshqacha qurilganmi? Beshikdan qabrgacha eng aziz narsalaringdan ayrilib-ajrab boraverasanmi? Hamma yo'qotganlarning topganingga arzisa, xo'p-xo'p-a, arzimasa-chi? U qanday adolat bo'ldi?..

Shu tob yonginamdagi chakalak ichida - maymunjonlar o'rab ketgan shohdevor ortidami, qizil togb'bolchalaru ko'ksultonlar orasidami - ishqilib soya bolalab yotgan bir yerda bulbul chah-chahlab yuborib, sokindan-sokin oqib yotgan katta suv ustilab, uning jarangi tarala ketdiyu bunga narigi qirg'b'hoqdan aks-sadosi qo'shilib, ariq bo'yiga sekin o'tira qoldim. Subhanalloh! Biz o'zi jannatlarda ham topilmaydigan qanday bir joyga kelib qolganmiz? Olim akam taglaridan anhor-anhor suvlar oqib, bulbullar chah-chahlab yotgan bu joyni qanday topdiyu, nega bir juft qilib, oq uy-oq koshonalar qurdi? Faqat o'zi va manavi Yodgortoyu kennoyimlar uchun desam, hovli-joy nega ikkita? Ikkinchi koshona kimga atalgan?

Men bu narsalarning behuda emasligini anglab yetgandek, yetayotgandek bo'lardim-u, uning sidqidilligiga hech ishona olmasdim. Sidqidil bo'lsa, togb'ham haligi gapni nega ochdilar? O'zidan bir imdod bo'lganki, u kishi ogb'biz solyaptilar...

Bulbul esa, tinim bilmay chah-chahlar, u jonivor bo'zlayaptimi, kuylayaptimi, ajratish mushkuldand-mulkul edi. Qolaversa, qani narigi qirg'b'hoqdan boshqa birontasi unga jo'r bo'la qolsa... - qo'shilmadi.

Osmon nikohini kim ham buza olgay?

Men o'sha bir ogb'biz so'zdan butun tinchimni yo'qotgan edim, boyagi hayratu halovatdan asar ham qolmagan edi. Endi o'sha bir-biriga qaratib, (go'yo biri boshqasining oyinadagi aksidek!..) qurilgan ikki qasr - ikki koshona - koshonaligini yo'qotib, dasti uzun bir kimsaning bachkana urinishlariga o'xshab qolgan edi. Undan olxo'rirang "Volvaning o'zi chetan eshik oldida ovro'poning yilt-yangi o'yinchogb'himisol turgani avloroq emasmi! (Bu esa, uni loylab, qaysibir polkovnikdan qolgan shu joyni olib, manavi "chiranma gb'hoz, hunaring oz imoratlariga chaplabdi!)

Qanday bogb'blaridan ayrilib, to'rt sotixgina joyga tiqilib o'tirgan togb'blarim u xolalarim uchun bu balki "taglaridan anhor-anhor suvlar oqib o'tguvchi jannat bogb'blaridan hech yeri kam emasdir. Lekin menga endi qilcha tasir etmayotgan edi. "...Hammasi o'sha niyatda olingan, shu niyatda solingan ekanmi? Aka ukadan kutgani... - shumidi hali?! Endi bu eshiklardan Sultonmurod akam emas, yelkasiga to'nini tashlab u chiqadimi?! Kennoyim... uningmas, buning xizmatlarini qilib, bolalarini oq yuvib-oq taraydimi? O' hayot, bunchalar achchiqsan, tahirdan tahirsan! Imm!..

Ikki yoni soyga yetgunga qadar cho'zilgan ishkamlar yoqalab, tashlama ariq bo'yi bilan bogb'blar adogb'biga tushib bordik ham, Yodgorning uchib-qo'nishiga, oldimga tushib olib, pastda ko'rganlaridan bu qadar hayratlanishiga ham hech tushuna olmasdim. Tavba, katta suvni endi ko'rishimi?! Umri bino bo'lib ko'rmagan narsalarini endi ko'rayotgandek bir yerga yetadi. Tarifini keltirolmay hali o't bosgan ariq ichlariga, hali suvlarga tushib ketadi, yana sakrab-hakachoqlab yo'lga chiqib oladi-yu, davom etadi...

Ammo men qani endi uni tushunadigan bir ahvolda bo'lsam! Qayda! Ichimga chiroq yoqsa, yorimaydi. Shu topda o'zini tutishi, ijiklashlaridan bir gb'bashim kelyaptiki: nimasiga xursand bo'ladi bu bola?! Yetim boshini silayotganlaridanmi?.. Ertaga padari o'rniga bir "padarlik... bo'layotganidanmi? Bu ehson, bu hovli to'yi bahona orqavorotdan nima ishlar bo'layotganini biladimi o'zi? Bo'yi bo'yimizga teng bo'lib qolganda uning orzu-havasini o'ylash o'rniga "boshini silaguvchi bir qo'l izlab qolishidimi unga? Shunday topiladigan savob, o'lsin agar savob deb atalsa! Birovni bu dunyoda ko'rgan sitamlari, alamlari kam bo'lsa, yana shu dunyoning do'zaxiga otib, o'zlariga jannat bogb'blaridan bir joy hozirlamoqchilarmi? Xudo ham anoyi ekan-da! Ko'rib turgandir?!

Qolaversa, osmon nikohini buzish oson ekanmi? Shuncha quv-quv, taloto'plarda uzulmagan nikoh rishtalari endi uzuladimi? Uzuldi deganimiz Margb'bu kennoyimnikimidi? Oxiri nima bo'lib chiqdi? Buning ham Xudo bir belgilagani bordir, oshiqishmasa?

..
Ishkamlar jarlik yoqasida tugab, o'rtadagi soylikka tushib bora boshladik. Pastdan hov bir vaqtlar Bo'zsvudan savat qaragani tushib yurgan kezimizdagidek, suv o'tlari bilan baliq hidlariga yalpiz bo'ylari qo'shilib, omuxta bo'lib ketgan "katta suv hidi kelib turar, o'sha, shu yerga kelganda burilaturib oqmay to'xtab qolgandek katta suv betida esabaland osmonu tik o'pirilgan jarlar... bir ajoyib akslanib, ko'rinar edilar. Bunga sari qirg'b'hoqlardagi tollar bir pakana tortib ketganlarki, ularning tagiga tushibgina bular ham rosmana tarvaqaylagan qari tollar ekanini, tagidan soya arimay, jimlik degani shu yerlarda bolalashini ko'rmoq mumkin. Biz soyga tushib borganimiz sari qo'ltiq-qirg'b'hoqdagi qamishlar ham bo'y cho'zib, rosmana qamishzorga aylanib borardilar.

- Vuy, uni qarang, amayu, qamishlar nima chiqarub, tugb'blar bogb'blabdular?! - Yodgor ovozi do'rillab, rasta bo'la boshlagan bo'lsa-da, bolaligi qolmay, o'sha yoqqa chopdi.

Chindan ham u po'panaklar - tepasiga tugb'blar bogb'blar naysalarga o'xshab, bodrib ketgan edilar.

- Uzaman deb yaqin borib yurma, ehtiyot bo'l, - deb tergagan bo'ldim. Lekin qani u qaytsa.

- Bitta olay? Teppaga otamiz, rosa uchadu, - dedi u yalinib.

- Mayli, ol. Lekin ehtiyot bo'l, ilonlari bo'ladi qamishzorning.

- Qirg'b'hoqda turib olaman, ehtiyot bo'laman.

U ketdi, men esam, tol tagidagi chimzorga tushib, (jonivor, mol tegmaganidan ko'rpa bo'lib ketibdi!) asta yonboshladim. Chindan sukunat bolalaydigan joylar edi. Hatto shunday katta suv ham shu yerga kelganda - qayrilish bo'lgani uchunmi, to'xtab qolgandek, qilt etmas edi.

Ammo hov narigi tik o'pirilgan qirg'b'hoqda in qurgan ko'k kaptarlaru yana allaqanday qushlar gb'bur-gb'burabmi, o'z tillarida chuldirab yotishibdi. Pastidan esa gb'ba-gb'boqlagan, parillaganu patillagan tovushlar eshitilib qoladi. Suv o'rtasida baliq sakrab, baliqchi qush chiv-chivlaganicha uchib o'tdi. Keyin o'sha qirg'b'hoq tomon boshini tik ko'targancha ilonmi, bolachasimi suzib keta boshlab, teppadagi qaysi bir chakalakda bulbul sayrab yubordi. Chindan ham taglaridan katta suvlar aylanib o'tguvchi jannat bogb'blaridan qaeri kam?

Ammo bu joylar qachon kimga buyuribdi? Ilgari shu yurt uchun, uning mustaqilligi uchun bosh tikib chiqqan yigitlarni qirgan,

vatandan quvib chiqargan allaqanday generallari polkovniklar huzurini ko'rib, davru davron surgani joy qilmab edilarmi, endi Olim akamga buyuradi ekanmi? U ham shular uchun yurtma-yurt kezmaganda, allaqancha xizmatlar qilib, xorij moshinlarini minib qaytmaganida bu joyni qo'lga kirita olarmidi? Qolaversa, osongina berib qo'yisharmidi? Xizmati borki, indasha olmagan, tillarini tishlab qolavurishgan. Ana endi bu esa, saruq-suruq xotiniyu bolalaridan qutulib olib, kim bilan davron surmoqchi?! Uyalmagani buning?! Yana kishibilmas hovli to'ylari o'tkazib yuribdi. Butun xolalaru togv Balarimni bosh-oyoq sarupo-surupolar bilan siylab, ogv Bzilarini moylab, qaysi niyatiga erishmoqchi? Kishi ko'ziga so'qqabosh yetim, xokisorgina bir insondir. Lekin asli kim?.. Hech kimga el bo'lmas o'sha sho'rtumshuq bugun kim bo'lganini, qo'li qaergacha yetishini ko'rsatmoqchimi?! Mayli, ko'rsatsin, lekin bunday emas-da! Nomardlik hisobigamas-da!

Belingda kuching, qo'lingda quvvating borida qay yurtlarni kezib yurib eding?! Endi sochingga oq oralab, belingdan mador ketganida qavming kerak bo'lib qoldimi? Ularga oqibat ko'rsatib, ehsonlar qilib, duolarini olging kelib qoldimi?.. Men uni yurt sogv Binchida kelgan, otasining vasiyatlariga ko'ra bir boshpana, bir vatan tikib, chiroqlarini yoqib o'tirgani kelibdi, deb yuribman. Har xil begona yurt, begona ko'chalarda tentiray-tentiray axiyri ko'zi ochilibdi, o'zinikilarni, o'z urf-odati, dini-diyonatini sogv Binib, fitrati ochilib qaytibdi, deb yuribman. Bu esa, mana, nima niyatda ekan! Sultonmurod akam B o'z akasi umrbod bu diyorlarga qadam bosolmasligini, bossa nima bo'lishini biladi-da! Qolaversa, qaytib ko'rsaki, oyday juvon yolgv Biz yodgori bilan toq o'tyapti. Mashinani sotiboq shu joylarga harakat qilgan ekan-da?!

Menga alam qilardi: men bilan shuncha yurib, Sutchi amakinikiga qatnab, miq etmagan inson, shu o'y-rejalarni tuzib yurgan ekanmi?! Quvligini, tilyogv Blama ekanini bilardim. Lekin bunchalik ichdan pishgan quv ekanini bilmas ekanman! Bilib turib ogv Biz ochmagan. Ochsa, chaqib olishim mumkin edi-da. Aytardim ham! Siz Sultonmurod akamga ilgaritdan xasad qilib kelgansiz. Hozirgi achinishlaringiz bir pul! Shunchaki til uchida, xolos. Aslida uningdek bo'lolmaganingizdan haligacha ich-ichingizdan kuyasiz! Kuyganingizdan ichlaringizgacha qorayib ketgan. Qo'yib bersa, uni otgani o'qingiz yo'q! Siz bu ahvolingizda otangizning vasiyatlarini ham ikki dunyoda ado etolmaysiz. Negaki ertaga Sultonmurod akam qaytib kelsa, qaerga qochishni ham bilmay qo'lasiz!

Axir inson, bir qorindan talashib tushgan kishi o'z birodariga shundoq xiyonat etuvi, uning nikohidagi ayolni o'z xasmiga aylantirmogv Bi mumkinmi? Uyat, andesha qaerda qoldiki, osmon nikohini kimlarning qo'li bilan buzmoqchisiz? Ko'rib qo'ying, mana, siz - kimsiz!..

Narigi qirgv Boqdan birov chaqirardi:

- Hoy, falonchi... chiqa qolunglaruv...

Ammo ovoz kelayotgan qirgv Boqda hech zogv B ko'rinmas, tik jardagi ko'kkaptarlar esa, inlari yonida uchib-qo'nib, bozor qilishar edi.

Beixtiyor tepamga qarab, soylik boshidagi ishkom adogv Bida kennoyimni ko'rib, hozirgi xayollarimdan o'zim uyalib ketdim. U qargv Bshoyi atlas ko'ylagining barlari hilpiragancha, bir qo'li ila boshidagi ro'molini tutib, bizni chaqirib turar, bel nimchasiyu ro'moliyu ko'ylagiga qadar (nega shunaqa o'xshatdim, o'zim bi-lolmayman!) azador juvonlarnikidek qora ko'rinar edi.

Qamishnayza po'panaklar ham qolib ketdi. Yodgor aytganidek, osmonga ham otib ko'rmadik, narigi qirgv Boqqa kim osharga ham uloqtirmadik. Tort-tort, yur-yur bilan bir-birimizni qistab tepaga chiqib borsak, haqiqatan ham qorindoshlar ketish harakatiga tushib qolishibdi.

Men Olim akam bilan o'lganimni kunidan, tishimni oqini ko'rsatib xayrlashar ekanman, u mening nega bunchalik tund ekanimni payqay qolmas, zo'r berib, vaqt topib yetib kelganimdan xursandligini aytib charchamas edi.

- Shunaqa kelib tur. Uzulishib ketmayluk. Ijod uyidan qaeri kam?! Bir chekkasi sizlarni deb olganman. Ilgarigi joylarimizni qo'msab qolsangiz kelasizlar deganman. Kelasan-a, uzoqib ketmaysan-a? - derdi.

Nima bu, tilyogv Blamalikmi? Yo men bahona kenno-yimga mulozamatlarimi, tushuna olmasdim.

- Xolamlarni esa, olib qolyapman. Bir kechadan yotib ketishsin, arvoch xotira. Faqat, xafa bo'lmaysan...

"Shunaqami, oyi? Siz ham shu to'qigan to'rga ilinib bo'ldingizmi? degandek qaradim.

Oyim meni bir qarashdayoq tushunar edilar. Hozir ham tushundilaru bir chetga chaqirdilar. Ovozlarini pastlatib:

- Ha, namuncha? - dedilar, - Halitdan to'mta-yib opsan?! O'zingni bos, kattalar bir nima deganda ji-im turiladi.

- O'sha kattalar nima qilishyapti? O'zlari jannat-jannat deyishadiyu, birovni qaerga otishmoq- chi? - deb yubordim. - Bir kun akam eshigimizdan kirib kelsa, nima degan odam bo'lasizlar?

- Kelsin, ilohim, - dedilar oyim mening o'timga suv sepib, - qo'shgani bilan o'zi qo'sha qarisin. Lekin sen gapning oxirini eshitmay nega qizishasan? Hali Nusrat pochcha diniy idoraga borsinlar, ulamolardan fatvo so'rab ko'rsinlar... Xudo roziligisiz bu ishga kim bosh qo'sharkan?!

- Har qanday fatvo ham Xudo roziligi bo'laveribdimi? - dedim to'rsayib.

Oyim menga yomon qaradilar.

- Bolam, - dedilar lablari uchib ham allaqanday gezarib. - Sen shariatga til tekkizma. Yoshlik qilasan hali. Biz o'sha bilan tirikmiz, o'sha bilan Xudoning oldiga bormoqchimiz.

Men inday olmay bosh egdim.

Qolaversa, hamma-hamma bilan, kennoyim rozi bo'larmidi shu ishga?..

Fatvo yoxud kimki najot halqasini tutibdi

Yozarlar xonasida edim.

Tirsagimni silagancha ichimdan quyilib kelayotganlarni Gulsum opoyga peshma-pesh aytib-yozdirayotgan edim. Opoy ham "avtomat! Mashinkaga qarabam qo'ymay shatillatib yozib yotar, o'ntala bormogv Bi-la kerakli tugmachalarni qanday topyapti, aql bovar qilmas edi. Ana mahoratu ana ko'zning pishib ketishi. Qolaversa, ilhom kelsa, shu ekan. Men ham tilim burro tortib, u kishidan o'zsam-o'zardimki, orqada qolmasdim.

Kimdir kirdi:

- Hov, tezotar mirzo! Insof ham kerak-da odamga! Bir inson qanchadan beri kutyapti-ya!

- Kim? - dedim yoqinqiramay.

- Kim bo'lardi, kelgan odam-da.

O'ldi maqola ham! Ilhom-ku uchib ketgan, kallada hech vaqo qolmagan edi!

- Kutmay ketsin, shunaqa paytda keladimi?! - dedim to'ngv B illab va istamaygina yigv Bishtirina boshladim.

- Ibi sizni! Kutsa - kutsin idi. Zur chiqayatuvi. Esiz, - dedi opoy achinib. - Ulashni ayting indi.

- Bularga nima! Bularga navbat kerak, - dedim o'sha-o'sha to'ngb'illab.

- Navbat nimasi, qarang avval, kutaverib eziliblar ketdi-ku, - dedi hamxonam o'zini oqlab.

Chiqsam, chindan ham kutyapti ekan. Yana kim deng, Olim akam! Toqati toq bo'lib ketganidan zinaga chiqvolib bosib-bosib chekyaptikan, ko'rib qo'lidagini itqita, men tomon yurdi.

- Ol-a, o'shaqdamiding, mirzo. Seni ham tutar kun borakan-ku! Shunaqa qistalang yerda ishlaysanmi? Bunday xotirjamroq joy quriganmi?

- Gazetachilik, aka! Mirzolarga qachon oson bo'lgan?! - deb men ham tegishdim. (Uni qanchadan beri yanib yurishimni ham, o'shandan beri ko'rarga ko'zim, otarga o'qim yo'qligini ham unutgan edim. Birov seni izlab keladiyu gina-kuduratlarining qoladimi!) Borib qo'lini olmoqchi edim, u quchogb'ini ochib, bagb'riga bosgancha (qaerdaligini ham unutib!) "piypalay ketdi: ming yil ko'rishmagan odamdek hali bagb'riga tortib, belimdan ko'tarib-ko'tarib qo'yadi, hali o'pib, yalab-yulqaydi!

Halitdan qay go'rda jindek otib ola qolibdi, hidi gurkirab kelib turibdi. Nima voqea bo'la qolibdiki, yana bunaqa narsalarni ogb'izga olibdi? "Yetar, shuncha gunohga botganlarim. Endi halqumimdan faqat halol narsa o'tadi! deb katta ketgan edi-ku. Nechuk!

Xonaga boshlasam - ichgan, noqulay, boshlamasam, mehmon degan nomi bor. Hardamxayollanib:

- Keling, qay shamollar uchirib?.. Hari sindirib yuborsa kam-ku, - dedim.

- Qo'y, ketdik-ketdik. Ilojini qilsang, biron soatga javob ol. Gadoytopmas biron yerga borib, bir otamlashmasam, yorilib ketaman, Xudo haqqi. Bo'ptimi? Men pastda turaman, xo'p?

Maqola-maqolada qoldi, ish ishda. Mudirimdan javob so'rab chiqib edim, Olim akam bitta mashina to'xtatib turibdi.

- Qayoqqa? - dedim hayron qolib.

- Qayoqqa bo'lardi, aytdim-ku, biron bahavoroq joy topmasang yorilib ketay depman. Xo'sh, qayoqqa boramiz? Keyin o'zim opkelib qo'yaman, qo'rqma. Chin so'zim.

Ola, toza odamiga uchrabman-ku. Dardi bir olam-ku buning. Og'b'izidan so'z emas, dud chiqyapti. Yana nima voqea ro'y bera qolibdi?

- Mashinani nima keragi bor? Anavi yerda xilvatdan-xilvat "Ko'k gumbaz began joy bor. G'ir-gb'ir shabadasi bilan. Piyoda-yayov o'ta qolamiz, - dedim.

Ko'nmadi:

- To'xtatdikmi, tashlab o'tadi. Sazasi o'lmasin buning ham, o'tir.

Sezdim: shoferdan ham burun uning sazasi o'lmasligi kerak. Bo'lmasa, jindek otgan odam - xafa bo'lib qolishi tayin.

O'tirdik, gb'ir etib aylantirib o'tib, tashlab ketdi. Sharbatli suv chaqirib, bir chekkaga qo'ndik. Haqiqatda gb'ir-gb'ir shabada esib turar, allaqaerdan kabob hidi anqib-anqib kelar edi. Choyxona tomondan shekilli.

- Ovqatlanib ola qol, tushlik ham qilasan-ku, baribir, - deb to'rttadan kabob, osh chaqirdi.

- Mezbon kim o'zi? - dedim men ginam qo'zib.

U tizzamga urib, o'tkazib qo'ydi:

- Sen bizdek bo'lguncha hali ko'p qovun pishigb'ni bor. Izzatingda tur, mirzo degan noming bor.

U desam, bu deydi, bu desam u, ko'nmadi ishqilib.

Jim ovqatlana boshladik. Aftidan ko'rinib turibdi: nimadir ro'y bergan. O'sha narsa ichida gb'halayon qilib yotibdi-yu, o'zini bosyapti. Shunda yuzi bo'rtib, quloqlarigacha qizil tortib ketadiyu, gap ochaqolmaydi. Yo o'sha gapni menga aytolmayapti, yo mavrid kutyapti.

Axiyri:

- Bo'ldi, - dedi oldidagi sixlaru talinkalarni nari surib, - O'zi yaxshi joy ekan-u, lekin kabobni qotirmabdi. Men o'rgamchikka bundan yaxshi pishiraman.

- Go'sht jonivor yaxshi bo'lsa, yap-yangi bo'lsa - mahorat keragamas, - deb qo'ydim uning ko'ngli uchun. Lekin kabobning tuz-namagiyu tami joyida edi. Olim akamning uni nishxo'rdga chiqarishi boshqa narsadan edi, chogb'ni. U axir men bilan kabob yeb otamlashgani kelibdimi! Havo yetmay pishillashiyo mishillashidan, yuragi siqilib ketayotgani aniq.

- Nima bo'ldi? - dedim ko'k choydan unga ham, o'zimga ham quyib.

O'sha nimanidir ichiga sigb'ndirolmay ko'kragini stol-ga berib, uni ikki chekkasidan tutgancha rosmama mast odamdek o'tirgan Olim akam qaddini rostlab, birdan o'zini orqaga tashladi va aftimga aftodahol ham alamli tikildi:

- Yo'q, mirzo, avval sen ayt! Senam meni shunday pastkash odam deb hisoblaysanmi? Shu niyatda qaytib kelibmidim men? O'sha joylarni shu niyatda olib, shu niyatda quribmanmi? Men bir marta adashib, nomim qora bo'lgan odam - qoraligimcha qolarkanman-da? Yo'q. Men bu niyatda kelmagandim, mirzo?! Meni kim deb o'ylashibdi u togb'halaring? Men ham bir odamdek, solih bir farzanddek otamning chirogb'ini yoqib o'tirgani, jigarlarimning boshini qovushtirgani kelsam, ular nima deb o'ylashibdi? Kim deb o'ylashibdi?! Men muruvvat boshpana izlab kelibmanmi? Kindik qonim to'kilgan yerni sogb'binib, uni vatan tutib o'tirgani kelsam, kim deb, nima deb tushunishibdi! Sigb'nsam hamma yerga ham sigb'ib ketaverardim. Lekin odam o'zinikilar ichidagina, kindik qoni tomgan, ota-bobolari o'tgan yerdagina bir halovat topib o'tirmogb'ni mumkin-ku! Men o'z urf-odatlarimizni sogb'binib kelgan edim. Otam topingan narsaga men ham topinsam, ular qibla tutgan joyini men ham qibla tutsam degandim. Togb'halaring to'gb'ni tushunishmabdi, mirzo. Men ulardan unday oqibat kutib kelmaganman. Mendan bir ogb'iz so'ramay-netmay, nima ishlarni boshlab yurishibdi?!

Kutilmaganda stol ustiga uning mushtimi, nima kelib tushib, piyolalaru talinkalar sakrab ketdilar. Men bittasini zo'rgb'na ilib olib qoldim, naq polga tushib chil-chil bo'lar edi. Ammo u buni sezib-sezmadi ham. O'sha qizishgancha davom eta ketdi:

- O'zing o'yla, mirzo, endi men kim degan odam bo'ldim, eshitgan quloqqa?! Qolaversa, ular, u jabrdiydalar nima deb o'ylashyapti ekan? O'zlarining ko'rgiliklari, shu kungacha ko'rganlari kam ekanmi? Endi bu isnod ham bor ekanmi ularga, menga? Nimaga eshitib ham indamading sen? Sendan lozim emasmidi, qaytarib tashlash? Kim aytadi seni o'qigan, oq-qorani tushungan deb?! Akam oldida bir marta yuzim shuvut bo'lgani yetmaskanmi? Yana yuziqoralik uchun kelibmanmi men? Shunaqa, uka, pichoqni avval o'ziga urib ko'rish kerak-da, ogb'rimasa, boshqaga urish kerak. Har narsaga aqllari yetgan togb'hamiz shunga kelganda oqsabdimi? Tavba! Xolam-chi, oyinglar-chi, indamadilarmi? Har narsadan adolatni ustun qo'yadigan oying gb'biq etmaganlariga hayronman. Yetimning boshini shunaqqib silarkanlarmi? Birovlarni isnodga qoldirish evaziga-ya?! Men ham odamman-ku. Menda ham hamiyat, degan narsa bordir. Uyat, or-nomusni yigb'bishtirib tashlamagandirman juda. So'qqabosh qaytgan bo'lsam, menga

ham Xudoning yozgani bordir, atagani bordir! Til bormaydi hatto aytishga! Men qayniman-ku, axir! O'rtada akam turibdi-ku, axir. Men kimga deb olibman bu hovli-joylarni! Kimga deb quribman - agar akam qaytib kelmaydigan bo'lsa?! Otam-chi? Akang bilan topish, deb vasiyat qilgan otam go'rlarida tikka turmaydilar shundan keyin?! Qiyomatda, o'sha tongla Mahsharda men u kishining yuzlariga qay ko'z bilan qarayman? Nima deb ro'baro' bo'laman?! Shuni o'ylashadimi bular?

Rostini aytsam, men hech kutmagandim. Har narsani kutsam-kutgandirman, lekin Olim akam shunday gaplar bilan keladi deb, hech o'ylamagandim. Xayolimning bir chekkasidan o'tib ham qo'ymagandi bu. O'zimning anavi kungi alam-achchiqlarim, yonib - damim ichimda ketganlarim esimga tushib, o'zim uyaliblar ketdim. Men uni bu ishdan xabardor deb ne xayollarga borib edim! Uni esa, yetti uxlab tushiga ham kirmagan ekan! Qarab turib, suyib ketdim. O'tirgan yerimda egilib, yelkalari aralash boshidan quchib oldimu qo'yib yubormay, quloq yumshogʻi ostilarini, bo'ynilarini iskab-iskalana ketdim:

- Olim aka, akajon! - deyman-u, u yogʻi ni aytolmayapman. Bo'gʻi nimaga kelib turib qolgan qaynoq yigʻi ni, nima aytishga qo'ymayapti. Ovozim ham goh ichimga tushib ketib, goh vulqondek otilib chiqadiyu hech tushuntira olmayman. Faqat qaytarib qo'ymayapman:

- Bor ekansiz-ku, Olim aka! Faqat biz gumrohlarni kechirsangiz, bas! Siz haqingizda boshqa xayollarga borib yurganlarni... kechirolsangiz kechirib qo'y-ing, - deb qattiqroq tarmashaman, bosh-ko'zlaridan o'paman.

Bizni ko'rganlar nima deb o'ylayapti, degan andishaga-da borib qo'ymasdim.

- Faqat menga ishonsangiz, bir gapni aytay, - dedim axiyri.

- Nima deysan? - dedi qaddini ko'tarib. Men qo'llarimni tortib, joyimga cho'kdim. Lekin chin gapim: qaytib quchib olgim, hech kimdan uyalmay yuzlaridan o'pib-o'pib olgim bor, yuragimda borini to'kib solgim bor. "Siz Sultonmurod akamning chin ukasib" tugʻib shigani ekansiz. Endi bildim degim kelyaptiyu, aytolmayapman. Aytishga yigitlik gʻururimmi, nimadir qo'ymayapti. Yo'q, qo'ymayaptimas, bu gaplar o'zi shundoq ham ayon, tushunarli-ku. Yaxshisi, ko'zlaringdan, yuzlaringdan uqib olaversin, deyapti kallamning ich-ichida o'tirib olgan bir mitta chol. Bilaman, u men o'zim. Aytolmaydigan gaplarimni u goho ana shunday o'zimga shipshib turadi. Hozir ham ko'nglimdagini aytolmadim. Buning o'rninga ham:

- Siz ko'pam qaygʻurung, - dedim sekin.

- Nega? - dedi u hayron qolib.

- Avvalo, unchalik uyalishga o'rin yo'q. Bu gaplardan kennoyim bexabarlar. Qolaversa...

- Nima, qolaversa? - dedi u bilagimni sindirib yuborgudek changallab.

Men uning kiftlarini silab tinchlantirishga urindim:

- Qolaversa, pochcha ulamolardan fatvo bo'lmaguncha kim bu ishga bosh qo'shadi, deganmishlar.

- Ola, hali shungacha borishibdimi? - dedi u yuziyu feli o'zgarib.

O'rtaga shunaqa sukunat cho'kib, u miq etmay qoldiki, men uning bunday o'tiruvidan qo'rqiqlar ketdim. Yo'q, u o'zida bir kuch topib, boshini sekin ko'tardi. Aftimga qattiq tikilib:

- Nima deyishibdi... o'sha shariat peshvolari?... dedi achchiq ustida.

- Bilmasam, - dedim mening ham ko'nglimga bir sovuq gʻulugʻula oralab. - O'shandan beri u kishini ko'rganimcha yo'q.

- Tur, ketdik, - dedi u dabdurustdan qo'z gʻulugʻula boshlab. - Ketdik-ketdik, shu bugunoq bir yoqli qilib kelamiz. Kim ko'tarsa, ko'tarsin bu isnodni, men ko'taraolmayman!..

U yo'lakay oshxona xizmatchisiga haqini tutqazib, zinadan tushaverdi. Keyin katta yo'l yoqasiga chiqib, mashina tutmoqqa boshladi. Bormay ko'r-chi, noiloj ergashdim. O'lganni keti shahid, deganlari shu bo'lsa kerak! Yetib borgunimizcha ham miq etmasa-ya. Naq yuraklarim yorilayozdi. Shariatda sharm bormi, yo'l bersa, nima bo'ladi, deb yuragim po'killagandan-po'killardi. Borsak, pochcha hovlidagi kaftdek yogʻib och so'richalarida ko'zoynak tutib, kitob ko'rib o'tirgan ekanlar. Biz xolavachchalarni ko'rib, boshlari ko'kka yetganicha, inqillab o'rnilaridan tura boshladilar-da, keyin qaddilarini rostlab:

- Oh-oh, Olim, o'zgingangmisan? Xudo seni yetkazganini qara! Qani, chin vallomat so'zingni ayt! O'ynab bersanmi, yo suyunchini kattasini olib kelasanmi? Men fatvo toptirib qo'ydim, - desalar bormi, Olim akam demaganlar darvozaxonadan o'tolmayoq taxta bo'lib qoldi. U na pochchaga qarab yura olar, na bir ogʻib bir narsa deya olar edi: yuzi quv oqarib ketibdi! Ko'rib, o'zim ham qo'rqiqlar ketdim.

- Chindan shariat, - derdim-u, u yogʻi ni aytolmasdim.

- Ha, dovqur? Seni kim aytadi, eshon pochchamning kenjalari deb? Shuni ham bilmasanmi o'zing?

Xo'b pochchamiz borlar-da. Birov ne ahvoldayu u kishi qiqir-qiqir kuladilar. Bosh chayqab-chayqab, tir-qirab chiqqan ko'zyoshlarini arta-arta, qayta boshdan kuladilar.

Axiyri:

- Hay, jiyani-a, jiyani, men bo'laman-ku, seni o'tga otib, olovida isinamanmi? Sen so'rasang-chi avval fatvoni. Uni qay go'rdan topganimni! Muftiy janoblaridan so'rab keldim-ku, axir. Oddiy ulamodan olsam, qo'rqsang yarashardi. Eshit, u qulogʻing bilan ham, bu qulogʻing bilan ham, - dedilar u kishi dona-dona qilib, - agar kishi hijrat qilib ketib, orqasida ahli ayoli qolgan bo'lsa, nikohidagi erini... necha yil deymi, to'qson yil kutsa joiz ekan. Demak, osmon nikohini hech kim buzolmagay. Muftiy taqdir aytilarki, kim bul fatvoni tutibdi, najot halqasini tutibdi, Alloh rozi bo'lsin, dedilar. Ey sen, kichkina Mahmudxo'ja, borib kennoyngdan suyunchini olaver. Ularning Sultonmurod jiyanimiz bilan nikohlari hali-veri buzilmagay, - dedilar. Shunda olam bir yorishib, charogʻibon bo'lib ketganini sezdim-u, lekin u nimadan edi, bilolmaganimcha qoldim. Olim akam esa, ko'zda yosh ila pochcha tomon quchoq ochib borardi.

Tutqin

Ishdan qaytsam, oyim ayvonda qarshi oldilar. (U kishining oyoqlari ogʻibriydi. Bir vaqtlar lat yegan joyi endi bilinyapti. Hovliga tushishdan ko'ra, ayvonga emaklab chiqib, o'tirib oladilar-da, o'sha tizzalaridan pastini silaganicha uzun xayolga beriladilar. Biz uzun xayol deb o'ylasak, u zikr ekan. Endi tushunyapmiz).

Men salom berdim. U kishi alik olib, hol so'ragan bo'ldilar:

- Yaxshi keldingmi, bolam. - Shu asnoda oyoqlarini silashdan ham to'xtadilar, sezdim ogʻibriyotganini menga bildirgilari yo'q.

- Rahmat, - dedim botinkam ipini yecha boshlab, "nima, anavi kungi moy qoldirmadimi ogʻibriqni, deb so'rashga iymani b turgan joyimda... oyim qaytarib so'radilar.

- Mashinalar ko'payib qolganmi, yo haliyam o'sha-o'sha - ikki soatda bir keladimi?

- Nima edi, oyi? - deb bosh ko'tarib yuzlariga qarasan, menga achinib, tikilib turibdilar. Onab" ona-da. G'alati bo'lib ketdim.

Tezdan holatimni o'ng-lashga shoshildim. - Ey oyijon-a, har kuni boravergandan keyin odamga o'rganish bo'lib ketadi, bilinmaydi.

- Shunaqa-ku, yaqinroqdan biron ish topsang bo'larmidi?

Hayron qoldim.

- Nega, oyi?

- Rizqni beradigan - Xudoyim. O'zingni o'tga-cho'qqa uravermasang ham qozonimiz qaynamay qolmas. Qiynalib ketding.

- Men-a? - men u kishining nima demoqchi ekanliklariga hamon tushuna olmasdim. - U yerga odamlar yetolmaydi-ku, oyi, - dedim nihoyat. O'zim ayvon ostonasiga o'tirgancha qolgan edim.

- Endi aytaman-da, - dedilar u kishi ko'zlarini tushirib va yana oyoqlarini bir qur silab qo'yib.- Bizam gʻʻanimat. Kunduzlari ko'rgim keladi, sen esa, - u kishining ko'zlari namlanib, bir gʻʻalati yiltiradi, - bugungicini aytmasa, qosh qorayar ham daraging bo'lmas, vaqt ikki xuftonga yetar ham jujur mashinang tashlab keta qolmas. Eshikka tikilgan odamga qiyin-da, bolam.

Tushundimu gʻʻalati bo'lib ketdim. Ilgarigi gallardagidek "otdeksiz, oyi, Nikolayning yogʻʻini yeganlar bilan paxta yogʻʻi yeganlar baravarmi deb hazilga olib keta olmadim. Ichim uvishib qolganini ko'rib... oyimning o'zlari gapni boshqa mavzuga burib yubora qoldilar.

- Ha, aytmoqchi, akangning anuv shaharlik o'rtogʻʻi keluvdi. Tutingan oshnasi-chi, o'sha.

- Chaman akami?

- Ha, bularning o'sha suyangan togʻʻi.

Tushundim, ammo ichim battar hapriqib borar edi:

- Tinchlikmi, nima deydi?

- Bular yo'q edi, tikuvchilikiga ketishib edi,- dedilar oyim qo'rqma, degan kabi. - Birpas Yodgor bilan o'tirdi. Keyin ketdi.

- Hech narsadan hech narsa yo'gʻʻ-a?

- Nega, to'yga aytib kepti seni. Boringlar, dedi.

- To'y? Qanaqa to'y? - Men hech narsaga tushuna olmasdim.

- Qanaqa to'y bo'lardi, o'zi uylanayotganmish, - nimasiga tushunmading deganday qaradilar oyim.

Mening ko'z o'ngimdan esa, o'sha kovshandozi mo'jaz xonadagi oq ruh karavotda o'tirib qolgan oq-oppoq kampir ketmasdi: nihoyat orzusiga yetibdi-da u kishi? Unatibdi-da? Yana boshqa narsayam ko'z oldimga aylanib-aylanib kelaverar edi: o'sha Yodgor bilan chiqqanimiz - boloxonadagi ular turgan joy, uning derazasi, derazasidan ko'ringan ishkmlar, Kalkovuz suvi, uning bo'yidagi qator tollar, qolaversa, o'girilgach devorda ko'rganim - gʻʻaroyib surat - bir qarasang kennoyim, bir qarasang akam va yana bir qarasang u - Chaman akam bo'lib ko'ringuvchi narsa yodimga tushib ketgan edi.

- Picha bo'lsa ham kut...madimi?

- Kimni? - Oyim tushunmadilar.

Mening esa, nomini aytishga tilim aylanmas, ne xayollarga borib gunohga botayotganimni o'ylar, o'ylagan sarim yuzimu quloqlarim osti yonib borar edi.

- O'sha, necha yil panohida asrab kelgan kishisibʻʻ kennoyimlarni-da? Ularni ham aytgani kelibdimi, axir?

- Ha-a, - dedilar oyim endi tushinib, - aytdi, "bular ham borishsin. Oyim boshlari ko'kka yetadi, dedi. "O'zlari bilgan joy, dedi.

Mening ko'nglim xuddi chanqogʻʻi qongan odamnikidek xotirjam tortib qolgan edi-yu, o'zim boyagi xayollarimdan endi ich-ichimdan uyalib bormoqda edim.

- Yodgorni-chi, olib borarmikanmiz? - dedim bosh-qa gap topolmay. Men atrofga alanglab, uni izlardim, lekin hech yerda ko'rina qolmasdi.

- Voy, hamma qolib, uni obormay bo'larkanmi? Ichikib bir yerga yetgan ekan, ko'rib naq yopishib oldi-ku. Keyin senga bir nimalar yozib tashlab ketdi. Nima desam, Yodgoring taklufnoma, shunaqasi rasm bo'libtu, deydi. Mana. - U kishi omonatni nimchalarining yon cho'ntakchasidan olib uzatdilar.

Rosmana taklifnoma, orqasida chumoli izidanam mayda bitik-xat. O'qishga tutindim.

"Maqsud, ukajon. Biz ham ozod qush edik! Ota-ona orzusi bizni ham tutqun etdi! Na qilaylik, bor ekan taqdirida, deganlaridek... ko'ndik. To'rvaxalta bo'yiga tushdi, ukajon. Endi biz ham hamma qatori yashamakchimiz. Eplay bilamizmi-yo'qmi, uni yolgʻʻiz Biz Alloh bilgay.

Borgin, akangni ko'rgandek bo'laman, Chaman.

"Voh, shunday odam axir sinibdimi?! deb yubordimu o'z xayolimdan o'zim qo'rqib ketdim. Ketidan keladigani... chindan qo'rqquvlik edi: Axir nega sinmayotgan edi?!

Boshqa degani bormidi yo?

Kim edi u?..

Nimani kutar edi?

Yo biron qasam ichgan joyi bormidiki, uylanolmasa?

Qachon uylanmoqchi edi?

Akamni qaytarib olib kelibmi, tinchibmi?

Endi-chi, noiljlikdan, onasining - o'sha besh kunligi bormi-yo'q, oq-oppoq bo'lib o'tirgan onaizorning so'zini tashlay olmay uylanmoqdami?

Unda nega ichi yonib ketyapti? Dudi osmonga chiqib, nega ozod qush edik, tutqun bo'ldik, demoqda?

Kimni deb bo'ydoq o'tmoqda edi?

Bu savollarga qani edi biron javob topolsam...

To'y ham bir chiroyli o'tdi. Rasm-rusumi joyida bo'ldi. Qudalar ham rozi ketdi.

Biz hammamiz tushib bordik. Yodgordan kennoyimgacha. O'z xesh-aqrabolarimiznikidagidek "qamishdan bel bogʻʻlab xizmat qildik. Ayniqsa, oyimlar bilan opa-singildek topishib qolgan Oyto'ra buvining esi ketdi. Bir duo qildilar, bir duo qildilar. Duolari dargohida qabul bo'lgan bo'lsin. Shu bilan bu xonadonga xotirjamligu xalovat inib, Chaman akamning uzun-uzun ketishlari orqada qolib, tup qo'yib palak yozadigan payti kelgani rost bo'lsin. Alloh uning ko'ngliga bu kelgan izli-qutli kelinga muhabbat, yaqinlariga mehr solsin. Duo yaxshi narsa, hammamizning ko'nglimizni iylab-iyitib yanada yaqin qilib qo'ygan edi. Go'yo uzulmaydigan rishtalar bilan bogʻʻlab tashlagandek edi.

Hatto Chaman akam ham sipo tortib qolgan, uyatchan kuyovto'ralardek qizaribgina, tortinibgina qarab qo'yishini aytmasa, Oyto'ra buvining gaplariga so'z qo'sholmay yer chizib o'ltirar edi. U to'rvaxalta bo'yniga tushganidan xursand ekanini ham, xomush ekanini

ham bilib bo'lmas, men uni ichida jon-jon deb turganini tashiga chiqarolmayotgan kuyovlarga ham o'xshatolmasdim. U ko'proq to'rga tushib qolganini sezdirmaslikka urinayotgan kabi edi. Balki menga shunday tuyilgandir.

Harqalay, u biz bilan xayrlasharkan, kelganimizdan boshi ko'kka yetganini qayta-qayta aytib, qo'lini ko'ksidan uzmasa-da, yana nimadandir juda-juda xijolat edi. U go'yo endi ilgari suyangan tog' b'imiz - ishongan bog' b'imiz emasdi, endi uning o'z oilasi, tashvishlari bor edi, o'zidan ortib, bizga muruvvat qila olmas, panohiga ham ola bilmas, akam haqda undan xushxabarlar ham kuta olmasdik. Chunki endi u uzoq komandirovkalariga chiqqa olmas, akang haqda xabarlar bor, zora o'zini ko'rsam deb, zudlik bilan jo'nab keta olmas edi. Uning bo'yniga oila atalmish bo'yinturuq tushgan, Kalkovuz bo'yidagi shu hovliga ipsiz bog' b'langan edi. Chaman akamdek ozod qush bu to'rga qanday ilina qoldi, hech aqlim yetmasdi. Sababi - men sizga aytсам, anchaga dovur malum bo'lmay qoldi. Bu o'rtada yoz o'tdi, kuz ketdi, qish chiqay deganda shahardan xabar keldi. Oyo'tra buvi nevara ko'ribdilar.

"Muborak bo'lsinga oyim bilan kennoyim tushib chiqishdi.

Shundan ikki haftalar o'tgandimi, ishxonaga qo'ng' b'iroq bo'lib qoldi. Olsam - Chaman akam: boshi osmonda:

- O'zingmisan, pakana pari? Uka degan ham shunaqa bo'ladimi? Xabaram olay demaysan, tabriklay ham demaysan? E, barakalla!

- Muborak bo'lsin, o'g' b' ilchalar! - dedim xijolatlariga botib.

- Muborak ham gapmi, xari sindirish kerak! Akang qarag' b'ay shu kunni kutib o'lib bo'ldi, ko'kraklari teshilib ketdi-ku. Bu yog' b' i ozodlik, yana xurlik-ku, Maqsud. Eshityapsanmi?

Men esovsirab qolgan edim!

"Qiziq-ku! Shu kunni kutib yotgan ekanmi?! Kelinposhsha bilan (tavba, nega kelinposhsha bo'lsin! Kelinoyi-ku!) ahdnoma shunday ekanmi? Chindan u qanday rozi bo'libdi ekan? Buning yurishlariga, bedarak tentirab ketishlariga! Bekorga u qariqizni, "o'qiy-o'qiy shahar olib bera olmagan, onasiga shahar olib berolsa ham o'ziga baxtdan taxt yaratolmagan o'sha olimani xotinlikka olmagan ekan-da. Jindek shunga o'xshash gaplar qulog' b'imga chalingani bor edi. Go'yo "Bitta qo'chqordek o'g' b' il tug' b' il bersang, bas, oyimning armonlari ushalsin. Keyin o'shanga andarmon bo'lib o'tiraverasizlar qaynona-kelin... deganmish, tavba. Voh! Shunday bo'lsa, yana yaxshi-ku! Akamning chopari, kimlarning "suyangan tog' b'iyu ishongan bog' b' i o'lmagan ekan-ku! Istefoga chiqmagan ekan-ku soqchi farishta! Yuragiga balli-ey, bir yilga chidab o'tiribdi-ya! Endi tentirasa, qayoqqa borarkin? Akamni izlab qay diyorlarga o'tarkin? Qay sarhadlardan oshib, qay shaharlardan uni so'roqlarkin? Yo'qotgan izini qay saholardan izlarkin? Biron mujda topganmi yo tavakkalchini ishini Xudo o'nglar deb, o'tlanib qoldimi? Ruksat berishmasa, qayoqqa boradi?"

- Tushaymi, qaerdasiz? - dedim yutaqib.

- Tush-tush. Olib ketgani keldim-da seni. Ichlarim toshib ketdi-ku, pakana pari. Senga yorilmasam kimga yorilaman? Bo'l, yig' b' ishtir ish-pishingni. Bir kun sensiz ham chiqar o'sha hech kimga keraksiz gazeteng...

Ol-a, shu yerga kelganda oshirvordiku. Odamning hamiyatiga tegib ketadi ham demaydi-ya. Xuddi bir vaqtlardagi salti-svoy Charli chapanidek nimalar deyapti?! Shuncha odam ko'r bo'lib chiqargan gazetni nima demoqda? Rosti, gapi endi menga nasha qilmoqda, ichimda alammi, bir nima g' b' imirlashga tushgan edi. Chindan ham hech kimga keraksizmi? Kimning gapini gapiryapti? Hamma-hamma bilan, u shunday deb tursa-ya... Alamdanmi, nimadan tilim tanglayimga yopishib qolganek edi go'yo!..

- Ha, daming chiqmay qoldi, biron yumushing... - dedi u sal yumshab.

Men ham uni ayadim. Axir kimsan akamning qiyomatli oshnasi. Boshqa birov bo'lganida eshitadiganini eshitib olardi. Haqimni qo'ymasdim balki... Lekin bu akamning tug' b' ishganidan alo oshnasi. U keladi-ku, men chiqmaymanmi? Bir arzimas gapiga zarda qilib-a?! Ot tepkisini ot ko'taradi-da.

- Yo'q, chiqayapman, yumush-pumushi bormi! Hammasi sizdan aylansin, - dedim.

- Bu boshqa gap, pakana pari. O'zingga yetari yo'q. Bo'laqol, - deb shoshirdi.

Yo'lakay paltomni egninga ila-ila kubankamni qo'lga olganicha zinadan pastga oshiqdim.

O'pkamni qo'ltiqlab degandek tushib borsam, tushdan avvalgi yilt etgan eshak o'ldirar oftobda jindek erib, yana qatir-qutur yaxlamoqqa boshlagan yo'lkada Chaman akam betoqat borib-kelmoqda. U meni ko'rib chekib turgan sigaretini qorga itqitib, o'zi menga quchoq ochgudek yurdi.

- E, bormisan, Kattabog' b' ning guli! Oshnaginamning pakana pari ukaginas! So'rab kelmasam, o'zing boray ham demaysan?!

Oqibat shu bo'ldimi?

- UZR, uzr. Eshitibam o'tolmadim. Muborak bo'lsin, yangi mehmonlar? Oti nima bo'lda, polvonning oti? - dedim ginalarni unuttirishga urinib.

- O'g' b' ilchanimi? - dedi u quchog' b' idan qo'yib yubormay. Undan hozirgina chekkan sigaretining hidi gurkirab kelar, o'zi esa meni yalab-yulqashga tayyor edi.- Olma olmadan nari tushganmi, ammo men ixtimat qo'yib, oshnamning nomini berdim.

Adashiga o'xshab, botur bo'lsin, undanam uzoqqa borsin. U yetolmagan orzularga hech qursa bular yetsin deb, shunday qo'ydik. Qalay, senga yoqdimi?

- Sultonmurod debmi? - dedim hayratu shodligimni ichimga sig' b' dirolmay.

- Ha, to'lig' b' icha qo'ydim. Irim qilib emas, niyat qilib! - Keyin kutilmaganda qulog' b' imga engashib shipshidi, - Bilib qo'y! Har ish niyatga bog' b' liq. Payg' b' ambarimizdan shunday hadis bormish.

- Rahmat, unutmaganizga... - deyoldim ichim allatovur achishib kela boshlab.

- Unutish? - dedi u ikki yelkamdan changallab tutib turganicha, ko'zimdan ko'zini uzmay. - Qayoqdagi gapni gapiryapsan sen?!

Uni unutsam, Chaman otimni boshqa qo'yarman! Usiz men kimman? - dedi meni silkilab, keyin itarib yuboraturib, mahkam o'ziga tortdi-da, qo'shdi. - Qo'y bu gaplarni hozir: yaramga tuz sepma. Undan ko'ra ketdik. O'g' b' ilni yuvamiz biron yerda. Bir otamlashib, ezilishaylik.

Mening miyamga qachondir, kimdandir eshitganlarim urilib, bosh chayqadim:

- Otamlashsak otamlashaylig-u, lekin yuvmaylik. Chillasi chiqmagan bolaga yaxshimas. Yuk tushadi, deydilar oyim. Undan ko'ra, biron holiroq issiq joy topaylik, - dedim iymanihgina.

Chaman akam dabdurustdan yelkamga qo'lini tashlab, qoqdi:

- O'lma. Shunday kunda tanchadan zo'ri bormi? Yur, uyga ketdik. Bozillagan tanchada bir bitimiz to'kilsin.

- Bu boshqa gap. Sho'rvani solib qo'yib, ezilishganga nima yetsin. - dedim. Ichimda esa, nimadir g' b' urmishlagandan-

g' b' urmishlab nimani ilinib kelibdikan, deb turibman-u, so'ray olmayapman. Chaman akam bo'ladiyu behudadan-behudaga so'roqlab keladimi? Balki, avvalgi safarlarida topgan xatlaridan qolgani bo'lsa o'shani ham bermoqchidir?..

U ixcham, uzun qora charm palto kiygan, boshida ham charm kepka, hatto qo'lqopi yumshoq - toza charmdan edi. U shu turishida

qora mashinalarda yuradigan amaldor vazirlardan bir tuki kam emasdi. Men uni biron balandroq vazifaga tayinlashibdimi, xizmat mashinasi ham hozir kelib qolsa ehtimol, deb o'ylab qolgan edim.

Unday desam, bozillagan tancha haqidagi gapi qiziq... Yo qabulu majlislardan bezib, yorilarga mendek bir yaqin suhbatdosh istab qoldimikan?

Hukumatning qora mashinasi ham kelmadi, uning orqa o'rindigibiga ham o'tirmadik. Nechta binoyi taksilarni o'tkazib yuborib, kepkasining moyi chiqqan bir kirakashning mashinasini to'xtatdi-da, savdolashmay ham old o'rindiqqa cho'kdi. Keyin yarim o'girilib o'tirib olib, gap bera ketdi. Yo rosa ichi qizib, to'kilolmay yurgan ekan, yo meni topib olib, gap xaltasi ochilib ketgan edi. Faqat men bir narsaga hayronman: bir yil burun uylanib sipogina kuyovga aylangan Chaman aka qani? Go'yo u bir dumalab, yana avvalgi o'z holiga qaytib ulgurgan, bir gapirib o'n kular, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan sarguzashtu tesha tegmagan hangomalarni qalastirib, ichimni uzib borayotgan edi.

Yaxshiyam moy bosgan kepkasini bostirib olgan anuv sariqmoshak shofer bizning tilimizga tushunmaydi. Tushunsa, shu vaqtgacha qaybir ariqqa mashinani solvorgan bo'larmidi. Shunda ham har sharaqlagan kulgimizga xuddi bir narsa tushungandek iljayib qarab qo'ymoqda.

Kalkovuz ko'prigidan o'tib, suv yoqalab o'sha ostonasi tagiga o'n odam zo'rgbha ko'targudek katta xarsangtosh yotqizilgan eshikka yetganimizda akam shoferning tizzasiga ikkita qizil o'n so'mlik tashlab, yelkasiga qoqdi:

- Rahmat, sariq-suruq - o'zimizning urugbha uka. Topganing osh bo'lsin.

Sariqmoshak ham vallomat ekan:

- O'zlariga-da, rahmat, shef, - deya kishibilmas bitta o'n so'mlikni tushayotgan akamning cho'ntagiga qistirib yubordi. Nazari to'qligini ko'ring buni... deb o'yladimu... shu zahoti o'zimni omilarning omisi, har bitta kelgindidan fazilat izlaguchi go'llarning bittasi hisoblab - o'z-o'zimdanda ijirgbanib ketdim. Shunaqqib, o'zimizni past ola-ola kim bo'lib qolmoqdamiz?! Sultonmurod akamdek odam hech zamonda shunday hayratga tusharmidi?! Chaman akam u sariqmoshakka behuda ikkita o'n so'mlik tashlab tushdimi? Go'yo ma, shunga kelganmisan, xizmat haqingni ol-da, qorangni o'chir, demoqchimasmi? U ham anoyimas (jilla qursa, men ko'raman-ku vallomatligini!!) o'sha xorijsa ham qadrlanadigan o'n so'mlikning bittasini qaytarib, qistirib yubordi. Shunaqa "o'qsiz jang allazotmandan beri davom etayotganini mana hozir anglab-ko'rib turgandek edim men. Bular ham tashlaridan sezdirmasalar-da, ichlaridan bo'sh kelmasdilar. Erta-birisi kun kim gbholib keladi, buni yolgbhiz Alloh biladi.

Yani kim Allohga yaqin bo'lsa, o'sha yutadi. G'ururi, ori, nomusini, demakki, dini-diyonatini qaytarib oladi. Hozircha xufyona jang ketyapti. Rosti, bunday "nomaqul fikrlar mehmon bo'lib kelayotganidan bazan qo'rqib-qo'rqib ketsam, bazan akamga o'xshab borayotganimdan xursand bo'lib ketaman...

Tushdik. Kirib boryapmiz ishqomlari ko'milgan tok zanglari oppoq qor tagida qolib, yana ham kengayib ketgan hayhotdek hovli-bogbha ning yapasqi gbhisht yotqizilgan yo'lkasi bilan o'sha tepadagi uzun ham boloxonali uylar tomon. Biz bu yerdan o'zimiz uchun aziz odamlarni topganmiz bir vaqtlar. Ogbhbir kunda ular shu yerda jon saqlashgan. Yodgortoyimiz esa, shu yerda tugbhbilib, dunyo yuzini ko'rgan. Hov anavi shoxlari har tomonga salom berib egilib qolgan tollar ostidagi ko'hna hovuz bo'ylarida chopqillab yurib, katta bo'lgan. Kechalari esa, (hozir derzasiga bo'zmi - nima tutilgan) hov anavi boloxonali uyda yotib, tushlarida kimlarni ko'rgan. Shu bois ham bu hovli, bu uylar menga azizdan-aziz. Anavi chekkadagi bir uy, bir dahlizda Yodgorning o'rnigayam (men Yodgorman deb!) buvalarining yurtiga borib kelgan, ularga sovgbha-salomlari mujdalar olib kelgan Saritoyu uni asrab olgan onasi Asal opa turadi. Bunisiga bo'lsa, kelin tushgan. Yonginasida (hov o'sha boloxonaga chiqadigan yogbhoch zina yonida) bu xonadonning nuri iymoni bo'lib, Oyto'ra buvi o'tiribdilar. Hozir qaerga kiramiz ekan? Qaerga kirganimizda ham avval buvini ziyorat qilib qo'yish qarz ham farz. Duolarini olish lozimdan-lozim. Qolaversa, yangi mehmonli bo'lishgan. Muborakbod etib, ko'rmanasini u kishiga bermoq lozim. Urf shunday, irimi shunday. Amaqisiga o'xshab, mirzo yigit bo'lsin, bizaniyam tarixlarimizni yozsin, deb duo qilsalar, boshim ko'kka yetmaydimi?..

- Qarang, oyi, men kimni boshlab keldim. Oshnaginamning tugbhbishgandan alo xolavachchasi. Tanuqli mirzo... Anavi kungi mehmonlar shularnikidan kelishib edi-da. Endi bu kishining onalari bizga ham xola hisoblanadilar-da, shundaymi, oyijon?

- Voy, onayiz aylansin. Kim kelyapti desam, sizmidiz hali? Keling-keling, qadamlaringizga xasanot. Tutinganlarni tugbhbishgandan alo etgan Allohimdan o'rgilay, keling, - deb bir yerga yeta ketdilar.

Qo'llaridagi qariganda topgan nevaralari - yo'rgakdagi bolani yonginalariga yotqizib, o'tirgan joylarida men bilan ko'rishishga chogbhbilanarkanlar, bu ko'p qadim uylar yangi mehmon ko'rishib, avvalgidan ham charogbhbhon bo'lib ketgandek edi. Chindan kelinning qadami qutlugbhbhepti bu xonadonga. Hammayoq saranjom-sarishta, derazalardan oftobda yarqiragan qorning oppoq nurlari to'kilibmi, uy ichi charogbhbhon tortib ketgan. Ilgarigi zah-mogbhbhor hidlaram yo'q. Tokcha qoziqlaridagi oxorli sochiqlardanmi va yo beshik boshiga ilingan qalampirmunchoq shodasidanmi, tanish iforlari bo'ylar taralardi. Unga norasida bola isi, yangi kelin bo'ylari, Oyto'ra buvining shirin mulozamatlari qo'shilib, uy emas, jannatga kirib qolgandek bo'lmoqda edim. Boshim ham yengil-engil aylanib kelmoqda edi go'yo. Men bosh egib borib, oq ruh karavot yoniga tizzalaganicha Oyto'ra buvining momiq bagbhbhirlarida qoldim. Undan esa boyagi bo'ylardan ham azizroq bir bo'y - halim tortib qarigan taqvodor zotlardan keladigan bir tur ifor hidlar anqib, xuddi jannatdan tushgan deb ataluvchi anjir tagiga kelib qolgandek edim.

U kishi esa, momiqdan yumshoq kaftlari bilan boshimu kuraklarimni silab, shivirlar edilar:

- Eslab kepsiz, iloy, bizning nevaralarga ham sizning yo'lingizni bersin. Yurtda azizu mukarram qilsin O'zi, - ketidan qo'llarini ochib, duo qilib qo'yidilar, - Va sallalohu taolo ala xoyri xolqihi Muhammadin va ala alihi ashabihi ajmayin. Birohmatika ya arhamar rohimiyin.

Beixtiyor biz ham qo'l ochib duoga qo'shildig-u, ammo bu Paygbhhambarimiz shanlariga salovat ekanini, shusiz osmon eshiklari ochilmasligini hov talay yillardan keyin anglab yetdik. Ular bilgan narsalarni bilishimizga necha qovun pishigbhbhi bor bo'lsa-da, bu duolar bizga moydek yoqib tushmoqda edi.

Keyin Oyto'ra buvi boshlari ko'kka yetib, so'rasha ketdilar:

- Oyiz Salomxon omon-esonmilar, kelinposhsham qalaylar? Bir-biridan shirin jujuq qizlariz bormish - boy ekansiz, katta bo'lishyaptimi? O'gbhbhilchangiz yurib ketganmish, ilo-oy, Alloh baxtini bersin. Go'shangalarga kuyov bo'lsin.

Shu asno yo'rgakdagi chaqaloq guvrani, boshini dam u, dam bu tomonga burgancha iskalana boshlab edi, buvi uning tilidan ham gapirib qo'llariga oldilar-da, boshini tikka qildilar:

- Voy, amaqujon, assalomu alaykum, bu yoqda biz ham bormiz, go'shangalarga kuyov bo'ladigan. Xush kepsiz, adajonimizning azizlari. Chillamiz chiqib qoldi bizaniyam, odam taniydigan bo'p qolamiz hademay.

Men iyib ketib, o'rnimdan tura boshladimu qo'yin cho'ntagimdan beshta qizil o'n so'mlik olib, akamning mitti adashi bo'lmish

bolakay yo'rgagining ipak bog'ibichiga qistirdim.

- Vaalaykum, vaalaykum. Katta yigit bo'lsinlar. Otlariga yarasha ishlar qilib, hammaning duosini olib yursinlar. Biz yetolmagan joylarga yetsinlar, - dedimu o'zim nimagadir to'liqib kelib, ko'zlarim namlandi.

Bu yoqda ahli ayoli, o'g'ib'li qolib, o'zi qaytar yo'lini topolmagan akam yodimga tushib ketgan edi. Va negadir Chaman akam shu o'g'ib'lining otini bunday qo'ymay tursa bo'larmidi... shu bilan qaytar yo'li tamom berkilmasmidi?.. degan o'ylar kechib, ichimni tirnay boshlagan ham edilar. Islomda irim yo'q bo'lsa-da, negadir men o'zimni bosolmasdim. Ich-ichimdan gb'urmishlab kelayotgan bir gb'ashlikni quvarga ham yaramasdim.

Qarangki, qaytib o'tiririmni ham, chiqishga izn so'rarimni ham bilmasdim. Yaxshi ham Chaman akam bor ekan, u holimni tushunib, oraga tushdi.

- Oyi, bizga ruxsat bersangiz, narigi tanchali uyga joy qildirib edik. O'rik o'tinning olovida tanchani bir bozillatib o'tirmoqchimiz.

- Yaxshi o'yylabsizlar. Oyoqni hozirdan asrash lozim. Keyin mendek, manavunday kunga qolib o'tirmaysizlar. Boravering, baxayr... Manziratlar bilan chiqdik. Biron yoqqa ketishgan shekilli, Asal opa ham, uning asrandi o'g'ib'ilchasi kemshiktoy ham ko'rinmas, faqat tashlandiq hovuz tomondagi oshxonadan yengil dudu tutun o'rlab, olovning charsillagani eshitilar, ishkomlar orasiyu hovlidagi qor ko'rpasiga qarab bo'lmas, u oftobda ming-milliard marvaridu injularga aylanib yarqirar, qamashgan ko'zni qayoqqa olarni bilmasdik.

Biz o'n bir to'sin (bolor)li, laklangan toqilari qora jigarrang tusga kirib ketgan, gir aylanasiga dorpechu gulpechlar tutilgan, atir upayu qovuzdog'bu beshik anjomlarining bo'ylariga qo'shilib, qalampirmunchoqmi, go'dak isimi, nimadir o'tirib qolgan kelinlik uyiga kirib qolgan, tepadagi deraza tagida ko'rpa yopilgan tancha ko'rinar edi.

Chaman akam yassi gb'ishtdan terilgan xanik yonidagi kovshandozda qo'njli nozik botinkasini yecha turib, tegishdi:

- Mana shu bizning tutqunxonamiz. Xudo xohlasa, shu gb'urbatxonaga tushganimizga ham bir yil bo'lyapti. Kelasi haftalarga Sultontoyning chillari chiqsa, to'rtta cholni chaqirib, is chiqarib yuborsak, qarabsizki, uy tutqunidan ham ozodmiz-da. Kelishuv shunday bo'lgan. Keyin to'rt tomonimiz qibla, xohlagan yog'ibimizga qanot yozib ucha olamiz. Ozodlik!..

- Kimdan? - deb yuboribman beixiyor.

- Kimdan bo'lardi, - deb ishshaydi u namat ustiga o'tib, - bu tarz bir tupkaga qamalib o'tirishlardan. Ro'zgb'hor ivir-chiviriyu hamma qatori yurishlardan. Bemaqsad, bemurod umrguzaronlikdan. To'ydim hammasidan. Qolaversa, pakana pari, endi senga yorilsam bo'ladi, boshda chaqirib olishganida shartlashuv shunday bo'lgan. Uylanasan, o'g'ib'ilmi-qiz ko'rasan, chillasi chiqadi, so'ng ozodsan, ungacha bo'yningda bo'yinturuq - o'tiravurasan. Sen bularning orzu-havasini qondir - keyin to'rt tomoning qibla, borgancha borib, kelganча kel. Ob-havo istansangdagi vazifalar sensiz ham ado etib turiladi. Dunyoni to'fon bosib ketmas, kut, deb shu to'rt devor ichiga tiqishgan edi. Mana, biz shartni ado etdik. Toy bolaning chillalari chiqyapti, kelinposhsha qo'llari kosov, sochlari supurgi, bularning istaklarini ado etib turibdi. Qolaversa, kemshiktoy er yetib qoldi. Demak, bu xonadon erkaksiz emas. Akang qarag'ib'ay issig'ib'ellarga qarab uchsa, bo'lavuradi. Ram-ram, ram-tararam...- deb aylana turib, qosh qoqib, ko'z uchirib, qars badabangga o'yinga tushib ketsa, bo'ladimi?

Men taxta bo'lib qolayozgan edim. Uni tabriklarimni ham, quchib olarimni ham bilmasdim. Vaho-langki, arzirdi. Shuni aytadilar-da, har narsa niyatga bog'ib'liq deb. Niyat sof bo'lsa, kim niyatiga yetmagay?!

Xush qol endi, jamilamb'ib' (Tangritog'ib'dan o'zga diyorlardan topilgan maktublar jumlasidan.)

"Alloh senga sabr berib, O'z panohida asrasin. Seni unga topshirdim. O'zini senga vakil etdim. Tushun, jamilam, shunday ishlar bo'lib ketdi! Hamma sig'ib'gan Tangritoqqa bizlar sig'ib'may qoldik. Ko'nglum harqalay tinch edi sizlardan. Shunday dovon oshib, sarhaddan o'tsam yetadigan joyda edim. Jilla qursa, sog'ib'iniblar ketsam, o'sha dovonga chiqib tushmog'ib'im, sizlar panoh topgan ona diyoy havolaridan tuyib-to'yib nafas olmog'ib'im, u aziz yurt nasimlariga yuzlarimni tutib, soatlab o'tirmog'ib'im mumkin edi. Barchasini Xudoyim ko'p ko'rdi. Tangritog'ib'ni tashlab chiqdik. Qori akam aytadilar: Hazrat Alidan so'rashgan ekan: agar Osmon kamonga aylanib, Yer uning ipiyu odamlar o'rtasidagi majorolar kamon o'qiga aylansalar, Kamonchi esa, buyuk Allohning o'zi bo'lsa, nishonga aylangan bebaxtlar qayoqqa qochgaylar deb. Shunda u kishi: Albatta, Alloh tomonga qochib, jon saqlash mumkin, deb javob qilgan ekanlar. Shunga o'xshab, biz ham Uning panohiga qochmoqni afzal ko'rdik. Shoyad Kabatulloh tomonlardan najot topsak. Ana shu umidda hijratni ixtiyor etdik. Bunda yolgb'ib'iz Alloh roziligidan bo'lak niyatimiz yo'q, Mahfuzam.

To'gb'ib'ri, Mahfuz, Kaba yo'li osonmas. Unga yetmoq dushvordan-dushvor. Ayniqsa, bizdek darbadarlar uchun mushkuldand-mushkul bir safar. Yetguncha ne diyorlarda qanday zahmatlar chekarmiz, qancha sarhadlardan qanday osharmiz - bilmasmiz. Oldinda Allohning yana qanday imtihonu sinoatlari bor, ne ko'rgiliklarga uchrarmiz, bilmasmiz. Bilmasak-da, Kamonchi tomon qochmoqni, uni panoh tortib bormoqni lozim ko'rdik.

Mahfuz, "biz ko'zingizga ko'rinmadikmi? deb o'pkalashga haqlisan. Yig'ib'lab-siqdashga, sochlaringni yoyib, yuzingni yostiqlarga burkab o'krashga haqlisan.

Mayli, kimsasiz uylarga qamalib olib, to'yib-to'yib, xun-xun bo'lib yig'ib'la, ko'z yoshlaringga erk ber. Busiz ham ezilgan yurakkinangni bo'shat. Ammo taqdiringni qarag'ib'ab tilga ola ko'rma. Bular hammasi - men bu yoqlarda qolib, sen ota yurtida orqadoshingni kutib yurmog'ib'ing, ayol boshing ila vatanda vatansiz qolmog'ib'ing - barcha-barchasi Allohning yozmishi - xohlashidir. Uning sinovi - imtihonidir. Har ikkimizga ham shundaydir. Negaki bu dunyoda Allohning xohishidan tashqari na bir yel esar, na bir kun kechar. Qalam yozishdan to'xtagan, siyohi bitgan! Barchasi yozilib bo'lgan! Bu yozmishni o'zgartiruvchi Allohdan bo'lak Zot yo'qdir. Xohlasagina O'zi o'nlagay. Shuning uchun ham, jamilam, gunohga botib, yozmishimizdan nolib, taqdimi qarag'ib'ab o'tirma. Barchasiga ko'n. Dunyoda Allohning yozmishiga ko'ngan kishidan ham oqilroq odam bo'lmagay. Ana shunday kishigina banda sanalgay. Ko'nib, Allohning roziligini topolgay.

Sen (uzr, avval sizlar edim, endi azbaroyi o'zimga yaqin olib senlayotirman. Chunki osmon nikohi o'qilgan yolgb'ib'iz rafiqaqman. Men sendan tonmasman. Har qancha uzoq ketmay, unutmaman), ha, sen o'zing oqilasani, barcha-barchasini vaqt o'tib tushunib olgaysan. Bu jahon ayvonida Allohning ixtiyori, irodasidan tashqari hech narsa sodir bo'lmasligini anglab yetgaysan. Tushun, biz bir-birimizdan qancha olislarda bo'lsak-da, o'rtada qancha tog'ib'ib', qancha daryolar yotsa-da, baribir yolgb'ib'iz bir Zot panohidamiz. Uning O'zi yaratgan Yer ustiyu Osmon ostidamiz, undan chiqib ketmaganmiz. Qolaversa, uning xush ko'rgan dinidamiz. O'zi panohida asragay bizni. Shuning uchun men sendan xotirjamman. O'ziga topshirib qo'rganman seni! Hech bir kimsa seni ul Zotdek asray olmas! Faqat sen buni tushunsang, bas. O'zingni unga topshirsang, hasbiyallohu nemal vakill, deya tavakkul qilsang, bas. O'zi asragay. Ana shunda, bilki, qalbingga ham buyuk bir xotirjamlik ingayki, uning oldida bu dunyoning barcha tashvishlari

hechga aylangay! O'zing esa, mening go'zal amalli, sabotli mahbubamga aylanib qolgaysan.

Bu bir taskin emas, jamilam. Rivoyat yo ertak ham emas. Bu haqiqatdir. O'zini bilgan, Allohni tanigan, uni hech bir narsaga almashtirmagan, yolgb'iz Allohga tavakkul qilgan mo'minlarning buyuk etiqodidir. Laa ilaha illallohu2 - ana shudir! Shunga suyan - shundan panoh topgaysan.

Barcha ishlar niyatga bogb'liq, demishlar Paygb'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam. Biz jihodni dilga tugib, o'sha sarhad oshib borgan kezimizda zohiran niyatga yetmagan esak-da, botinan Alloh rizoligini topgan ekanmizki, buyuk Alloh o'sha kechani o'zidayoq meni ajri mukofoti ila siylagan, sening ruxsoringga yetkazgan edi! Endi imonim komilki, o'sha safarda bizga sarhad yo'llarini ochib uni bexatar qilib qo'ygan ham uning O'zidir. To'ramni ishni qayta boshdan boshlab, zafar topmoqqa ko'ngillarini choptirmagan ham kim bo'lardi?! O'zidir! Faqat mening sening qaysi felimiz amalimiz unga xush kelmishki, bizni shu bahona topishtirdi, bir kecha mehmon etdi bir-birimizga. Shunga ham beaded shukrlar bo'lsin. Topishtirmasa, boshqa ko'rishtirmasa, nima qilar edik?! Va buning hikmatini hov keyin anglab yetarmiz balki.

Sen gb'ham yema. Hammasini buyuk Alloh o'zi chokini chokiga to'gb'irilib, o'nlagay. Iymonim komilki, o'sha uchrashuv beiz ketmagay. Undan yodgor qilib bir tirnoqmi, nima bergayki, alal-oqibat o'shal farzandimiz tufayli o'rtadagi rishtalarimiz uzulmay qolgay, qachondir bizni topishtirgay. Bo'lmasa, nega ko'rishtirdi, uchrashirdi, agar qaytib topishtirmasa?! Mening umidim shundan va yolgb'iz Yodgorimdan. Qay yurtlaru begona ellarda darbadar kezmay, afgb'on chekib hindudek qoraymay bu niyat, bu umiddan tonmasman, sizlarni unutmasman.

Mayli, yigb'la-siqta, tishingni tishingga bos, ammo Tangrimiz azza va jallaga shukrni unutma. U inoyatga kimlar yetdi, kimlar yetmadi?! Axir Mahfuz qaerdasan, bil. O'z ota yurtingda, xolarimiz qavatida o'tiribsan. Bizdek darbadar kezsang, nima qilarding?! Noshukr bo'lma. Qanchalar u diyorning bir xovuch suviga zor, tuprogb'iga zor. Yaqinlarini tushlarida ko'radi, xolos. Sen ularning qavatida o'tiribsan-ku.

Bilaman, kuchi ko'z yoshidan bo'lakka yetmagan bir ayolsan, bir kelinchaksan. Lekin meni desang, qaerda bo'lsa, omon bo'lsin desang, yigb'lamagaysan. Uning o'niga ham o'zingga sabr tilagaysan. O'yla, Mahfuzam, bu dunyoda shunchaki yashashdan ne foyda? Agar o'z nafsingga qarshi jihod qila bilmasang?! Bu dunyoning xoyu havaslaridan ustun turolmasang?! Qolaversa, nimaga yashab yuribmiz, agar Allohning roziligini topolmasang?! Shundan boshqa tongla Mahsharda katta tarozuga qo'yadigan nimamiz bor?! Agar shu rozilikni topsak, bilki, u qirq yil birga yashaganimizdan aloroqdir!

Qo'y, ko'zyoshlaringga ham rahming kelsin. Umidim bor. Buyuk Alloh bizni shunday qoldirmagay, bu judoliklar ketidan visol kelsa, ajabmas. Seni, Yodgorimni bir bor ko'rmay ketsam - ko'zim ochiq ketmasmi?

Kut. Saharlarda yolgb'iz O'ziga iltijo qilki, bizni qayta ko'rishtirsin, topishtirsin.

Xush qol endi, jamilam. Men senga sabru sabot tilarman.

Sultonmuroding

Peshovar.

Chin soqchim, qiyomatli birodarim - Charli-Chamanimga

"Oh, birodarim, bu dunyoga kelib topgan yakka-yolgb'iz sodiq do'stginam, Chaman! Qadim Eskijuvaligim! Horisim, soqchi farishtam, Zakiy Validiydek suyanganim, ishonganim!

Uzr, ming bor, uzr! Yo'llarimiz ayro tushganiga. Men sendan beruxsat, bemaslahat bu yo'lni - hijratni ixtiyor etib qo'ydim. Vatanga sigb'maganlarga Alloh O'zi hijrat yo'lini ochgay ekan. Men bu yo'lning birinchi yo'lovchisi ham, oxirgisi ham emasman!

Taqdirga shukrona aytmogb'ham lozim.

Yo'q, men qasamni buzmoqchi emasman va buzganimcha ham yo'q. Senga bergan so'zim-so'z, unga hiyonat etganimcha yo'q!

Faqat shunday bo'lib qoldi. Barcha majoroyu mushkulotlar Kamonchi tomonga qochib, jon saqlamoqdan bo'lak yo'l qoldirmadilar. Hamma yo'llar berkilib, shu birgina yo'l - Alloh panohiga qochmoqgina qolgan edi, Chaman.

Men seni ogb'bir kunga qoldirdim, uzr. Buning uchun seni tinch qo'ymaslar. Bir qavat etingni shilib ol-salar-da mumkin. Lekin sen epini topasan, deb o'y-layman. Ne ogb'bir hollardan qutulib chiqmagaysan, axir. Bir chorasini toparsan. Axir senday chapdast bu dunyoda ikkita bo'lsa, bittasi o'zingdirsan. Balki sen ham o'sha Kamonchi panohiga qochib qutilarsan?

Chaman, tushun! Sen uchun hamisha vazifalar o'z yo'lga, bir bahona bo'lgan xolos. Seni menga ming ishonchluv soqchi etib tayinlashmasin, ming hisobu hisobotlar talab etib kelishmasin, sen hamisha meni balo-qazolardan asraguvchi soqchi farishta bo'lib kelgaysan. Shuni oliy vazifa, niyat, maqsad deb bilgaysan. Shu bilan Alloh roziligini topmoqni istagaysan. Bo'lmasa, allaqachon meni mahv etib yuborar edilar. Yoxud yer osti muzxonalarigami, qamoqxonalarigami tiqib tashlagan bo'lardilar. Sen esa, meni ularga kim ko'rsatib, qay sarhadlardan oshirib, qay jangohlarga olib chiqib yuribsan! Va biz "topshiriq ila ot mingan mujohidlar safiga qo'shilib turibmiz! Sen niyati yolgb'iz Allohgagina ayon bo'lgan ulugb' o'yinchisan! Sen Paygb'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam urush - o'ziga xos firib berishdir, deb marhamat qilganlaridek, ustomonlik bilan bizni qutqargan, mujohidlar safiga qo'shgan kishisan. Alloh rozi bo'lsin, yaxshiliklaring uchun! Faqat men sening bu yaxshiliklaringga arzirli yaxshilik qilib ulgurmadim. Qaytaga seni ogb'bir ahvolga solib, Tangritogb'dan chiqib ketdim. Izimni yo'qotib ketdim. Senga jabr qilib ketganimni, Chaman, endi anglab turibman. Lekin endi kech, orqaga qaytishga imkon ham, yo'l ham yo'q. Uzr, oshna, Allohning xohlashi balki shunday bo'lgandir. Men barcha-barchasini hozir tarozuga solib, kim haq-nohaqligini aniqlashga oqizman. Faqat Buyuk Kamonchi - Allohning panohiga qochib to'gb'iri qilganimni bilaman, xolos. Qori akam aytdilar: Paygb'ambarimiz sollalohu alayhi vasallam Hazrati Aliga: "Ey Ali, agar butun olam senga dushman bo'lsa ham hech andisha qilmagil rost so'zlashdan, omonatni asrashdan, juvonmardlikdan deb vasiyat qilmishlar. Shu bois men ham senga rost so'zni aytdim, toki meni qasamga hiyonat etdi, deb o'ylamagaysan va bundan keyingi qadamlaringni bilib bosib, o'zingni kasu nokaslardan asragaysan.

Oh, Chaman, Chaman, bilasanmi, bizning fojiamiz nimada? Sarhad oshmaganimizda, dunyo ko'rmaganimizda. Kindik qonimiz to'kilgan joyningina vatan hisoblab yurishimizda. Undan ajrasak, o'zimizni eng baxtsiz kishi sanashimizda. Vaholanki, Alloh bizga butun yer yuzini namozgoh qilib berib qo'yish. Va unga bizni vaqtincha nigohbon etib tayinlamish. Ana shu imtihon diyorida, biz barcha mo'minlarning dardi bilan yashay bilmas ekanmiz, qandoq ham butun yer yuzini sajdagoh vatan tuta olgaymiz. Mangu vatanimiz jannatga erisholmaymiz?! Busiz Alloh roziligini topib bo'lgaymi?! (Yana biz o'zimizni mujohid sanab yuribmiz!)

Chaman, xatning shu joyiga kelganda o'qishdan to'xtatil-da, volidang Oyto'ra buvi oldilariga chiq. Chiq-da, (darvoqe, biz uchun aziz u kishiga ko'pdan-ko'p duoi salomlarimni yetkazgaysan. Alloh u kishini sizlarning baxtingiz uchun ham o'z xifzu himoyasida asrasin. Yana ko'p yillar shu xonadonning duogo'y onaxoni bo'lib o'tirsinlar!) karavotlari tepasidagi jildda osigb'liq turmush o'sha

Kalomullohni ochib, biz vatanjudolar haqida kelmish bir oyatni - Niso surasining 100-oyatini topib o'qib berishlarini iltijo et. Shunda ko'ngling joyiga tushib, barcha g'ʻilul g'ʻashliklarni, alamlarni unutib, hech zamon tuymagan bir xotirjamlikni tuygaysan, o'rtoq.

Qaytib chiqdingmi, endi eshit. O'sha Quroni Karimni birinchi bo'lib bizning tilimizga o'girmish zot (u kishi ham vatanjudo - bu yoqlarga hijrat qilmish ko'p tabarruk kishi emishlar) - ana o'sha kishi hijrat oyatini bunday sharhlamishlar: "Kishiki, Xudo rizosi uchun aziz vatanlarin, mahbub xonadonlarin va xesh-aqrobolarin tashlab, alarning hajrlariga sabr qilurlar va aziyat olamiga o'zlarini olurlar, Janob Parvardigor alarga vatanlaridan yaxshi vatan va birodarlaridan mehribon birodarlar va izzatlaridan ziyoda izzat va rizqlaridan ortiq rizq ato qilur. Va bu - dunyodagi ajrlaridur, oxiratdagi daraja va savoblarini bayon qilib bo'lmas. Agar andin xabardor bo'linsa erdi, hijrat qilolmagʻʻon bechoralar ham har nechuk kulfatlar va aziyat ko'rsalar ham albatta, hijrat qilur erdilar.

U kishi bizdan ancha oldin bu tomonlarga hijrat etib, shu darajalarga yetmishlar. Ishon, biz ham Allohga shu tariqa tavakkul qilgan kishilar izidan bu diyorlarga ularni qora tutib kelganmiz. Har qancha aziyatlar bo'lsa, chidamoqqa bel bogʻʻlaganmiz. Xudo xohlarsa, u tarafdarda ado etolmagan (ado etishga qo'yishmagan!) vazifamiz - barcha mo'minlarning dardi bilan yashash orzumizga shu yerda yetsak, shoyad! Shoyad, o'z vatani, yaqinlari, qavmu qarindoshlaridan ajrab aziyat olamiga yuz tutgan vatanjudolar dardiga malham bo'la olsak, ularni bebaqo dunyoning turfa adolatsizliklaridan himoya eta olsak. Jilla qursa, ular suyana oladigan bir "vatanjudolar jamiyati tuzsak edi. Loaqal o'z yo'lini yo'qotgan, adashgan, mushkul kunga, vaziyatga tushganlarga esh bo'la olsak edi, Alloh roziligini toparmidik?! Taqdimni qaraki, o'z yurtiga sigʻʻmamish va quvilmish buyuk bobokalonimiz Bobur Mirzo vatan tutib, saltanat qurmish diyorlarga biz gʻʻariblarni-da qadami yetdi. Ul zot bir hovuch ishongan birodarlari ila saltanat qurgan bo'lsalar biz sigʻʻindi vatanjudolarni himoya eta oladigan, silai rahm ko'rsatadigan jamiyat tuza olmasmizmi? Loaqal o'zimiz uchun, Alloh roziligi uchun! U jamiyat saltanat davosini qilmas, lekin sobiq mujohidlarni-da xo'rlatib qo'ymas. Yodingda tut. O'sha O'rinburgdan cho'l oshib, necha qum-taqirliklarni ortda qoldirib, Makka safariga chiqmish ulugʻʻ tutqun Xudoyorxon qadami yetgan joylarga yetib kelmishbiz. Va u suv kemasiga tushib, Jiddaga otlangan bandargohdan ish topmishbiz. Ishimiz chinakam qora ish - kemalaru qayuqlarning tagini saqich-qoramoy eritib mumlashdir. Ammo shunday ishni topolmagan darbadarlar ham qancha, Allohga mingdan-ming shukrki, bizni ishlik etti, boshpanalik etti. U yogʻʻbiga ham Xudo o'zi Halloqdur. Ishqilib niyatimizni o'zimizga hamroh etsin, hidoyatini darigʻʻ tutmasin.

Chaman, jon birodarim, Alloh o'zingga to'zim bersin, u diyorda men uchun aziz kimlar qolgani yolgʻʻiz o'zingga malum. Nima demoqchiligim ham o'zingga ayon. Ularni senga, seni esa, Xudoga topshirdim. U ojizalarimdan o'zing xabardor bo'lgaysan. Alloh O'zi panohiga olsin. Agar o'tga tushsang, O'zi Namrudning o'tini sovuq qilib, Ibrohimni asraganidek asrasin, Agar tegirmonga solsalarsa esa, yana O'zi butun chiqarsin. Chunki sen biz mazlumlarga keraksan. Duolarim ijobat bo'lmogʻʻini Allohdan so'rab, Sultonmurod birodaring. Bombay.

Yana bir umrli asrordoshim Chamanga

"Hov, asrordoshim-sirdoshim, Chaman! Senga yolgʻʻon, Xudoga chin - Alloh bizni yorlaqadi! Shunday bir darbadarlikda biz mazlumlarni qo'lladi-ya! Chindan uning O'zi "Xuva ala kulli shayin qodirdir. "Xuvar Rohmanur Rohiymdir! Mazlumlarning gʻʻamini yeguvchi "Va xuval azizul hakiymdir.

Faqat niyatni to'gʻʻrilab, yolgʻʻiz O'ziga tavakkul qilsang bas ekan, suyansang bas ekan! Qo'llaguvchi, yetkazuvchi O'zi ekan! Kim o'ylabdi, dengiz bo'yi bandargohida, kishi nazariga ilmas bir yumushni bajaruvchilar - shu ishdan ro'shnoqlikka chiqamiz deb? ! Kim ham xayoliga keltiribdi, qoraqurumga belanib mum erituvchi va kemalar tagini saqichlovchi bizdek kelgindilar yarim yilga qolmay o'zimizni o'nglab olamiz deb! O'nglab olibgina qolmay mushkul kunga tushib qolgan vatangadolarni qo'llaguvchi kishilarga aylanamiz deb!

Avvalboshdan niyatimiz Allohga xush kelganini ko'r!

Kel, yaxshisi, bir boshdan aytay. Bunday voqea - Allohning inoyati deymizmi, sinovi yoxud mo'jizasi deymizmi, o'tgan asrda biz tomonlarda ham sodir bo'lgani qachondir qulogʻʻimga chalingandek... Hozir kimdan eshitganimni aniq eslay olmayotirman. Ammo Allohning qudratini ko'rki, o'zimiz o'shandek holga tushgan edik. Bo'lmasa, hech kim nazarga ilmas bu bandargohda kimlar ishlab ketmagan, bu qirgʻʻoqni qancha suvlar yuvib o'tmagan. O'shanda ochilmagan xum bir to'lqin kelishi bilan ochilib turibdi! Har kuni o'tadigan oyoq tagimizdan chiqib turibdi! Qumdan kavlab olsak, ichi to'la xazina. Yaxshi ham Qori aka bor ekanlar: - Esingizni yigʻʻing, yigitlar. Hech kimga buyurmagan bu xazina bizga ham buyurmas. Uning o'z egasi bor, - dedilar hayratimizga suv sepib, - agar egasini topib ishlatmasak, ajri ham buyurmas. Bu yo sinov, yo fitnadir. Hozircha undan nari turmoq lozim. O'ylang, nega bizdan oldin o'tgan shuncha kishilarga ko'rinmay turib, bizga ko'rindi? Mana shuning siriga yetmoq kerak... Yaxshiyam qaytargan ekanlar, xazina egalarini Allohning o'zi ko'rsatdi. Qori aka Quron ochib, hikmat qidirgan edilar, "Allohga qarzi hasana beringlar! oyati chiqdi.

- Darvoqe, botur, avvalboshda niyat nima edi?! Vatanjudolarga qayishmoq, ularning boshini silamoqmidi?! Alloh ana shunga yarasha yetkazibdi. Bu o'sha jamiyat uchungina halol! - deb fatvo berdilar.

Uni qara! Mo'minning, mazlumning niyati xush kelsa, Allohdek Zot qum tagida Xudo bilsin, necha zamonlar yotgan xazinani bir to'lqin yuborib ochib qo'yadi ekan! "Kun deptiyu ustini ochib qo'ya qolibdi! Ana shunday qilib degin, Chaman, yetarli jamgʻʻarmasi bor jamiyatga ega bo'lib turibmiz. Kecha qora bir go'loh edik, hech kim nazariga ilmagan! Bugun vatandan uzoqda o'zimiznikilarga muruvvat ko'rsata olguvchi dasti uzun kishilarga aylanib qolgan edik. Ana, Allohning niyatga qarab berishiyu haq vadasi!

Alloh roziligi uchun aziz vatanlariyu mahbub xonadonlarini, xeshu aqrobalarini tashlab chiqqan kishilarga vadasi esa, vatanlaridan yaxshi bir vatan, birodarlaridan mehribon birodarlar, izzatlaridan alo izzat, rizqlaridan ortiq rizq va bu shu dunyodagisi edi! Qaraki, haligi xazina o'sha vadalarining debochasi ekan! Quroni turkiyga o'girib sharh etgan Oltinxon to'ram tavillari rost chiqdi. Alhamdulillahillazi, ko'ngli o'ksik, qaddi bukik kelgindilar edik, O'zi qo'llab, dasti uzun, bagʻʻri keng muruvvatpeshalarga aylantirdi. Ishqilib O'zi adashtirmasin, sirotim mustaqim yo'llaridan toydirmasin, o'sha ulugʻʻ niyatimizni o'zimizga hamroh etsin. Hijrat diyorida mushkul kunga tushib qolgan kishilarni daraklab topuvimizda, qo'llab oyoqqa turgʻʻizib qo'yuvimizda O'zi madadkor bo'lsin.

Chaman, o'ylama, biz bu ishni shuhrat uchun yo biron norasmiy hukumat yoxud saltanat ilinjidamas, Alloh roziligi uchun boshladik. Madadimiz begʻʻarazdir. Hijrat diyorida yolgʻʻiz Allohga suyanib yashamoq, umrguzaronlik qilmoq uchundir. Unga tirnoqcha ham riyo aralashishini istamasmiz.

Albatta, hijrat diyoring ham o'ziga yarasha aziyatlari, achchiq-chuchuklari, imtihonlari bor. Ammo unga sabr qilmoq - Alloh roziligini topmoq bilan barobarligi bizga katta saodatdir. Qolaversa, hijratdagilarning birodarligiga asos solmoq xuddi Paygʻambarimiz sollallohu alayhi vasallam zamonlaridagi muhojirlar bilan ansorlar birodarligiga o'xshab-o'xshab ketmoqda. Qani edi bu ham xuddi o'shandek Allohga xush kelguvchi amallar sirasiga kirsam...

Bizni tanigan azizlarimizga salomimizni yetkazgaysan. Duoda bo'lsinlar. Vallohi alam bissavob.

Bombeyi azimdan Peshovarga qaytgan
Sultonmuroddan deb bilgaysan, do'stim.

Tushlarimga kirguvchi ul azizam - Mahfuzaga

"Mahfuzam, negadir keyingi paytlarda tushlarimdan arimay qoldinglar. Yana bir vaqtda - kechani uchdan biri qolgan kezda, Qori aka ayni tungi namozga turib, kulbamizning bir chetida ibodatga tushgan chogʻi bilan kirasizlar. Nima bo'ldi ekan sizlarga? Shu uyqum o'chganicha - Qori aka namozu duoyu iltijolarini tugatib, bomdodga azon chaqirgunlariga qadar ko'zim ilinmas. Azondan esa, yengil tortib turgayman. Ungacha Qori akani xijolat etmay deb qilt etolmasman.

Bugun ham o'sha tanish hovlida - Salomxon xolamgilarning hovlilarida ko'rdim. Anhordan suv olib kelib, lipa urgancha hovliga shakarob berib, bir chiroyli suv sepib yuribsizlar. Bir shirintoy bolakay esa o'sha uyni tanish zinasida oyogʻini osiltirib o'ynab o'tiribdi. Sepilgan suv sachrab-sachramay, yelkasini qisib bir chiroyli nari suriladi va qiqir-qiqir kulishda davom etadi.

Hazillashgisi kelmagan sizlarni-da, hazillashishga undaydi. Tagida qolgan jindek suvni sepmoqchidek bo'lib bir harakat etgan edingiz, paqir yuqori ko'tarilib ketib, tagidagi suv har ikkalangiz ustingizdan yomgʻinir-yogʻinir aloq bo'lib sochilib ketdiyu bo'ldi tomosha!.. Har ikkingiz ham bundan shod, yayrab-yashnab kulardingiz.

Men esam, o'sha qari qora tol tagidagi supa chetida iyib turganmishman...

Tavba, bu nimasi? Nimadan imdod bermoqdasi? Sizlarni sogʻinimandanmi yo ko'nglimga xotirjamlik indirish uchun kirmoqdasi? Tushlarimga? Suv, albatta, yorugʻlik, sizlar Alloh rahmati ostida yurganingizga bir ishora. Lekin uzoqning ishi qiyin ekan, bilay desam, bilolmasman, ko'ray desamb" ko'rolmasman. Ishqilib, O'zi panohida asrayotgan bo'lsin.

Mahfuzaga, harna qilsa, ota diyordasiz, shukr qi-linglar. U diyorga yetolmaganlar qancha. O'rtamizga tushgan ayriliq ham behikmat emasdir. Men sarhaddan o'tib, sizlar o'ta olmay qolganingizda, nima bo'lardi? Xudo ko'rsatmasin, qaytib ko'risha olarmidik-yo'qmi? Bu holda jilla qursa, bir kecha mehmon etti-ku, Allohim. Bu yogʻinir ham o'zi oson etar, axir. Shunday qoldirmas!

Azizam, bu ayriliqning hikmati shundaki, u Sizni biznikilarga yetkazmoqchi ekan, yetkazibdi, shu yo'l bilan Alloh azza va jalla o'z hifzi-himoyasiga olmoqchi ekan, olibdi deb, tushunmoq kerak. Bu yogʻinir ham O'zi chiroyli etsin. Axir o'zlarining himoyachisi U bo'lmay, kim bo'lgan!

Mahfuzam, o'zing oqilasam. Ko'p narsalarni bir ogʻinir so'zdan anglay olgaysan. O'yla, bu dunyoda bizdan ham battar ayrilgʻinir judoliklarda qolganlar qancha. O'shalardan etsa, bundan ogʻinir mushkulroq sinovlarini ravo ko'rsa, nima qilardik? Shunisiga ham shukr, bularning hammasini Allohning yozmishi deb, imtihoni deb qabul qilmoq kerak. Nolisak Allohga xush kelmas. Shu manoda bizdan bir qancha ko'p ko'ylak yirtgan ustozimiz Qori akaning boshlariga tushgan ko'rgiliklar oldida bu xolvadir.

U kishi yaqinlaridan ayrilib, bu tomonlarga ikkinchi hijrat etishlari ekan. Men buni Elchin boturdan eshitib, lol qoldim. Ular diyorlaridan quvilib, Tangritogʻinir qora tortib kelayotib bir togʻinir qishlogʻiniriga kirishsa, o'sha yerning o'ziga to'q, or-nomusli bir kishisini notanish ellarga badargʻinir etishayotgan ekan. Ayollar piq-piq yigʻinirlashar, bolalar kecha o'zlari o'ynab-kulgan uylaridan umid uzolmay mo'ltirab turishar ekan. Shu kez soqollariga oq oralagan pokiza kiyimli bir qariya ulardan ajrab chiqib:

- Hoy, yaxshilar, ko'kragida yoli bor kishi bormi orangizda, bir dam to'xtang. Jilla qursa, sizlar rahm eting, - deb kela boshlabdi. - Biz u yot ellarga borarmiz ham, yot qavmlar ichida qolarmiz ham. Chidarmiz Allohning bu sinov ko'rgiliklariga. Lekin manavi bo'y yetgan qizimizga rahmingiz kelsin. U axir birovning xasmi, sizga o'xshagan bir musulmonning xasmi. Men uni o'zim bilan ola ketib, ertaga nima qilaman? Kimga berib, kimga uzataman? U qay begona tuproqda tup qo'yib, palak yozadi? Ko'ra bila turib, bir masumani do'zax o'tiga otamanmi? O'tinaman sizlardan, olib qoling. Bir mo'minning uyini gullatsin. Birovlariga xasm bo'lganidan, iymonidan ayrilganidan ko'ra, olib qoling, o'zidan ko'paysin, ilohim. Jilla qursa, orqamizdan duo yuborib turguvchi bir zurriyotimiz qolsin bu diyordalarda ham...

Qarashsa, bo'yi yetib-etmagan, oy desa degudek, kun desa kundan ravshan yuzlik bir mohichehra. Qori aka yuraklari jiz etib, otdan tushibdilar va qizni yigitdek kiyintirib, otga mingashtirgancha hijrat yo'lida davom etibdilar. Tangritogʻinirga yetishgach, bir kosa shirin suv ila nikoh o'qitib, bir muruvvatpesha odamning kulbasida yashay boshlabdilar. Ammo Alloh qizni husnda benazir etgani bilan umrdan qisgan ekan. Farzand ko'raturib, bu olamdan ko'z yumibdi. Qori aka yolgʻinir yodgor chaqaloq bilan qolibdilar. So'ng yana bo'yinga o'limni olib, sarhad oshib o'tib, zurriyotlarini ishonchlulv kishilarga qoldirib qaytibdilar. Shu-shu biz bilan ekanlar. O'shandan beri u tirnoqlaridan na xabar bor, na xat. Tirik bo'lsa, falon yoshga yetdi, maktabga qatnayotgandir, deb qo'yadilar-u, ammo mahzun tortib yigʻinirlaganlarini bilmaymiz. Faqat kechalari joynamoz ustida soatlab o'tirishlari bor, Allohga tavallo qilishlari bor. O'sha yolgʻinir zurriyotlari kamolini so'rab, duo-iltijodan charchamaslar.

Qori akaning o'rnida boshqa odam allaqachon tob tashlar, yiqilib qolardi. Lekin u kishi Allohga tavakkul qilib, yolgʻinir tirnoqlarini uning panohiga topshirib qo'yiptilar. Ana sabotu ana matonat! Ana Allohga tavakkul! Shu bois ham biz yolgʻinir bizmasbiz, Mahfuz. Jilla kursa, mening Yodgorim yonida sen borsan, senga suyanadi u tirnogʻinirimiz, bizning davomchimiz! Shunga-da shukr qilmoq kerak, yaxshi kunlarga umid tutmoq kerak. Shoyad o'sha mitti zurriyotimiz bizning o'rtamizda uzilmas bir rishta bo'lib qolsa. Shoyad u biz xijronzodalarni, diyorida judo bo'lgan, ayriliq ichra qolib, aziyat olamida tentiraganlarni bir kun kelib topishtirishga sabab bo'lsa.

Inshaalloh, degilki, qolgan barchasini Alloh o'zi o'nglagay. Shu bois, senga taloq so'zini yo'llashga tilim bormas! Seni barcha mushkulu mushkulotlardan shu bir ogʻinir so'z ila qutultirish, yo'lingni ochib qo'yish mendan lozim bo'lsa-da, men u so'zni hech qachon tilga olmasman. Olgan kunim mening o'lganimdir, Sulton nomimdan tonganimdir! Dunyoda sizlar bor ekansiz, men ro'shnolik uchun, sizlarga yetishmoq uchun kurashavergayman. Allohdan o'tinib-o'tinib so'rayvergayman. Albatta, Uning O'zi istasa, taqdirimizni ham o'nglagay. Iloho, O'zi bu o'tkinchi dunyoda hech kimni O'zidan o'zgaga muhtoj etmasin.

Ko'zlaringda billuriy yosh ko'rmoqdaman. Iloho, u Allohimga ham xush kelsin.

Sultonmuroding. (Peshovar).

Jigarbardim, so'ngsiz dardim Olimga

"Ukaginam, Olim!

Men seni endi qaylardan so'roqlarman, kimlardan daraklartarman?! Oramizda qancha tugʻib-dovonlar, qancha toshqin soy-daryolar yotibdi. Necha qavat sarhadlar tushmush o'rtaga. Esiz, hech kim o'ylamagan ishlar bo'lib ketdi. Alloh rizqimizni shu yoqlarga sochgan ekan, u diyorlarni endi tushda ko'rmoq ham dushvor.

Esiz, nega avvalda parvo qilmadim, tergamadim, surishtirmadim, ketga tashladim? Ayadimmi, adash yo'llarga kirib qolganingga ishonmadimmi? Bizning zot, bizning palakdan unday odamlar chiqmasligiga ishonib, yakkama-yakka gaplashmoqni ortga tashladimmi, ishqilib biz kutmagan ishlar bo'lib ketdi. Diyordan bosh olib ketmoq lozim bo'lib qoldi. Seni topish, topib Alloh rozi bo'ladingan yo'llarga boshlash lozim bo'lganida... hammasi kech edi. Qolaversa, izingni topolmadim.

Ayb menda. Men aka edim, bitta bo'lsa ham ko'proq ko'ylak yirtgan edim, seni qayirish, qaytarish mendan lozim edi. Shaytanat yo'lga kirib qolganingga ishonmay, dogʻbda qoldim. Dardim ichimda. Endi hech kimga aytolmasman, naryogʻbi yo'q. Sen yo'qolgan diyorga yetib-etolmasman, topib-topolmasman.

Daragingni bilib berguvchi bir kishi bor edi, undan ham ayro tushdi yo'limiz. Faqat umid Allohdan. O'zi senga hidoyat bersin. Yuziqaroliklardan O'zi asrasin.

Olim, bu xatni senga qay tarzda yetkazishni ham hali bilmasman. Lekin ichimdagilarni senga ochiq-yoriq aytmam bo'lmas. Axir men yolgbiz tugʻibishqoningman. Bir qorindan talashib tushganmiz. Men qaygburmasam, kim qaygburmagay? O'zim qay diyordardan-u, kechagida tushlarimga kirib yuribsan. Yolgbiz o'zingmas, yoningda kamar taqib, nagan osgan yana kimlardir ham bor. Padaribuzrukvorimiz oldilariga kelmishsizlar. Bilasanmi, sen salom bersang ham u zot o'girilib qaramayotganmishlar. Axiyri sheriklaring seni yolgbiz tashlab ketishdi hamki, rahmatli otam - padaribuzrukvorimiz yuzing-ga qaramay tasbeh o'girishda davom etaverdilar. Sen qarshilariga tiz bukib, qo'l qovushtirgan eding, u kishi o'girilib oldilar. Sen yana o'sha tomonga o'tib eding, u kishi yana bu tomonga yuz burib oldilar, tavba. Keyin sen nima qilaringni bilmay tek turib qoldingu... men ham uygbhonib ketdim. Tursam, qora terga tushib ketibman. Yuragim ham shunday bejoki...

Nega bu taxlit tushlarimga kirib yuribsan, boshingga ne mushkulu mushkulotlar tushdi, otam nega norozilar - bilolmay garangman. Otam betingga ham qaramayotganlarini tushunish mumkindir - go'rlarida ham tinch emaslar. Lekin sen-chi, sen nobakor nega oyoqlari tagiga yotib bo'lsa ham uzr so'ramayapsan, salomimga alik olmayptilar deb to'rsayib turibsan?! Hech zamonda o'gbdil otadan achchiqlanadimi, gina-kuduratlarga boradimi? Uzring-ni aytib, duolarini olmaysanmi, yo'ling ochilib ketmaydimi?!.

Va bexos shu tush menga nimani eslatib yubordi degin. Qori aka uzun sargardon yo'llarimizda madad bo'lsin deb aytib berganlari bir tarixni - PaygbHambarimiz (U Zotga Allohning salomi bo'lsin) zamonlaridan ogʻbizdan-ogʻbizga, kitobdan-kitobga o'tib kelayotgan bir voqeani esga solib yubordi.

Eshit, senga o'xshamish bir kishi bilan ham shunday voqea sodir bo'lgan ekan. Bu tarixni u sahoba o'z ogʻbizi bilan hikoya etgan. To'qima deb o'ylama. U zamonlarda faqat rost so'zlaganlar. Yolgbhon aralashtirishni xayollariga-da keltirmaganlar. Negaki Allohdan qo'rqanlar. Iymonlari shu darajada ziyoda bo'lgan.

Bu yogʻbini Qori akadan eshitganimcha qogʻbozga tushirdim. Kam-ko'stini Alloh kechirsin. O'sha Vahshiy ibn Xarb otli qora qul o'zining mashum va mashhur nayzasi tufayli topgan lanatu hidoyati haqda asrlar qaridan bizga shunday xabar qoldirgan. U sahobalarning chin tarixlaridan joy olmish. Tingla.

"Men Quraysh zodagonlaridan Jubayr ibn Mutimning quli edim, - deydi u. - Badr jangida Hamza ibn Abdulmuttalib Jubayrning amakisi Tuaymani o'ldirdi. Shundan keyin hojam qattiq qaygbu chekdi va qotilni o'ldirib, amakisining qasosini olishga qasam ichdi.

Qo'shin Uxud jangiga otlanganida hojam meni chaqirdi:

- Ey Abu Dasama, qullikdan ozod bo'lishni istaysanmi? - dedi u.

Men so'radim:

- Ha, lekin qanday qilib?

- Men seni ozod qilaman, - dedi u.

- Qanday shart bilan? - deb so'radim.

- Amakim Tuayma ibn Adiy qasosi uchun Muhammadning amakisi Xamza ibn Abdulmuttalibni o'ldirsang - ozodsan.

- Kim bunga kafolat beradi? - dedim.

- Hoxlagan kishing. Istasang hamma odamlarni guvoh qilaman.

- Yaxshi. Men roziman,- dedim.

Men haqiqiy habash edim, habashlarning nayza otish sanatini toza egallagan edim. Otgan nayzam xato ketmasdi.

Shundan so'ng nayzamni olib, qo'shinga qo'shildim. Men qo'shinning dum qismida ayollar bilan yonma-yon borardim. Ular jangchilarni ragʻbbatlantirib borishar edi.

Uxudga yetgach, Xamzani qidirishga tushdim. U bahodirlar odatiga ko'ra, kuchli raqiblarni o'ziga chorlash uchun peshonasiga tuyaqush pati taqib olgandi. Xuddi kulrang tuyadek o'kirib, qilichini o'ngu so'lga sermab jang qilardi.

Men Xamzaning yaqinlashishini poylab bir daraxt orqasida yashirinib turardim. Shunda Sibo ibn Abduluzza ismli quraysh chavandozi yonimdan o'tib:

- Hey, Xamza, yakkama-yakka olishasanmi? - deb qichqirdi. Xamza:

- Bu yoqqa kel, mushrikvachcha, bu yoqqa, - dedi.

Ikki pahlavonning olishuvi uzoqqa cho'zilmadi. Xamza bir qilich siltash bilan raqibining kallasini sapchaday uzib tashladi. U gursillab yiqildi. Shunda nihoyatda qulay payt keldi va men nayzamni ko'tarib, xezlanib turdim-da, bor kuchim bilan unga it-qitdim. Nayza Xamzaning qornidan kirib, orqasidan teshib chiqdi. U menga qarab bir-ikki qadam tashladi, so'ng yerga quladi. U o'lganiga aniq ishonch hosil qilgach borib nayzamni sugʻbiri oldim-da, orqamga qaytdim.

Shunday qilib, men hur odamga aylandim. Muhammadning ishi rivoj topib, musulmonlar soni oshgani sayin mening qalbmimga tashvish ham kuchayib borardi. Axiyri butunlay gbHam-qaygbHuga tushib qoldim.

Muhammad qo'shin bilan kelib, Makkani fath etganida Toif tarafga qochib ketdim. O'sha yerda omonlik topamanmi, deb o'ylab edim. Biroq ular ham Islomga moyillik bildirib, Muhammadga vakillar jo'natishdi. Shunda tarvuzum qo'ltigʻbimdan tushib, dunyo ko'zimga tor ko'rinib ketdi. O'zimcha yo Shomga, yo Yamanga ketsammi, deb o'ylay boshladim.

Shunda menga rahmi kelgan odamlardan biri:

- Xudo haqqi, hoy, Vahshiy, Muhammad uning diniga kirib, haq shahodatini aytgan odamlarning birortasini ham o'ldirmaydi, - dedi.

Buni eshitib men Yasribga, Muhammadning huzuriga yo'l oldim. Surishtirsam, masjidida ekan. Qo'rqa-pisa oldiga kirdim. To'gbHri

tepasiga borib:

- Ashhadu alla ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rosuluhu, - dedim.

U shahodat kalimasini eshitib, boshini ko'tardi. Menga ko'zi tushib, tanidi. Tanidiyu yuzini o'girib oldi. Teskari qaraganicha:

- Sen Vahshiyman? - dedi.

- Ha, yo Rasulilloh, - dedim.

- O'tir, Xamzani qanday o'ldirganingni gapirib ber, - dedilar u kishi.

Men o'tirib, bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay so'zlab berdim. Hikoyam oxiriga yetgach, u kishi yana yuzlarini o'girib oldilar va:

- Turqing qursin, ey Vahshiy. Bor, ko'zimga ko'rinma. Bugundan keyin seni ko'rmayin, - dedilar.

O'sha kundan boshlab men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam nigohlaridan qochadigan bo'ldim. Sahobalar u kishining oldilariga o'tirishsa, men orqalaridan joy olardim. Paygʻambar alayhissalom to Parvardigorlarining huzuriga ketgunlaricha meni ko'rmadilar.

Men Islomga kirish avvalgi gunohlarni kechirib yuborishini bilsam-da, qilib qo'ygan mashum ishimdan qattiq xijolat chekib yurar, uni yuvib tashlaydigan fursat kelishini ko'zim to'rt bo'lib kutardim.

Paygʻambar alayhissalom vafotlaridan keyin Musaylama kazzobning qavmi murtdalik yo'lini tutdi. Abu Bakr unga qarshi urush qilib, Bani Hanifani Allohning diniga qaytarish uchun qo'shin tuza boshladi Shunda o'zimga o'zim:

- Xudo haqqi, mana, sen uchun qulay fursat keldi, ey Vahshiy. Foydalanib qol, - dedim.

So'ng lashkar safida jihodga jo'nadim. O'zim bilan o'sha mashhur nayzani - shahidlar sayyidi Xamza ibn Abdulmuttalibni qatl etgan nayzani olvolgan edim. Yo Musaylamani o'ldirishga, yo shahid bo'lishga qasam ichdim.

Musulmonlar Allohning dushmanlarini surib borib, "o'lim bogʻiga tiqib qo'yishdi. Men kazzobni qidira boshladim va uni qo'lida qilich tutib turgan holda ko'rdim. Qarasam bir ansoriy xuddi menga o'xshab, uni o'ldirish uchun payt poylayapti. Men qulay imkoniyatga ega bo'lganimda nayzamni olib, bir-ikki hezlandim-da, so'ng kuch bilan Musaylamaga uloqtirdim. Nayzam aniq nishonga sanchildi. Men nayza otgan paytimda boyagi ansoriy berkingan joyidan sapchib chiqib, Musaylamani chopib tashladi. Qaysi birimiz uni o'ldirdik - Alloh biladi. Agar men o'ldirgan bo'lsam, Muhammaddan keyingi eng yaxshi odamni ham, eng yomon odamni ham o'zim qatl qilgan bo'laman...

Mana shu tarix. Endi bu yogʻini o'zing tushunib olaver, Olim. Agar otam tushimga kirmasalar edi, seni ko'rib yuzlarini o'girib olavermasalar edi, men bu tarixni senga yozib, yo'llab o'tirmasdim ham balki.

Tanangga o'ylab ko'r, kim eding, qaysi ko'chalarda yuribsan? Kimlarning zurriyoti ekaningni nahot unutib qo'yding? Otamiz - ul zot, xuddi Paygʻambar alayhissalomdek sendan yuz o'giryaptilar. Turqingni ko'rishni istamayaptilar, uka. Bu qanday isnodligini bilasanmi o'zing? Kimlarning gapiga uchib u ko'chalarda yuribsan? Va axiyri kim bo'lmoqchisan? Hozir-ku, mayli, bu foniy dunyo ham o'tar, erta birisi kun - tongla Mahsharda qay yuz bilan otamizga ko'rinasan? Qurumu is bosgan qora yuz bilan Parvardigorga ro'baru bo'lmoqchimisan?

Hali-da kech emas. Bekorga otam xafahol o'tirganlari yo'q. Tirik bo'lsalarki, top-da, oyoqlarini o'p, uzr so'ra, desam.

Ota rozi - Xudo rozi, degan gap bor. Ota roziligini topish iloji yo'q ekan, nega endi tavba eshigini qoqmasliging kerak?! Nega yolgbʻiz Uning O'ziga tavba-tazarular bilan hidoyat so'ramasliging, sajdaga bosh urmasliging kerak? Qachongacha gbʻo'ddayib o'tmoqchisan? Egil, ukam. Azbaroyi jonim achiganidagn yozmoqdaman bu gaplarni, Hali bu xat qo'lingga tegadimi-yo'qmi, qalbingni larzaga soladimi-yo'qmi, u shayton ko'chasidan qaytasanmi-yo'qmi, bilmasman, Olim. Ammo tanangga o'yla, o'sha Vahshiyilar tavba eshigini qoqib, hidoyat topganida, sen - otamizning pokiza palagidan bo'lgan bir zurriyot nechuk insofga kelolmasang?

Ilohim, men adashayotgan bo'lay.

Ilohim, ichimdagi hadiklar bari yolgbʻon bo'lib chiqsin.

Ilohim, o'ylarim behuda, tushlarim shaytoniy bo'lib chiqa qolsin.

Ilohim, sen siroti mustaqim yo'lini topib olgan bo'lginu men bexabar qolgan bo'lay.

Alloh barchamizin O'z panohida asrasin. Omin.

Akang Sultonmuroddan

deb bilgaysan.

Kalkutta.

17. Umidim ertasi, bir bo'lsa, ushalmagan murod-maqsudlarga yetguvchi ukam Maqsudga

"Mehribon va rahmli Alloh nomi ila boshladim.

Biz tirikmiz, Maqsud. Yogʻibiz bizni to'zitib, Muztoghʻga quvib solgan bo'lsa-da, Allohning madadi ila biz omon qoldik.

Yogʻibizning o'zi esa, lak-lak lashkari bilan Tangri yuborgan balo qorining ostida qoldi. Qaraki, nusrat lak-lak qo'shinga emas, uch birdek mujohidga nasib etdi.

Shundan keyin ham Allohga hamd aytmaylikmi! O'zi ko'rsatgan yo'ldan ketmaylikmi?!

Shundan keyin ham yolgbʻiz O'ziga tavakkul qilmaylikmi?! O'zining panohiga qochmaylikmi?!

Maqsud, biz tashlab chiqqan ona diyor ohanrabodek o'ziga qanchalar chorlamasin, u yoqda siz aziz tugʻbʻishganlarimiz ko'zlaringiz to'rt bo'lib, yo'llarimizga qancha ko'z tutmanglar, hijratni ixtiyor etdik. Bir yax-shi kunda qaytmoq uchun ham hozircha Alloh panohiga qochdik. Chunki sarhad ortidagi mojarolar ichiga olovga urilgan parvonalardek urilolmasdik biz. Tushunib turib, ko'rib turib, o'zimizni o'tga tashlolmasdik biz.

U majoralarga musulmon nigohi bilan ham qaramoq lozim ekan. Alloh ham ko'r-ko'rona qurbonni emas, hijratni xush ko'rgaykan. Hijrat etguvchilarga o'z diyorlaridan chandon yaxshiroq diyorlar, rizqlar, islomiy hayot ato etgaykan.

Shunday, ukam. Biz benomu nishon ketganimiz ham yo'q, begona elu elatlar ichra sarson-sargardon qolganimiz ham yo'q. Biz diyoriga sigʻbmagan, uning ertasini kutib, Allohga duo-iltijoda yurgan minglarning birimiz. Kecha shunday edi, bugun esa, o'sha minglarning himoyachisi bo'lish zimmamizga tushib turibdi, Maqsud. Har ish niyatga bogʻbʻliq ekan. Maqsud. Bo'lmasa, kim o'ylabdi, bu yurtlarga kelib, xov o'sha Kattabogʻbdagidek bir ish qilamiz, adolatsizlikka uchraganlarni himoya etib, adolatni o'rniga qo'yamiz deb!

Hammadan ham bu yerda lozim ekan bunday jamiyat, vatanjudolarni himoyaga oladigan, muruvvat ko'rsatadigan bir qo'l.

Niyatimiz vatandan uzoqda mushkul kunga tushib qolgan, singan, himoyachisini yo'qotgan, qul bo'lishga kelgan darbadar gbʻariblarining boshini silaydigan, himoya etadigan jamiyat tuzish edi, shunga muvaffaq bo'ldik.

Bu yerda ham o'zini tutib olgan, hamiyatini yo'qotmagan boylarimiz, tijoratchilarimiz anchagina. Vatan desa, muhojir desa, moli tugul jonini berib yuboradiganlar bor. Vatan dogʻ Bida kuyganlar ayniqsa tez topishar, tez birlashar ekanlar. Ularning muhabbatlari tuganmas bo'ladi ekan. Jamiyatimiz ana shunday qo'li ochiq, bagʻ Biri ochiq, ehsonli kishilar, sidqidil Alloh deganlar, savob qidirganlar hisobiga shuhrat topdi. G'ariblarning, vatanjudolarning chin himoyachisiga aylandi, Maqsud. Sen hatto tasavvur eta olmasan, Maqsud, biz atigi ikki-uch yilda topgan jamgʻ Barmamizni, Bir yoqdan sarflab boraveramiz, bir yoqdan ehsonlar oqib kelaveradi. Joyiga tushirib ulgursak, bas. Muruvvat qilib ulgursak, bas.

Qolaversa, bandargohda Alloh yetkazgani juda-juda asqotyapti.

Ehson bilan mol kamaymaganini, qaytaga dunyoga baraka kirib ketganini shu yerda ko'rdim, Maqsud. Bu hammasi halollik tufayli edi, bu mablagʻ Blarni Allohga xush keladigan o'rinlarga sarflayotganimizdan edi.

Men senga bir voqeani aytay. Namanganning ko'p tabarruk yeri - Kosonsoydan hijrat qilib kelib qolgan bir yigit (ko'rsang o'zbek demaysan, o'zi ozgʻ Bnin, naynovdan-naynov, buning ustiga yuzi sap-sariq, ko'zleri ko'kish odam) jamiyatimizga yordam so'rab keldi. Qipchoq bo'lib qipchoq emas, Qo'qonni Buvaydasi tomonlardagi "ong-kenglovchi ko'kko'zu qotma sariq o'zbeklarga o'xshab ketadi. Shu odam keyin bilsam, gʻ Birt yetim ekan. O'sha o'ttizinchi yillarning "qoch-qochida otasiga ergashib Amudaryoni kechib o'tib qolganlardan ekan. U paytda oq-qorani tanib ulgurmagani bola hech qancha o'tmay imom otasidan ajrab, yetim qopti. Kimlarning eshigida bitlab-sirkalab xizmatini qilib, bo'y yetibdi. Mehnatkashligi qo'l kelib, o'lmay qolibdi. Esini tanibdiki, arava minib, yuk tashirkan. Shuni orqasida ichkuyov bo'пти, bola-chaqa qilibdi. Lekin falokat oyoq ostida emasmi, bir kun kelib, yomon kuniga yarab turgan ot-arava boshiga baloyu musibat keltiribdi. Katta yo'lda mashinadan xurkib qochgan ot-arava yo'l chetida borayotgan hindu qizini urib, surib ketibdi.

Ana falokatu mana falokat. O'zi istamagan, kutmagan tarzda bir odamning qotiliga aylanib qolibdi. Ot-arava ketgani mayli, o'zi xun haqini to'lamasa, qamalish arafasida emish. Bu yoqda yana jo'jabirday oilasi chirqirab qolayotgani-chi! O'z vatani-diyorida bo'lsa-ku, qavm-qarindoshi yoniga kirar, mahalla-ko'y o'rta tushardi. Bu begona yurt, begona elda kim o'rta tushadi.

Qori aka bilan musibat tushgan xonadonga ko'ngil so'rab bordik. Quron tilovat qilib, lutf ko'rgazdik.

Inson - inson-da. Ko'ngli jindek eridi. O'ziga o'xshash bir zahmatkashni kechirsa-da, xun haqidan kecholmadi. Qolaversa, shariatda kechsa afzal degani bilan xun haqini so'raganning aybi yo'q. Bilmay odam o'ldirib qo'ygan kishining o'zi kafforotiga oltmish kun ro'za tutishi joiz bo'lsa-da, so'ralgan xun haqini uning qavmi uch yil badalida yigʻ Bhib berishi lozim.

Hijrat tufayli bu yurtga kelib qolgan yigitni biz o'z qavmimiz hisoblab, xun haqini to'lab qo'ymoqni zimmamizga oldik va birinchi galda uchdan birini yetkazib berdik. U katta pul edi - yuzta tuyanining haqi. Avvaliga qolganini ham bersak, gʻ Bnazmamiz qurib qoladigandek ko'rinib edi, lekin keyin jamiyatga kelib, maslahatlashib ko'rib, xun haqining ikkinchi bo'lagini ham yetkazib berishni lozim topdik. Boshqa din kishilarining ko'z o'ngida shariatimizning sharmiyu sharafini saqlagimiz keldi. Mablagʻ Bni olib bordik ham. Ana shunda ko'rsang, Maqsud, biz hech kutmagan voqea sodir bo'ldi.

Oila boshligʻ Bhi musibatzada ota xun haqini ola turib ho'ngrab yigʻ Bhiblab yubordi. U umri bino bo'lib buncha boylikni ko'rmagan-da deb o'ylagan edik. Yo'q, u kulbasiga kirib ketib, qaytib chiqdi-da, bizning etagimizni o'pa ketdi. Zo'rgʻ Bha turgʻ Bhib qo'ydik.

- Bu qanday din ekanki, adolati shunchalar to'kis bo'lsa?! Bir gʻ Bhabaribga shunchalar muruvvat ko'rsatilsa! U axir ikki dunyoda buncha mablagʻ B topolmasdi-ku, sizlar bo'lmasangiz! Sizlarning shu jamiyatingiz, shu diningiz bo'lmasa! Marhamat qilib, menga diningiz kalimasini o'rgating. Shahodat keltiray. Men u dinga kirmoqchiman. Barcha dinlardan afzal ko'rdim diningizni! - deb turibdi.

Ana shunday, Maqsud! Shariatimiz bagʻ Bbrikengligi tufayli kim ozodlikka, kim hidoyatga erishib turibdi!

Shundan keyin ham bu yo'lga jonlar nisor bo'lmasinmi?!

Shundan keyin ham bu jamiyatning ishini olgʻ Bba bostirmaylikmi?!

Qaerda bo'lsa-da, ajrni Alloh to'la beravergay- ku!

Maqsud, o'rni keldi, so'ray. Bizni qarorgohlarga nima bo'lgan, tushlarimdan ketmay qoldi? U tepalar surilib, jarlar to'lib, Bo'zsuv sakrab o'tsa bo'lgudek bir anhorga aylanib qolganmish. Ishkomlar esa, qayda qoldi, ko'rinmaydi?

Hadeb ko'zimga boshi xumdek, o'zi chillashir bir gʻ Bbaroyib odam ko'rinadi. Parpi omonmi haliga dovur? Margʻ Bhubaning akasi qaytgan degan gaplarning bir uchi bizga-da yetib keldi, o'zi qaerda hozir? Kattabogʻ Bda belida belbogʻ Bhi bor yigitlar bormi o'zi? Biznikilarni xo'rlatib qo'yishmas, axir? Qolaversa, Alloh hafiz, O'zi asragay! Buni shunchaki so'radim. Axir sen borsan-ku.

Hamma qolib, sen men uchun aziz kishilarni yolgʻ Bbizlatib qo'yarmiding! Sendan umidim katta. Ot bosmagan joylarni toy bosadi, axir. Omon bo'!

Uzoqdagi duoguy akang Sultonmurod yozdi. Bombay.

To'ram chorlovlari

"Maqsud, ul Madinai munavvara taraflardan bizga xushxabar yetdi. Kim-kim, o'shal Oltinxon to'ramdan, hijratdagi sargardon yurtdoshlarimiz so'rovi bilan Quroni azimushshonni turkiy tilimizga o'g'irgan buyuk zotdan mujdayu salomlar yetib keldi.

Ul zot:

Ey muhojir, yotma gʻ Bbofil, say qil, bedor bo'l,

Uz ko'ngil dunyodan emdi, tolibi diydor bo'l, debdurlar va kamiga:

Hamjihatlik, binobarin, birlashishlik bizlarga farz,

Jonlantiring birlikni siz, sirlashishlik bizlarga farz,

deb yozibdurlar.

Bu kishining ko'p tabarruk dastxatlarini biz qo'l-ma-qo'l, ko'zga to'tiyo qilib surtib, o'qib chiqdik.

Quroni Karimni suv qilib ichgan kishining nasihatlari ota vasiyatidek aziz va tabarruk edi. O'qib to'ymas edik, ko'zdagi nam va yoshlarni artib ado qila olmasdik, Maqsud.

U kishi jamiyatimiz ishini tabriklab, "jahon aro tariqdek sochilmish vatanjudolar boshini birlashtirishning debochasi bo'libdir bu say-harakatingiz. Alloh ajrini to'liq qilib bersun, ilohim. Iltijo shulkim, keling, birodarlar, uni quvvatlantirayluk, jamiyat shahobchalarini afgʻ Bbonu turkiya tomonlarda-da tuzayluk, toki u gʻ Bbariblar ko'ksiga iksiru l malham bo'lsin debdilar.

Maqsud, men bu xursandchilikni ko'ksimga sigʻ Bbdirolmayin u xatti-nasihatning bir chimdimini senga-da ilindim. O'zing o'qi, u nainki nasihat, durri gavhardur. Butun millatga tegishli vasiyatdur.

"Birodarlar, bu besh kunlik dunyo, insof qilayluk, o'yab ko'rayluk, shoh ham o'tadi, gado ham o'tadi. Quvgʻ Bbinda yurgan ham o'tadi, davron surgan ham o'tadi. Silai rahm zarur, yetimni, musofirni, muhojirning boshini silamak, mushkul kunga qolganning

mushkulini oson qilmoqdan ulugʻ b' savob yo'qdur. Bu vatanjudolar ichida, musulmonlar orasida zohiran boyimiz ham bor, kambagʻ b' alimiz ham bor. Ammo niyatimiz bitta, iymonimizni saqlash uchun bu diyordarga hijrat etganmiz. Nega qo'llamayluk, nega bir jon-bir tan bo'lmayluk?! Rasululloh marhamat qildilarki: "Hargiz musulmonni kambagʻ b' al demanglar. Shu Islom davlati yetib oshib qoladi. Ikki dunyoda shu nemat yetadi, dedilar. Haqiqat shundoq. O'lgandan keyin qayta tirilish bor-u, keyin o'lish yo'q. Jannatga kirsangiz ham mana buncha million yil, mana buncha milliard yil turasiz, xolos, degan gap yo'q. "Xolidina fiha abado deb aytadi Alloh taolo Quronda. Bu "abado (abadiy)! Hech buni falon yil degan yeri yo'q. Xudo saqlasin, jahannamning yillari ham shunday. Ammo janobi Rasululloh Allohga arz qiladilar: "Mening ummatimning bittasi jahannamda qolsa ham jannatga kirmayman deb!

Bu Islom nematiga shukr qilish har bitta mo'min, mo'minaga farz. Deylik, dasturxonda o'ttirib palovlarni yeymiz, har turli mevalar yeymiz. Xudoning bergan nematlarining hammasiga alohida shukr aytish lozim. Ammo u nematni Alloh taolo rahmonlik sifati bilan kofirga ham bergan, mo'minga ham bergan. Rahmonlik sifati dunyoda tamomi mahluqlarga mehribonchilik qilib, rizqini farovon qilishini bildiradi.

Rahmlik sifati-chi, rahmlik ismining barokati-chi, qaysi? Bu Allohning eng katta lutf-ehsoniki, uni qiyomatga qoldirgan. Nega? Bu dunyoda oz yesak ham o'tib ketamiz, ko'p yesak ham o'tib ketamiz. Mardikor ishlasak ham o'tib ketamiz, chorakor ishlasak ham o'tib ketamiz. Masalan, har kuni bitta qo'y yesak ham o'tib ketamiz.

Buning etibori yo'q. U yerga borganda - qiyomatda najot topadigan yer yo'q. Ota bolaga qaramaydi, bola otaga. Alloh taolo rahmni ana shu yerda xos mo'minlargagina qiladi. Buni Alloh qiyomatga boqiy qilgan, bizning nasibamiz.

Silai rahm degan gap bor. Yani katta-kichikka, bola-chaqaga, hatto hayvonlarga rahm qilish. Ana shu rahmni Alloh o'z rahmlik ismidan olib, yuzga taqsim qilgan. To'qson to'qqizini o'ziga olib qolib, bir qismini tamomiy xalqiga va mahluqiga taqsim qilgan. Birodarlar, Alloh taolo qiyomat kuni ana shu rahmni bu mahluqlaridan olib, o'zinikini yana yuzta qilib qo'yadi ekan. Bizda bir-birimizga marhamat qilish, shafqat qilish, rahm qilish yo'q bo'lib qoladi ekan. Ota bolaga, bola otaga boqmas ekan. Bunda qiyomatning shiddatiyu Alloh taoloning qahhorlik sifati bor. Shu holatda bizning Paygʻ b' ambarimizdan boshqa tamomiy paygʻ b' ambarlar "voh nafsi, voh nafsi, deb qolar ekanlar qiyomat shiddatining ogʻ b' irligidan. "Voh nafsi, yani o'z jonimni qutqarsam, bas, degani. Paygʻ b' ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam esa, "Voh ummato, voh ummato der ekanlar. Shu rahmatan lil olamin Paygʻ b' ambarimizga ummat qilgan Parvardigorga millionlar, milliardlar shukr. Alhamdulillah laka hamd. Alhamdulillah laka shukr. Alhamdulillah alo dini islom. Al-hamdullillahi alo nemati islom. Boshlarini sajdaga qo'yib, dillariga kelganicha Allohdan so'rar ekanlar. U kishi dunyodan dod deb o'tdilar, yana qiyomatda bizlarning najotimizni Xudodan so'rab, dod der ekanlar. Alloh: "Yo Habib, boshingni ko'tar, nima desang, tilagingni berdim, demaguncha boshlarini sajdadan ko'tarmas ekanlar.

Alloh bizni ana shundoq Paygʻ b' ambarga ummat qilgan. Qani bizda himmat bo'lsaki, shu Paygʻ b' ambarimizga har kuni ming bor salovat aytsak, aqallisi yuz bor salovat aytsak! Esimizga keladimi? Insof qilayluk, birodarlar. Ana shunda duolarimiz ham dargohida qabul bo'lardi, amallarimiz ham Alloh azza va jallaga xush kelardi.

Ana bu jamiyatingiz, vatanjudolar holidan xabar olib, ularning dardiga malham qo'yayotganingiz b' chindan Alloh rozi bo'ladingan ishlardan bo'libdi. Biz ham qo'shilduk bu say-ko'shishga.

Yuragida o'ti, Allohga iymoni bor, ko'ksida vatan muhabbati so'nmagan barcha muhojirlarga yetkazgaymiz. Vatanjudolarga silai rahm etayluk, diyordaridan judo bo'lganlarning ko'ngillarini ovlab, boshlarini qovushtirayluk. Toki bir jon-bir tan bo'lib, vatandan yaxshiroq vatan, rizqlaridan kengroq rizqlar bergan Alloh taologa bandachilikni o'rniga qo'yayluk. Judo bo'lgan diyordimizda qolgan xeshlarimiz aqli ayollarimizga, farzandlarimizga omonligu erk so'rayluk. Duolarimizni o'zi ijobat etsun.

Alloh taolo barchamizga tavfiq, hidoyat ato etsun.

Sizlarni bilmadim, Maqsud, biz bu xatni o'qib, to'yib-to'yib yigʻ b' ladik. Sizlarning ertangizni so'rab, xayrli duolar qilduk. Ilohim, diydorni qiyomatga qoldirmasin.

Sultonmurod. Bombay.

Hidoyat yo'li kimga nasib etgay, bilarmisan, Maqsud?! (Tangritogʻ b' dan o'zga diyorda topilgan maktublarning hozircha so'nggisi) "Jondan aziz ul mavo - tushlarimdan arimas diyord - Toshkandi azimning Kattabogʻ b' u Yakkabogʻ b' larida xeshu aqrobolarimiz bagʻ b' rida Ulugʻ b' xo'jaboylar avlodining erka ham umidli navdasi bo'lib, mirzosi bo'lib yurgan ukajonim, Maqsud!

Men - bir darbadar akang, senga yorilmay - kimga yorilay?! Bizni kimlar qochqin deb atar, buvalarining aziz xilxonasi turib, xeshu aqrobolari umrguzaronlik qilayotgan diyord turib, hatto osmon nikohi o'qilmish jufti halolini qoldirib, qaylarga ketmish der. Orqamizdan gʻ b' iyatlar etishar. Kimlar esa, endi u oyoq yetguncha ketdi, qaytar yo'llari berk, o'ziga o'zi qildi. Sigʻ b' masmid shu Kattabogʻ b' gʻ b' jimgina yursa? Nima izlaydir - dorilomon bir yurtmi, yo saltanat, deb o'ylarlar.

Dorilomon yurt qaydayu saltanat qayda?! Biz bor-yo'gʻ b' i iymonni asramoq gʻ b' amida hijratni ixtiyor etganmiz. Dunyo mojarolaridan qo'l siltab, Kamonchining panohiga qochganmiz. Buni ular qaydan ham tushunsin, Maqsud! Tushunsang bir sen, bir Chaman tushunishlaring, yana Nusrat pochchayu To'ramgina anglamoqlari mumkin. Qolganlar bilmoqlari dushvor.

Maqsud, mening ortimdan gʻ b' iybatu malomat toshlarini otayotganlarga parvo qilma. Jondan aziz xolajonlarimu togʻ b' ajonlarimga ham, kennoyingga ham aytib qo'y. Men u diyordan etak silkib chiqib ketgan kishi emasman. Men zabun bir kimsadek yashashni istamadim, xolos. Shu bois u diyordarga sigʻ b' madim. Yo'q-yo'q, o'zim sigʻ b' sam ham dardlarim, armonlarim sigʻ b' madi. Dorilomon kunlarni yaqinlashtirishga yolgʻ b' izlik qildik biz. Qolaversa, Alloh rizqu nasibamizni bu yoqlarga sochgan ekan - shu yoqlarga yo'lladi, keldik. Panohiga olganidan sizlar quvonmogʻ b' ingiz, men esa, toabad shukronalar aytmogʻ b' im lozim. O'zi chaqirganki, taqdir etganki, bu yerlarda sogʻ b' omon yuribmiz. O'ziga hazor-ming hamdu sanolar bo'lsinki, bu musofir diyorda ham qo'limizni baland, so'zimizni ustun qilib qo'yibdi. Jamiyat ishini olgʻ b' a bostirib, biz vatanjudolarni azizu mukarram etib qo'yibdi. Alloh roziligi yo'lida hijrat etganlarga vatanlaridan yaxshiroq bir vatan, rizqlaridan kengroq bir rizq beraman, degan vadasining ustidan chiqib turibdi!

Undan tashqari, Maqsud, sen yaxshi xabarlarni eshit. Oltinxon to'ram haj mavsumiga yaqin bizni u munavvar va mukarram zamin - Paygʻ b' ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam o'tgan diyordga chorlamoqdalar. Turk diyorida jamiyatingizni sho'basini ochib, bir yo'la haj qilib ketasiz, debdilar. Allohga shukrlarki, uning roziligini topish yo'lidagi jindek say-harakatimiz shunday taqdirlanyapti.

Sen bilsang edi, tasavvur etsang edi, men bu maktubni bitib, bu xushxabarni senga ilinmoqdamanu ko'zim jiqqa yoshga to'lib, xat qatorini-da ko'rmay qolmoqdaman. Agar unga biron tomchi yosh tegib, xatlarim chaplashgan esa, mazur tutgaysan.

This is not registered version of TotalDocConverter

Lekin qandaydir shu o'zaro qayitib olgan inson o'tib yotipti! Hech yerga sig'ib magudek! Bizni muborakbod et, Maqsud, hidoyat yo'liga chiqayotganimiz, muborak haj safari arafasida turganimiz bilan. Bunga kimlar yetdiyu, kimlar yetmadi. Kelib-kelib biz vatanjudolarga nasib etibdi u. Biz yig'iblamay, kim yig'iblasin, Maqsud!

Shu onda qaraki, nimalar xayoldan ketmayapti!

Bu ham bo'lsa, "Ey odam bolasi, sen men tomon bir qadam tashlagil, men yugurib boray2, degan Allohning marhamatidir, karamidir. Hammani ham u O'z uyi - Kabatullohiga chorlasin-chi!

Shu topda Maqsud, jannatdek bir go'zal vodiya uch qatla taxtga o'tirib ham, necha o'n yillar davri-davron surib ham chin saodatni topolmagan bir inson - mardumi Farg'ona taqdiri xayolimga kelsa degin! Uni so'kib qancha kitoblar bitilmadi. Ayshu ishratdan bo'lak nimani ham bildi, nimani ko'rди, qaydan ham xalq dodiga yetsin edi, deb yozmagan kim qoldi?

Ammo Alloh kelib-kelib shu insonga hidoyat bersa! O'rinburgdek Xudo qarab'agan bir yerda uy qamog'ibiga mahkum etilgan sobiq xon toat-ibodatlar kam ko'rinib, tunlari taxajjud o'qishga boshlasayu nogoh bir kecha ulug'ib niyatni dilga tugib, tong ottirsa! Va cho'lga ovga chiqqan kishi qavliida Ustyurtdek ulug'ib bir taqirni otda kesib o'tib, Qizilqumu Qoraqumdek cho'llarni orqada qoldirib, afg'ibon diyoriga, undan esa Peshovarga yetib kelsa, Amudan o'tarda qaroqchilarga uchrab, bor bud-shudidan ajrasayu niyatidan kechmasa! Allohga tavakkul qilib yo'lida davom etaversa... Unday kishini kim deb atamoq kerak?! Botur debmi, mujohid debmi? Yoxud hidoyat topgan oddiy bir inson - mo'min debmi?

Harqalay, bu dunyo hoyu havaslaridan etak silkiy olgan, yolgb'iz to'gb'ri yo'l - Allohga qullik qilmoq, undan boshqa barchasi o'tkinchi, sarob, oxiri voy ekanini anglab yetgan kishigina shunday jasoratga bel bog'iblay olmog'ibi mumkin. Shohona uy qamog'ibidan ko'ra jondan kechib, loshi cho'llarda qolib ketmog'ibidan-da qo'rqmay, Kaba yo'liga chiqmog'ibi mumkin. Taqdirni qaraki, Maqsud, biz ham endi o'sha kishi o'tgan yo'llar bilan haj safariga o'tlanmoqda edik. Tangritog'ibdan chiqib, afg'ibon diyori bilan Peshovarga kelib, undan Bombeyga yetgan edik. Endi shunaqasi dengiz bilan kemada ketib, Jiddaga yetmoqchimiz.

Qaraki, taxtiyu baxti tortib olingan, ahli ayoliyu xesh-aqrobolaridan, diyoridan ayirib, uy qamog'ibiga tiqilgan xonning iymonini tortib ololmagan ekanlar. Xo'rliklarga sabr, bilib-bilmay qilgan gunohlarga tavbayu istig'ibforlar, tinimsiz zikru shukr, qaraki, hidoyat eshigini ochmish. Tavba eshigidan hidoyat yo'liga chiqiladi, degani shudir balki?!

Men Xudoyorxonning ana shu so'nggi jasoratiga hamisha besh ketar edim. Qaraki, yuz yildan so'ng u o'tgan yo'llar bilan haj azimatiga o'tlanmoqdaman. Allohdan yolgb'iz tilagim, o'sha vatanjudo insonlardek Alloh roziligini topolsam edi!

Faqat yolgb'iz o'tinchim, diyorimni, yo'llarimga ko'zi to'rt bo'lib kutganlarim - sizlarni bir ko'rsam... bir ko'rsatsa, armonim qolmasdi.

Usiz ko'zim ochiq ketmasa deb qo'rqaman, Maqsud!

Ayt, xolalarimga, kennoyingga duolaridan qo'ymasinlar. Shoyad, Alloh o'zi qo'llasa, qaytar yo'llarimizni ochib bersa!. Yodgorimni o'pib qo'y. Otang tirik, Xudo xohlasa, Alloh yuz ko'rishtirgay degin.

Sog'ibingan Sultonmurodingiz.

Bombey.

Avvalgil- qismB Keyingi